

RAUPOVA RA'NO SOYIBOVNA

**DIN NIQOBIDAGI
TAHDIDLARGA
QARSHI IMMUNITETNI
SHAKLLANTIRISH
ASOSLARI**

O'QUV QO'LLANMA

ISBN 978-9910-747-60-1



9 789910 747601



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAUPOVA RA’NO SOYIBOVNA

**DIN NIQOBIDAGI TAHDIDLARGA QARSHI
IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

O‘QUV QO‘LLANMA

**Toshkent
“Lesson Press”
2023**

UO‘K 159.99(075.8)

KBK 66.024.24ya72

R62

Raupova, Ra’no Soyibovna.

Din niqobidagi tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma/ -Toshkent, “Lesson Press” nashriyoti, 2023 yil. 156 b.

O‘quv qo‘llanma din niqobidagi tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishning o‘ziga xos asosiy tushunchalari, vosita hamda mexanizmlarini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan manbalar, adabiyotlar asosida tayyorlangan. Mazkur o‘quv qo‘llanma islom tarixi va manbashunosligi ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.

Muallif:

R.S.Raupova - Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi” kafedrasi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

B.B.Namozov - Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi mudiri, f.f.d (DSc) professor

E.X.Zoyirov - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.n. (PhD), dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga asosan muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-747-60-1

© R.S.Raupova, 2023

© “Lesson Press” nashriyoti, 2023

KIRISH

Yovuz niyatli kuchlar ko‘pchilik yoshlarni o‘z ota-onasiga, vataniga qarshi chiqishga da’vat etib, o‘zlarining manfur niyatlarini amalga oshirishga harakat qilib kelmoqdalar. Mana shunday keskin va tahlikali vaziyatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik hushyorlik va ogohlikni yanada kuchaytirishi davr talabidir.

So‘nggi yillarda aqidaparast oqimlar mehnat migrantlariga ta’sir o‘tkazish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron shaklda tarqatish, internet tarmog‘ida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yashirin hujralar tashkil etish kabi yo‘llar bilan o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Hozirda internet tarmog‘ida buzuqlik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi saytlar mavjud. Bunday kutilmagan va murakkab axborot hujumlari va tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish juda muhimdir.

Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirmasdan, din niqobidagi tahdidlarga qarshi turish qiyin. Ayni paytda yoshlarning diniy ekstrimistik oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida ta’lim muassasalari va mahallalarda tizimli ma’rifiy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Oliy o‘quv yurtlarida “Falsafa” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma yoshlarda din niqobidagi tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Har bir mavzu so‘nggida talabalar tomonidan o‘zlashtirish zarur bo‘lgan tayanch tushunchalar berilgan bo‘lib, ular yordamida o‘qituvchi o‘tilgan mavzuning tinglovchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganini aniqlashi mumkin. Nazorat uchun berilgan savol va topshiriqlar talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo‘yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

1-MAVZU: “DIN NIQOBIDAGI TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI” O‘QUV KURSIGA KIRISH

1. Din niqobidagi tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish asoslari o‘quv kursining maqsadi va vazifalari. Hozirgi kunda Yer yuzida diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. Aytish joizki, har bir mamlakatda jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta‘minlashda eng avvalo, diniy ma‘rifat va bag‘rikenglik konfessiyalararo hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar yurtimizda o‘ziga xos yondashuvni taqozo etadi va ko‘p millatli mamlakatimizda tinchlik, xotirjamlik va barqarorlikni ta‘minlanishi orqali osuda hayotni hukm surishiga zamin yaratadi.

Tarixdan ma‘lumki, yurtimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, yahudiylik, moniylik hamda islom dini vakillari o‘zaro inoq va tinch – totuvlikda istiqomat qilishgan. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ma‘lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi” deb ta‘kidlagan.

Yurtimizda bu borada vijdon erkinligini ta‘minlovchi va uning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy asoslarini mustahkamlovchi jahon standartlari asosida shakllantirilgan qonunlar qabul qilinganini alohida qayd etish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”¹ deb ko‘rsatilgan. 1991-yil iyun oyida qabul qilinib, keyinchalik 1998-yilning 1-may kuni Respublika Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 8.

fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi². Farmonga muvofiq, Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo'ladi.

Bugungi kunda shunday imkoniyatlar mavjud bo'lib turgan bir paytda dinni niqob qilib xalqimizning, qolaversa, dunyo xalqlarining tinchlik va xotirjamligini buzishga harakat qilayotgan harakatlar ham yo'q emas. Mavzuni o'rganishning dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, dunyo xalqlarining tinch va inoq bo'lib yashashlarini ta'minlashda dinni niqob qilib ularning ushbu maqsadlarida sobitqadam bo'lishlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan harakatlarning tasirini ko'rsatib beradi. Dunyo xalqlari o'rtasidagi totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi;

ikkinchidan, dinni niqob qilib olgan harakatlarning asl maqsad va vazifalarini yanada mukammalroq qilib tushunishga yordam beradi. Turli xil yot g'oyalarga kirib ketayotgan yoshlarimizni ogohlikka da'vat

² "Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5046-Фармони. 19.05.2017 // <http://lex.uz/docs/3210345>

etadi. Bunday harakatlarning maqsadlari g'arazli ekanligini ko'rsatib beradi;

uchinchidan, hozirgi kunda yurtimizda ishlab chiqilayotgan, yoshlarimizning mafkuraviy bo'shliqlarini to'ldirishga yordam beradigan huquqiy mezonlarni yanada mukammallashtirish uchun bazaviy asos yaratiladi;

Fanning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi – dinni niqob qilib olgan harakatlarning asl muddaolari, ko'zlagan g'arazli maqsadlari, faoliyati va dunyo ijtimoiy hayotiga qilgan ta'sirlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

–din niqobidagi ekstremistik va terroristik tashkilotlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

–dunyo xalqlari hayotiga bu tashkilotlarning qanchalik ta'sir etganligini va buning natijasida dunyo ijtimoiy hayoti qay darajada o'zgarganligi, bu yot g'oyalarning insoniyat uchun qanchalik xavfli ekanligi, aholining qaysi qatlamlari bu harakatlar tuzog'iga tushib qolayotganliklarini tadqiq etish;

–buzg'unchi g'oyalar va harakatlar o'ziga xos xususiyatiga oid ma'lumotlarni tahlil qilish;

–ekstremizmning dunyoga kelishi va shu kunga qadar rivojlash bosqichlari tarixini har bir yo'nalish tizimida o'rganish.

Mutaassiblik - ma'lum bir mafkura va qarashlarga, ayniqsa, diniy-falsafiy, milliy va siyosiy sohalarda haddan ziyod, ko'r-ko'rona va hissiyotlarga berilib ergashish va ularga amal qilish. Qandaydir tushunchalarga, e'tiqodga yoki dunyoqarashga sodiqlikning eng so'nggi darajasi. Mutaassiblikning eng keng tarqalgan ko'rinishi bu - diniy mutaassiblik.

Mutaassiblik, fanatizm - biron e'tiqodga yoki dunyoqarashga o'ta berilganlik, boshqa har qanday qarashlarga toqat qila olmaslik.

Ekstremizm (lot. - o'ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi) - siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritishdir. Ekstremizmning siyosiy va diniy

ko‘rinishlari yaqqol ajralib turadi. Siyosiy ekstremizm namoyandalari o‘zlarining g‘arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo‘qotishga harakat qiladi. Bu yo‘lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar “demokratiya” niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo‘llab quvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar. Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar. O‘ziga tobe’larni o‘z buyruq va ko‘rsatmalarini ko‘rko‘rona bajarishga majbur etadilar. Siyosiy ekstremizmning millatchilik ko‘rinishi turli millat va etnik guruhlar huquqini inkor etishda namoyon bo‘ladi. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p millatli davlatlarni yo‘qotish, tub millat hukmronligini o‘rnatishga qaratiladi. Bunday ekstremizm millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va xalqlar o‘rtasida mojarolar chiqishiga olib keladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi. Ekstremizmning turli ko‘rinishlari so‘nggi vaqtlarda dunyoning ko‘p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o‘zini namoyon eta boshladi. Turli diniy ekstremistik tashkilotlar (“Hizbut-tahrir”, “Tavba”) yangidan mustaqillikni qo‘lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid solmoqda. Ular vaqtinchalik qiyinchiliklarni ro‘kach qilib, aholini, ayniqsa, yoshlar ongini aqidaparastlik g‘oyalari bilan zaharlamoqda. Farzandlarni yo‘ldan urishga, o‘z ota-onasiga, aka ukasiga, o‘zi tug‘ilib o‘sgan maskaniga, davlatiga qarshi qo‘yishga harakat qilmoqda. Hozirgi kunda ekstremizmga qarshi kurash o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi.

Aqidaparastlik - tanqidiy nuqtai nazardan tekshirmay, aniq sharoitni hisobga olmay ko‘r-ko‘rona fikr yuritish usuli.

2. Mutaassiblik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Qadimgi davrda falsafada hamma narsani shubha ostiga oluvchi skeptiklarga qarama-qarshi o‘laroq ijobiy fikr va ta’limotni ilgari suruvchilarni dogmatiklar deb atashgan. Immanuel Kant tajriba va

kuzatuv bilan hisoblashmay, inson aql-zakovati bunga haqlimi-yo'qmi deb o'ylamay metafizik fikrlovchilarni dogmatiklar deb hisoblagan. Dogmatizm diniy ta'limotda qat'iy, hech bir e'tirozga yo'l qo'ymaydigan aqidalarga rioya qilishda, fan sohasida esa, tayin tarixiy sharoitlarni hisobga olmay o'zgarmas qonun va qoidalarni tan olishda namoyon bo'ladi. Dogmatizmga asoslangan tafakkur usuli ilmiy bilishga zid, nazariya bilan amaliyotning bir-biridan ajralib qolishi natijasidir. Dogmatizm hukm surgan joyda turg'unlik, jaholat, karaxtlik, qotib qolish, mutaassiblik paydo bo'ladi. Yaqin o'tmishdagi sho'rolar tuzumi davrida fan, falsafa, iqtisodiyot, adabiyot va san'at sohalarida dogmatik fikrlash usuli hukmronlik qildi. Iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar va ular ishidagi buzilishlar ilmda sosializmning asosiy mohiyatini tashkil etuvchi tomonlar sifatida ko'rsatilar va mutlaqlashtirilar edi. Bu xulosalar esa ijtimoiy fanlarga bahslashib bo'lmaydigan dogma sifatida kiritilib, nazariy fikrlarning ijodiy taraqqiyotiga to'siq bo'lib qolgan edi. Shunday sharoitda kimki yangi ilmiy muammoni ko'tarib chiqsa, ijodiy fikr yuritishga urinsa, u sosializm dushmani deb e'lon qilinar edi. Natijada ijtimoiy fan vakillari orasida socialistik jamiyatni tanqidiy tahlil qilish mumkin emas, degan fikr keng yoyilgan edi. SSSR parchalangandan so'ng ilm-fan va b. nazariy hamda amaliy faoliyatda ijodiy fikr yuritish imkoniyati vujudga keldi.

Fundamentalizm - keng ma'noda – muayyan ta'limot aqidalarining o'zgarmasligini e'lon qiladigan, e'tiqodni aql dalillaridan ustun qo'yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma'noda bayon etilgan bo'lsa, shu ma'noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma'noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og'ishmay bajarishni qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo'nalishlar. Tor ma'noda - protestantizmdagi ortodoksal oqimlar. 1910-yillarda AQSHning janubiy shtatlarida paydo bo'lgan. Ular xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonchni mustahkamlashni, uni so'zma so'z sharhdashga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. 1919 yil Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assosiasiyasiga asos solindi. XX-asrning 70-yillaridan Fundamentalizm so'zi islomga nisbatan qo'llanila

boshlandi. Islom fundamintalizmni Qur'on va hadislarini so'zma so'z talqin etish va ilk islomga qaytishni targ'ib qiladi.

Terrorizm (lot. terror - qo'rqinch, dahshat) - siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (mas., ekstremistik siyosiy to'dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo'linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo'llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari).

Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaq va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin o'tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h.k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'liga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo'ldi. Ko'p hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'liqligi, chatishib ketishi kuzatila boshlandi.

Xalqaro terrorizm - bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm; odamlarning behuda halok bo'lishiga olib keluvchi, davlatlar va ular rasmiy vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchs, hamda xalqaro aloqalar va uchrashuvlarni, shuningdek, davlatlar o'rtasida transport va boshqa aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli harakat va kilmishlar yig'indisi. Xalqaro terrorizm 20-asrning 60-70-yillariga kelib o'zini yaqqol namoyon kildi: dastlab turli davlatlardagi jinoyatchilar, o'z davlatiga nisbatan ekstremistik ruxdagi guruhlar

birlashib, ijtimoiyiqqisodiy jixatdan orqada qolayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda harakat ko'rsata boshladi. Xalqaro terrorchilar ayrim davlatlarning rahbarlariga, xalqaro miqyosda obro'ga ega bo'lgan siyosatchilarga chetdan turib suiqasd uyushtirish, davlat, transport, aloqa va milliy xavfsizlik tizimini ishdan chiqaruvchi portlashlar va harakatlar sodir etish, transport vositalari, jumladan, samolyotlarni olib qochish bilan shug'ullana boshladilar. 80-yillarga kelib Xalqaro terrorizm yanada jidsiy tus oldi. Begunoh, tinch aholi o'rtasida ko'pdanko'p qurbonlar bo'lishi, xalqaro terrorchilarning boshqa yovuzliklari jahon jamoatchiligini qatgiq tashvishlantirib qo'ydi. 1978 y. kuchli "yettilik" davlatlari rahbarlarining Bonn (GFR) shahridagi uchrashuvida Xalqaro terrorizmga qarshi kurash to'g'risida bayonot qabul qilindi. Xalqaro terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga qarshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzui bo'lib qoldi. Chunki xalqaro terrorchilar bir tizimga birlashib, baynalmilallashdi. Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik ruhsagi shaxslar, narkobiznes va qurolyarog' savdosidan foyda ko'ruvchi jinoiy to'dalar, yollanib xizmat qiluvchilar paydo bo'ldi. Xalqaro terrorchilik va ekstremizm markazlarida razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan maxsus lagerlar ochildi. Xalqaro terrorchilar aholini, xususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga qarshi qo'yishga hamda hokimiyatga qarshi muholafatni shakllantirishga harakat qiladi.

3.Din niqobidagi ekstremizmning paydo bo'lish sabablari. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har kandy ko'rinipshga qarshi qat'iyat bilan kurashib kelmoqda. O'zR ko'plab xalqaro bitimlarning, chunonchi, Xalqaro terrorizm ko'rinishlariga qarshi kurashga qaratilgan bitimlarning, jumladan, havo kemalarini qonunga xilof ravishda egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi 1970 y.gi Gaaga konvensiyasining, Fuqaro aviasiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan qonunga xilof harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi 1971 yilgi Monreal konvensiyasining, Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va

jazolash to'g'risidagi 1973 yilgi konvensiyaning, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi va boshqa konvensiyalarning ishtirokchisi. 2004 y. 1 yanvardan Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi faoliyat ko'rsata boshladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Ekstremizm so'zining lug'aviy ma'nosi?
2. Aqidaparastlik atamasiga izoh bering?
3. Ekstremizm tahdidining oldini olish va bartaraf etish omillarini haqida gapirig.
4. Terrorizm tahdidini bartaraf etishning global ahamiyati.
5. Fundamentalistik qarashlarning barqarorlikka tahdidini tushuntiring.
6. Mutaassiblikning inson ongiga salbiy ta'siri va uni bartaraf qilish omillari.

2-MAVZU: ISLOM - TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA MA‘RIFAT DINI. ISLOM NIQOBIDAGI EKSTREMIZMNING G‘OYAVIY ILDIZLARI

1. Islom - tinchlik va bag‘rikenglik dini. Islom tarixining tinchlikparvar mohiyati. 1995 yil 16 noyabrda YuNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida Bag‘rikenglik tamoyillari to‘g‘risidagi deklarasiya qabul qilindi. YuNESKO tomonidan bag‘rikenglikka oid yetmishdan ziyod xalqaro hujjatlar, konvensiyalar qabul qilindi. Deklarasiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat‘i nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquqlari va erkinliklarga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar aks etgan. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan xislat bag‘rikenglik biz uchun an‘anaviydir. Shu kundan e‘tiboran Jahon afkor ommasi 16 noyabrni har yili “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. 1996 yilda BMT Bosh Assambleyasi har yili shu kunni Xalqaro bag‘rikenglik kuni deb nishonlashni taklif qilgan edi. “Bag‘rikenglik”so‘zi diyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib “bag‘rikenglik” chidamlilik, bardoshlik, toqatlilik, o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma‘nolarga ega deyish mumkin. “Bag‘rikenglik” chinakam islomiy fazilat bo‘lib, arab tilida “Samaahatul islam” deyiladi.

Islomning bag‘rikengligini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shaxsiy namunalarida to‘liq va ravshan ko‘rishimiz mumkin. Payg‘ambar alayhissalomning huzurlariga bir guruh ansoriylar kelib, “Ey Allohning Rasuli! Saqif qabilasi hidoyatga kirmayapti, ularni duoibad qiling” deyishganida u zot alayhissalom “Allohumma, ihdi Saqifa” – “Allohim, Saqifni hidoyat qil”, dedilar. Ansoriylar yana “Ey Allohning Rasuli! Ularni duoibad qiling” deyishdi. Biroq Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yana “Allohim! Saqifni hidoyat qilgin” dedilar. Uchinchi marotaba so‘rashganda ham shu duoni qildilar. Mana, bag‘rikenglikning yorqin namunasi. Payg‘ambarimiz alayhissalomning bu muborak duolari ijobat bo‘lib, ana shu Saqif qavmidan keyinchalik buyuk zotlar, ulug‘ ulamolar yetishib chiqdi.

Tadqiqotchi Jorjiya Islom hukmron bo'lgan davrdagi boshqa samoviy din ashoblari haqida shunday yozadi: Hijratning to'qqizinchi yiliga kelib, Islom dini butun arab jazirasini qamrab olgan bo'lsa-da, Muhammad alayhissalom yahudiy va nasorolarni o'z diniga kirishga majbur qilmaganlar, chunki ular ahli kitob edilar. Muhammad alayhissalom o'zlarining Najron bosh yepiskopi Abulhorisga yozgan maktublarida Islom kelgach, arab jazirasida nasorolarning ahvoli yaxshilanganini aytib, jumladan, shunday so'zlarni aytganlar: ***“Bismillahir rohmahir rohiym! Allohning Rasuli Muhammaddan Najronning bosh yepiskopi Abulhorisga va uning barcha ruhoniylari va yepiskoplariga. Ammo ba'd. Bosh yepiskopga, uning ruhoniylari va boshqa yepiskoplarga ma'lum bo'lsinki, sizlarning cherkovlaringiz, ibodatxonalarigiz qanday bo'lsa, shundayligicha qoldiriladi. Sizlar o'z ibodatlarigizda hur va erkinsiz. Birontangiz o'z mansabi va maqomidan chetlashtirilmaydi. Diniy marosimlaringizda hech narsa o'zgartirilmagani kabi, mazkurlardan ham hech narsa o'zgartirilmaydi. Modomiki, yepiskoplar ahdga, ya'ni o'zlarining asl injillariga sodiq qolsalar va undagi ta'limotlarga, ya'ni nasroniy dinining ta'limotlariga amal qilsalar, Allohning va Rasulining zimmasida, ya'ni himoyasida bo'ladi. Kim ularni bu narsadan to'ssa, u Allohning va Rasulining dushmani bo'ladi”***.

3. Din tushunchasi mazmunidagi bag'rikenglik tavsifi Hazrati Payg'ambar alayhissalom yuborgan mazkur risola ahli kitoblar arab jazirasida, ya'ni Arabiston yarimorolida o'z ibodatlarini emin-erkin ado etish huquqiga ega bo'lganiga, hech kim ularni bundan to'sib, tazyiq o'tkazmaganiga dalolat qiladi. Hijratning to'qqizinchi yilida Najron vafdi, ya'ni delegasiyasi bosh yepiskopi Abulhoris boshchiligida Madinai Munavvaraga elchilar bo'lib kelishgan. Barchamizga Islom tarixidan ma'lumki, to'qqizinchi hijriy yil “amul mufud” (elchilar yili) deb nomlangan. O'sha yili boshqa din vakillaridan, boshqa mamlakatlardan guruh-guruh bo'lib elchilar kelishgani uchun shunday nomlangan. Abulhoris boshliq elchilar kelib, Nabiy alayhissalomning huzurlariga kirmoqchi bo'lganlarida ular o'zlarining rasmiy diniy liboslarini kiyib, u zotni masjidi nabaviyda ziyorat qilishgan. Ziyorat

qilib bo'lganlaridan so'ng u zotdan ibodatlarini ado etish uchun ruxsat so'rashgan.

Nabiy alayhissalom ularga Madina masjidida ibodat qilishlari uchun sharoit qilib berganlar. Shunday qilib, ular musulmonlarning masjidida Baytul Maqdisga yo'nalgan holda ibodatlarini ado qilishgan. Payg'ambar alayhissalom ahli kitoblarga hurmat bilan muomala qilar edilar, ayniqsa, nasorolarga alohida ehtirom ko'rsatardilar. Oisha onamiz roziyallohu anhodan rivoyat qilinadiki, Payg'ambar alayhissalom rafiqul a'loga intiqol qilganlarida, ya'ni vafot qilishlaridan oldin bir yahudiyga o'z sovutlarini garovga berib, undan 30 so' arpa sotib olgan ekanlar. Oisha onamiz roziyallohu anho mana shu voqeani u zotning bag'rikenglik borasida o'z ummatlariga ko'rsatgan eng katta ta'limlari, deganlar. Din niqobi ostidagi ekstremizm, terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi. E'tibor bilan qaralsa, har qanday ekstremistik harakatlarni amalga oshirayotgan shaxslar o'zlarining bu nomaqbul ishlarini to'g'ri va g'oyalartini haq deb e'tirof etishadilar.

3. Ekstremizm va terrorizmning kelib chiqish tarixi. Islom manbalarida ilm va ma'rifat targ'ibi Ekstremizm so'zining kelib chiqish tarixi Amerikaga borib taqaladi. Amerikada irqiy qullik amaliyoti oson va biroz munozarali misoldir. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, qullikni zamonaviy oq irqiy ekstremizm bilan taqqoslash mumkin emas, chunki bu Amerika jamiyatida ko'p yillar davomida qabul qilingan me'yor edi. Shunga qaramay inglizcha "ekstremist" so'zi birinchi bor qullik to'g'risidagi bahs-munozaralar paytida ommalashtirildi. Deniyel Vebster tomonidan qullikning eng ashaddiy himoyachilari va kamsituvchilariga nisbatan ishlatilgan. Ba'zilarining ta'kidlashicha, ekstremistlar shunchaki e'tiqodlari jamiyat hayotidan tashqarida bo'lgan odamlardir. Tarixdan shu bugunga qadar o'tgan ekstremistlar g'oyalari doim o'garib turgan.

Eng dastlabki ekstremistik harakatlar Qadimgi Rimdagi urushlari davridan boshlanadi. Bu haqda ingliz olimi ekspert J.M.Berger

ekstremizm tarixini tuzib chiqadi va muammo bugungi kunda har qachongidan ham yomonroq ekanligini takidlaydi.³ Eng qadimgi va eng mashhur misollardan biri qadimgi Rimdan olingan. Miloddan avvalgi 264-yildan boshlab va bir asrdan ko‘proq davom etgan Rim qo‘shni Karfagen bilan bir qator urushlar o‘tkazdi. Ushbu davr oxiriga kelib, ustunlik Rimga o‘tdi. Ammo ba’zilar Karfagenning davom etishi Rim shaxsiyatiga tajovuz ekanligini ta’kidlab, g‘alaba etarli emas edi. Rim senatori Kato oqsoqollardan biri edi. U har qanday nutqini - qaysi mavzuda bo‘lishidan qat’iy nazar - “Karfagenni yo‘q qilish kerak” degan buyruq bilan tugatgani bugungi kunda lotincha “Carthago delenda est” iborasi sifatida esga olingan. Miloddan avvalgi 146-yilda qamaldan so‘ng Rim Karfagenni yer bilan yakson qildi, taxminan 150.000 aholini o‘ldirdi va tirik qolganlarni qullikka sotdi. Buni Yel olimi Ben Kiyernan “birinchi genosid” deb atadi.

Qadimgi dunyodagi eng shafqasiz misollardan biri “Sicari” nomi bilan tanilgan yahudiy guruhi bo‘lib, ular Rim hukmronligiga zo‘ravonlik bilan qarshilik ko‘rsatgan va Rim bilan hamkorlik qilgan deb topgan barcha yahudiylarni o‘ldirgan. Milodiy 73-yilda ular Masadaning tog‘ pog‘onasida qamal ostida ommaviy o‘z joniga qasd qilganliklari haqida tan olingan.

Islom niqobi ostida paydo bo‘lgan ekstremistik harakatlar tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning ildizlari uzoq o‘tmishga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqalishini ko‘rish mumkin. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644–656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalar paydo bo‘ldi. Usmon (r.a.)ga uyushtirilgan suiqasd (656-y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o‘ldirilgach, uning o‘rniga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656–661) saylandi.⁴

Islom niqobidagi ekstremizmning ilk vakillari sifatida 657-yili xalifa Ali (r.a.) askaridan ajralib chiqqan, musulmon saflariga qo‘shilmaganlarni “dindan qaytgan” deb e’lon qilib, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan “xorijiylar” (arab: ajralib chiqqanlar,

³ www.jmberger.com

⁴ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. / Mas’ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 18 b.

isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti bo'la oladi. 657-yil (37-hijriy)da Shomning (Suriya) shimoli-sharqida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo'shini bilan u yerning hokimi Muoviya (r.a.) qo'shini o'rtasida "Jamal voqeasi"dan bir oy o'tib, to'qnashuv sodir bo'lgan. Ushbu to'qnashuvga 656-yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o'ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo'ldi. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo'lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.) dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, shundan so'nggina Ali (r.a.)ga bay'at qilishni ma'lum qildi. Jang to'qqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo'li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari xiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko'rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko'chirilgan Musxaf varaqlarini ilib, Qur'on bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to'xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o'rtasida hijriy 37-yil safar oyining 15-kuni (mil. 657-yil 8-sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur "Siffin" jangi musulmonlar uchun juda katta yo'qotish bo'ldi. Unda hammasi bo'lib to'qson ming musulmon halok bo'ldi. Aynan "Jamal" va "Siffin" janglari musulmonlar o'rtasida dastlabki bo'linishlar va turli firqalar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xorijiylikning kelib chiqish tarixfa nazar soladigan bo'lsak, xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular "hukm chiqarish faqat Allohning qo'lidadir", degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi "xuruj" (bo'ysunmaslik) voqeasi ularning "xavorij" (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni "haruriylar" deb ham ataganlar. Ular o'zlarini "shurot" (jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning "Muhakkima" ("hukm Allohning qo'lida" deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.⁵

⁵ Tinchlikni asrash – muqaddas burch. / Mas'ul muharrir A.Ochilidiyev. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashri- yot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.

Xavorijlar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviyani yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 660-yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar hamda o‘lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749–1258) qo‘liga o‘tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o‘z kuchini yo‘qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so‘nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.⁶

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko‘rgan “hashshoshiylar” (arab: hashish (nasha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallash maqsadida ularga xayrixoh bo‘lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko‘plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Yevropa mamlakatlari rahbarlari o‘z xavfsizliklarini ta‘minlash uchun ularga to‘lov to‘lashga majbur bo‘lgan. Ingliz tilidagi suiqasd ma‘nosini anglatuvchi “assassinate” so‘zi ham aynan “hashshoshiy” atamasidan kelib chiqqani oqimning o‘z davrida davlatlar xavfsizligiga katta tahdid tug‘dirganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, “hashshoshiylar” zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo‘llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand moddalarni iste‘mol qildirib, o‘lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan.

Xususan, VII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, to XVIII asrning oxiriga qadar islom olamida davom etib kelgan diniy-ekstremistik harakatlar inqirozga uchragan bo‘lsa ham, oradan oz muddat o‘tib, ular tomonidan talqin qilingan g‘oyalar zamonaviy ko‘rinishdagi turli mutaassib guruhlar yetak-chilari mafkurasiga asos bo‘lib xizmat qildi va bu bilan diniy-ekstremistik harakatlar rivojining yangi davri boshlandi deyish mumkin. Shunday bo‘lsada, yuqorida qayd

⁶ Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari. / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxeamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

etilgan oqimlarning g‘oyalari va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topganini aytish joiz.⁷

Shunday bo‘lsada, islomning asl mohiyatiga butunlay zid bo‘lgan yuqoridagi g‘oyalar va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topdi. Islomda “inqilobiy kurash” ta’limotini yaratgan suriyalik Ahmad ibn Taymiya (1263-1328)ning fikrlari keyinchalik “soxta salafiylik” kabi turli radikal harakatlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi.

Aslida islomda “salaf” (arab: “ajdodlar”, “avval yashab o‘tganlar”) deganda, hadislarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar (a.s.) zamonlari va undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Islom mujtahid ulamolari ilk musulmonlarni “salafi solih”, ya’ni “solih ajdodlar” deb yakdil hisoblashadi. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan “salaf” yoki “salafiy”lar tushunchalari aslo ishlatilmaydi.

Xristianlik ham bu dinamika ta’siridan chetda qolmadi. Ba’zi mazhabparastlar va o‘zlarini “kofir” deb hisoblagan kofirlarni zo‘ravonlik bilan yo‘q qilish uchun salib yurishlari va inkvizitsiyalarni boshladi. Ulardan biri, XIII asr Albigeniya salib yurishi edi. Fransiyadagi katarlar nomi bilan tanilgan deviant nasroniylik oqimini yo‘q qildi. 1209-yilda Beziyers qirg‘inida 20000 katar o‘ldirildi va salib yurishining oxiriga kelib butun mazhab qirilib ketdi.

Ekstremizm yangi dunyoga XVI asrdan boshlab Amerikani mustamlaka qilgan ispan konkistadorlari bilan keldi. Ba’zi bir ispanlar Amerikadagi tub aholining qulligi va yo‘q qilinishidan dahshatga tushganligini bildirishgan ekan. O‘sha davrdagi ziyolilar ushbu dahshatlarni oqlash uchun irqiy va mafkuraviy dalillarni ishlab chiqqanlar. Ispanlar tabiiy ustunligi evaziga qit’aning mahalliy aholisi ustidan qullik tartibini o‘rtangan. Shu darachada bo‘gan ekanki, ba’za tarixiy kitoblarda: “Unda siz odamzodlik qoldiqlarini deyarli topa olmaysiz” deya ta’kidlangan ekan ⁸ . Ushbu asoslashlar 19-asr

⁷Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). / Mas’ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom uni-versiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.

⁸ www.jmberger.com

mutafakkirlari tomonidan Amerikaning irqiy qullikni qabul qilishiga olib keladigan zanjirning bir bo‘g‘ini sifatida tushunilgan.

Afrika millatiga mansub odamlarni qurbon qilgan tarixning eng shafqasiz va sharmandali ekstremistik amaliyotlaridan biri XIX asr oxiri va XX asrga kelib, yangitdan qit‘aning janubida Ku-Kluks-Klan (KKK) nomi bilan ko‘tarilib, 1910 va 20-yillarda yangi shaklda harakat boshlagan. Guruh bugungi kunda ham davom etmoqda. Garchi avvalgi kuchi yo‘qotgan bo‘lsa ham: 1925-yilda 4 million a‘zosiga ega bo‘lib, 2016-yilda 3000 ga yaqin tarafdorlari mavjudligi ta’kidlangan.

Binobarin, XXasrning boshlarida antisemitizm ekstremizmining yangi va ko‘proq virusli shakllari paydo bo‘ldi. Antisemitizm uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, fashistlar Germaniyasida genosid darajasiga ko‘tarildi. Yana bir ekstremistik harakatni bilamiz. Garchi u bir muncha vaqt nemis jamiyatining asosiy oqimini egallab turgan bo‘lsa ham. Bu – nasistlar edi. Hokimiyat tepasida kelganlaridan keyin olti million yahudiyani va millionlab odamlarni, shu jumladan nogironlar, sovet, serb, lo‘lilar va polshaliklarni o‘ldirdilar⁹. Nasistlar mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, ularning merosi bugungi kunda dunyo bo‘ylab (kamida) o‘nlab neo-nasist guruhlarini shaklida saqlanib kelmoqda.

Anarxistlar Fransiya va Amerika prezidentlarini o‘ldirdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Italiya qiroli va Avstriya imperatori ham shular qatoridadir. 1970-yillar davomida faqat Qo‘shma Shtatlarning o‘zida 184 kishi va Evropada esa ko‘plab odamlar o‘ldirilgan. Serbiyalik millatchi birinchi jahon urushini boshlagan deb qabul qilingan o‘qni otdi (avstriyalik arxduke Frants Ferdinandni o‘ldirish bilan). Serbiyalik ekstremistlar 1990-yillarda Bosniya musulmonlariga qarshi genosid harakatlarini sodir etib, halokatli kuch bilan yana paydo bo‘lishdi.

2019-yilda, Yangi Zelandiyaning Kristchurch shahrida sodir etilgan terroristik ommaviy qotillik qisman serb millatchiligidan ilhomlangan deyiladi.

1980-yillar zamonaviy jehodistik ekstremizm vujudga keldi. 2001-yil 11-sentyabrda zo‘ravon ekstremizm masalasini global ustuvorlikka

⁹ www.jmberger.com

ko'targan al-Qoida tomonidan qo'zg'aluvchan, transmilliy harakatlar amalga oshirildi. U 2010-yillarda ISHIDning paydo bo'lishi bilan yanada harakatni kuchaytirdi. Bugungi kunda minglab jihodchi ekstremistlar butun dunyodagi terrorizmdan tortib to qo'zg'olongacha bo'lgan zo'ravonlik harakatlarida qatnashmoqdalar.¹⁰

Xuddi shu davrda Qo'shma Shtatlar va Evropada oq millatchilik va oq ustunlik qayta tiklandi, ularning aksariyati musulmonlarni o'zlarining asosiy dushmani deb hisoblaydilar va nafratlarini himoya qilishning bir qismi sifatida jihodizmning buzuqliklariga ishora qiladilar. Ammo musulmonlarni nafaqat oq ekstremistlar nishonga olmoqda balki Myanmada Buddist ekstremistlarning yangi zoti musulmon jamoalarini yo'q qilishga intilmoqda. Xitoyda islom diniga amal qilib kelgan etnik uyg'urlar qamoqqa olinmoqda va konsentrasion lagerlarda "qayta tarbiyalanmoqda". Bugungi kunda ekstremizm muammosi har qachongidan ham yomonroqligini yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlar ham tasdiqlab turibdiki, bu xatarli zararlardan har bir kishi ogoh bo'lishligi lozim bo'ladi. Ayniqsa bugun har bir insonda topilishi mumkin bo'lgan klaviaturali moslamalardan to'g'ri va tartibli foydalanish kun tartibi bo'lib qolmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Bag'rikenglik so'zining lug'aviy ma'nosi?
2. Dinlardagi bag'rkiyenglik haqida ma'lumot bering.
3. Diniy bag'rikenglik" tushunchasining mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi qanday?
4. Islom ta'limotidagi o'zga din va e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglikning ifodasi haqida ma'lumot bering.
5. "Dinda majburlash yo'q" tamoyilining islom manbalaridagi ifodasi qanday?

¹⁰ www.jmberger.com

3-MAVZU: ISLOM ASOSLARINI G‘ARAZLI MAQSADLARDA BUZIB TALQIN QILISH: MOHIYAT VA MAQSADLAR

1. Islom asoslarining mazmuni. Islom asoslarini buzib talqin qilinishining salbiy oqibatlarini. Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Arab Respublikasi, Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, Sudan, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin aholisining ma’lum bir qismi, Yevropa qit’asida esa Bolqon yarim orolida yashovchi xalqlarning bir bo‘lagi islomga e’tiqod qiladi. Islom Markaziy Osiyo, Zakavkaze va Shimoliy Kavkaz, Volgabo‘yi, G‘arbiy Sibir va boshqa ayrim rayonlarda yashovchi aholining bir qismi ongi va turmushida mavjud bo‘lib, bu xalqlar turmush tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Yer yuzida Islomga e’tiqod qiluvchilar, ya’ni musulmonlar qariyb 1,5 milliardga yetadi va ular soni jihatidan xristianlardan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.

Islom so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi – *taslim bo‘lish, bo‘ysunish*, istilohda esa yagona Allohga bo‘ysunish ma’nolarini beradi. Islom dini ta’limoti bo‘yicha Muhammad (s.a.v.) avvalgi (O‘rta Yer dengizi havzasi sivilizasiyasida ma’lum bo‘lgan) payg‘ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg‘ambar (*Xotam alanbiyo*) – nabiy va rasul deb tan olinadi. «Nabiy» – arab tilida xabarchi, xabar yetkazuvchi ma’nolarini beradi. Payg‘ambarlar orasida ularga Alloh tomonidan alohida kitob va shariat nozil qilinmagan va avvalgi payg‘ambarning kitob va shariatini insonlarga targ‘ib qilganlari nabiyalar deb ataladi (Ismoil, Ishoq, Ya‘qub, Zakariyo kabi). «Rasul» – arab tilida elchi ma’nosini anglatadi. Alloh tomonidan alohida kitob va shariat berilgan payg‘ambarlar rasullar darajasiga erishgan hisoblanadi. Masalan, Ibrohim, Muso, Iso kabilar. Muhammad a.s. ham kitob va shariat berilgan payg‘ambarlardan bo‘lib, unga Qur’oni karim nozil qilingan va unda maxsus shariat berilgan. Islom dini har bir o‘zini musulmon deb atagan kishiga din arkonlari deb atalgan quyidagi besh vazifani yuklaydi: 1) Allohning yagona iloh ekanligiga va Muhammad (s.a.v.) uning payg‘ambari ekanligiga guvohlik berish 2) kuniga besh mahal namoz o‘qish 3) miqdoriga

yetganda o‘z molidan zakot berish 4) har yili Ramazon oyida ro‘za tutish 5) qodir bo‘lsa umrida bir marta haj qilish. Islomning asosiy ruknlari quyidagilardir:

- 1) imon;
- 2) namoz;
- 3) zakot;
- 4) ro‘za;
- 5) haj.

Imon. “*Imon*” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa **“La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh”** (“Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad uning payg‘ambari”) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Imonning yetti sharti bor. Ular: *Allohning borligi va birligiga imon keltirish*, ya‘ni Allohning Qur‘oni Karimda va Muhammad (s.a.v.) hadislarida bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish. Ibodat qilish va sig‘inishga, undan o‘zga loyiq zot yo‘q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha man etgan narsalaridan qaytish. Qur‘onning “al-Ixlos” surasida Alloh taoloning yagonaligi shunday ta‘riflanadi: “Aytgin (Ey, Muhammad a.s.): Alloh yagonadir, beniyozdir (hech kim va hech narsaga muhtoj emas, balki barcha unga muhtojdir), tug‘magan, tug‘ilmagan va uning tengi yo‘qdir” (Qur‘on, 112:1-4). – *Farishtalarning borligiga imon keltirish*. Farishtalar nurdan yaratilgan bo‘lib, Allohning buyruqlarini so‘zsiz bajarib, amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil (Jibril), Mikoil (Mikol) kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur‘onda zikr etilgan. Jabroil farishtaning vazifalaridan biri payg‘ambarlarga Allohning vahylarini yetkazish bo‘lgan. Farishtalardan ba‘zilari odamlar bilan doim birga bo‘lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur‘onda ularni “Kiroman kotibin” (“Mukarram kotiblar”) deb zikr etilgan (Qur‘on, 82:10-12). Bundan tashqari, tafsir kitoblarida Isrofil, Azroil nomli farishtalarning ismlari ham qayd etilgan.

Qur‘on va hadislarda farishtalar haqida juda ko‘p yerda so‘z yuritilgan. Shuning uchun ham ularga ishonish imonning shartlaridandir.

– *Ilohiy kitoblarga imon keltirish.* Alloh taolo Muhammad a.s.ga Qur'onni nozil qilganidek, boshqa Payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambar "Sahifalari", Musoga "Tavrot", Dovud payg'ambarga "Zabur" va Iso payg'ambarga berilgan "Injil" kitoblaridir. Ulardan boshqa Payg'ambarlarga yuborilgan kitoblar haqida Qur'on va hadislarda xabar berilmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan.

– *Payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish.* Alloh taolo insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun Payg'ambarlar yuborgan. Barcha Payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'inlari kabidirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur'onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarning barchasiga barobar imon keltirish shart.

– *Oxirat kuniga ishonish.* Dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g'oyalaridan biridir.

– *Taqdirga – yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga – e'tiqod qilish.* Yuqorida aytib o'tilganidek, islomning ma'nosi "taslim bo'lmoq", "o'zini topshirmoq"dir. Shunga binoan, inson hayotda ro'baro' bo'ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o'zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi lozim. Yaxshiliklarga shukr qilmog'i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog'i imonning shartlaridan biridir.

– *O'limdan keyin qayta tirilish.* Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

Namoz - islomda imondan keyin musulmonlarga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Namoz arkonlari Qur'oni karimda to'liq bayon etilmagan bo'lsa ham, ammo u haqda ba'zi ko'rsatma va tartiblar berilgan. Namozning vaqti hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Har kuni besh vaqt: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o'z bo'yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr –(peshin vaqti chiqishi bilan to quyosh to'liq botgunga qadar), shom – (quyosh to'liq botganidan ufqdagi qizillik yo'qolguniga qadar), xufton – (shom vaqti chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

Zakot – “poklash” ma'nosini bildiradi, ya'ni ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot yetim-yesir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo'lida yurganlar, zakot yig'uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari, xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag'dan beriladi. Zakot vositasida jamiyat kishilari orasida o'zaro hurmat-e'tibor ortib, bir muncha tenglik yuzaga keladi. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo'lida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ro'za – yilda bir oy: «Ramazon» oyi davomida kunduz kunlari yeyish-ichish va jinsiy aloqada bo'lishdan tiyilish. Ro'za hijratning ikkinchi yili farz bo'lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro'zani buzgan kishi boshqa kunda tutib berish bilan birgalikda, uning jazosi sifatida ikki oy paydar-pay ro'za tutishi lozim bo'ladi.

2. Diniy mutaassiblikning islom asoslariga zid ekani. Shuningdek, ro'za Ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, nafl ro'za yoki qasamni buzishdagi kafforat uchun ham ro'za tutiladi. Haj – qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj Zulhijja oyning 8 kunidan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: «ifrod» – faqat haj amallari bajariladi, «qiron» – haj va umra amallari oldinma ketin bajariladi,

“tamattu” – avval umra qilinib, ehromdan chiqiladi va Zulhijja oyining sakkizinchi kuni ehromga kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: ehrom bog‘lab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Ka‘bani tavof qilmoq. Islom dinida yuqorida birinchi rukn sifatida zikr qilingan *imon* va boshqa e’tiqod masalalari – *ilm al-aqo‘id* (ilohiyot) ilmida o‘rganilsa, keyingi to‘rt masala – *ibodat* masalalari boshqa ko‘pgina savollar bilan *ilm al-fiqh* (diniy qonunshunoslik) doirasida bayon qilinadi va o‘rganiladi. Islomning O‘rta Osiyoga kiritilishi, uning o‘ziga xos rivojlanish yo‘llari.

3. O‘rta Osiyo arab istilochilari tomonidan zabt etilishi VII-asr oxiri va VIII-asr boshlarida ummaviylar sulolasi hukmron bo‘lgan 661-750-yillarda arablar harbiy yurishining ikkinchi bosqichiga to‘g‘ri keladi. O‘rta osiyo xalqlari hayotiga islom ta’limotining kiritilishi muayyan darajada ijobiy rol o‘ynadi. Jumladan, arablar hukmronlik qilgan dastlabki asrlarda ilohiyot, fan, falsafada arab tili hukmron bo‘lgan. Ammo keyinchalik mahalliy xalqlarning o‘z tillarida ham madaniyat rivojlanib, ungaislomning ta’siri kuchli bo‘lgan.

Qur‘on va Hadis - islom dinining asosiy manbalari. “Qur‘on” - arabcha “qaraa” o‘qimoq) fe’lidan olingan. Qur‘on suralardan iborat. Sura Qur‘ondan bir bo‘lak bo‘lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o‘z ichiga oladi. Qur‘onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur‘on mantlarini taqsimlashning turli yo‘llariga ko‘ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur‘on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turlicha taqsimlanganligini bildiradi. Suralar Qur‘onda o‘z mazmuniy izchilligiga yoki o‘qilgan vaqtiga, ya’ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko‘ra - avval katta suralar, undan so‘ng kichik suralar tartibida joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmga ega bo‘lgan 2-surada 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat. Islomshunoslik va Qur‘onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. Makka davri 610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo‘lgan saj’ janridagi suralar o‘qilgan. Yevropa olimlari ularga “Nazmiy suralar” deb nom berganlar.

2. Makka davri 616-619 yillar), Muhammad s.a.v.) va ularning izdoshlari doimiy ta’qib ostida yashagan va ko‘pchilik Habashistonga ko‘chib ketgan muhitda o‘qilgan. Bu suralarda Ollohning “Rahmon” sifatida ko‘p tilga olinganligi sababli Yevropa olimlari ularni “Rahmon suralari” deb ataganlar.

3. Makka davri 610 yil boshlaridan 622 yil syentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad s.a.v.) va uning izdoshlari ta’qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko‘pincha shahardan tashqarida ibodatga to‘planganlar. Bu davr suralarida islomning aqoid ta’limotiga keng o‘rin berilganligi sababli, yevropalik olimlar bularga “Payg‘ambarlik suralari” deb nom berganlar. Tarixiy voqealar aniqroq ko‘zda tutilgan holda Madina davriga oid 24 ta surani besh davrga ajratish ma’qulroqdir: 1-Madina davri 622 yil oktyabrdan 624 yil gacha). Muhammad s.a.v.) Madinaga ko‘chib kelganidan makkaliklar bilan birinchi yirik to‘qnashuv - Badr jangigacha o‘qilgan 4 sura bu davrga kiradi. 2-Madina davri 624 yil martidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o‘tgan bir yil ichida o‘qilgan 3 surani o‘z ichiga oladi. 3-Madina davri 625 yil martida - 627 yil matrtigacha). Uhud jangidagi mag‘lubiyatidan keyin Xandaq jangigacha o‘tgan ikki yil ichida 5 ta sura o‘qilgan. 4-Madina davri 627 yil apreldan 630 yil yanvarigacha). Xandaq jangidan so‘ng Makkaning olinishigacha o‘tgan salkam uch yil ichida o‘qilgan 8 sura shu davrga kiradi. 5-Madina davri 630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka olinganidan keyin Muhammad s.a.v.) payg‘ambarning vafotigacha o‘tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida o‘qilgan 4ta sura shu davrga kiradi. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi – bu mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Demak, mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

3. Islom manbalarida zulmni rad etilishi va ezgulikning targ‘ib qilinishi. Darhaqiqat, ilmiy istilohda qo‘llanayotgan “fundamentalizm”, “aqidaparastlik”, “mutaassiblik”, “ekstremizm”, “terrorizm” kabi

atamalar deyarli barchaga tushunarli bo'lsa-da, har bir kishi ularni o'zicha talqin etishi mumkin. Keng ma'noda, bu atamalar qonuniy hokimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga nisbatan ishlatiladi.¹¹

Dastlabki ekstremistik harakatlar Qadimgi Rimdagi urushlari davridan boshlanadi. Bu haqda ingliz olimi ekspert J.M.Berger ekstremizm tarixini tuzib chiqadi va muammo bugungi kunda har qachongidan ham yomonroq ekanligini takidlaydi.¹² Eng qadimgi va eng mashhur misollardan biri qadimgi Rimdan olingan. Miloddan avvalgi 264-yildan boshlab va bir asrdan ko'proq davom etgan Rim qo'shni Karfagen bilan bir qator urushlar o'tkazdi. Ushbu davr oxiriga kelib, ustunlik Rimga o'tdi. Ammo ba'zilar Karfagenning davom etishi Rim shaxsiyatiga tajovuz ekanligini ta'kidlab, g'alaba etarli emas edi.

Rim senatori Kato oqsoqollardan biri edi. U har qanday nutqini - qaysi mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar - "Karfagenni yo'q qilish kerak" degan buyruq bilan tugatgani bugungi kunda lotincha "Carthago delenda est" iborasi sifatida esga olingan. Miloddan avvalgi 146-yilda qamaldan so'ng Rim Karfagenni yer bilan yakson qildi, taxminan 150.000 aholini o'ldirdi va tirik qolganlarni qullikka sotdi. Buni Yel olimi Ben Kiyernan "birinchi genosid" deb atadi. Qadimgi dunyodagi eng shafqsiz misollardan biri "Sicari" nomi bilan tanilgan yahudiy guruhi bo'lib, ular Rim hukmronligiga zo'rvonlik bilan qarshilik ko'rsatgan va Rim bilan hamkorlik qilgan deb topgan barcha yahudiylarni o'ldirgan.

Milodiy 73-yilda ular Masadaning tog' pog'onasida qamal ostida ommaviy o'z joniga qasd qilganliklari haqida tan olingan. XX asrning 70-yillaridan boshlab esa, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Buning natijasida, jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarini "fundamentalistlar" deb atash ham odat tusiga kirdi.

Demak, islomni asl holida saqlab qolish da'vosi bilan odamlarni bir-biriga qarshi qo'yib, qon to'kishni tashkil qilayotgan, amalda esa o'zining manfaatlarini o'ylayotgan kishilar Yevropada

¹¹ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. / Mas'ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 7 b.

¹² www.jmberger.com

fundamentalistlar, arab mamlakatlarida esa mutaassiblar yoki aqidaparastlar, deb ataladi.

Bunday keskin fikrlar sogʻlom yoki nosogʻlom boʻlishi mumkin. Jamiyat uchun nosogʻlom, uning taraqqiyotiga zid boʻlgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar oʻrtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchilar – ekstremistlardir.

Ekstremizm mazmuniga koʻra – diniy va dunyoviy, namoyon boʻlishiga koʻra – hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga boʻlinadi. Ekstremistlar qarashlari juda chuqur ildizlarga ega boʻlib, ular hech qachon chegara bilmagan yoki din, millat, biron-bir mamlakat hududini tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy koʻrinishlari mavjud boʻlsa, diniy ekstremizmni bir qancha dinlarga, jumladan buddizm, xristianlik, islom kabi dinlarga eʼtiqod qilishini daʼvo qiluvchi turli oqimlarda uchratish mumkin.

Mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodalkatolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini taʼqib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon boʻlishiga olib kelgan inkvizisiya faoliyatini ham ekstremizmning oʻziga xos koʻrinishi sifatida baholaydilar.

Maʼlumki, islom dini ichidagi ajralib chiqishlar 657-yildagi “siffin” voqealaridan keyin kelib chiqqanligini koʻrishimiz mumkin.

Ushbu toʻqnashuvga 656-yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) oʻldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari oʻrtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab boʻldi.

Marhum xalifaning yaqin qarindoshi boʻlgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.) dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, shundan soʻnggina Ali (r.a.)ga bayʼat qilishni maʼlum qildi. Jang toʻqqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qoʻli baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari xiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) koʻrsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi koʻchirilgan Musxaf varaqlarini ilib, Qurʼon bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul

qilgach, jang to‘xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o‘rtasida hijriy 37-yil safar oyining 15-kuni (mil. 657-yil 8-syentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur “Siffin” jangi musulmonlar uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi. Unda hammasi bo‘lib to‘qson ming musulmon halok bo‘ldi. Aynan “Jamal” va “Siffin” janglari musulmonlar o‘rtasida dastlabki bo‘linishlar va turli fiqaralar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.¹³

Nasroniylik dinida ham dinni niqob qilib olib o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan harakat va oqimlarni ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi mazhabparastlar va o‘zlarini “kofir” deb hisoblagan kofirlarni zo‘ravonlik bilan yo‘q qilish uchun salib yurishlari va inkvizitsiyalarni boshladi. Bu harakalar XI asrdan boshlangan. Bu harakatlarda tarixda “Salib yurishlari” nomi bilan qolgan. Ulardan biri, XIII asr Albigensiya salib yurishi edi. Fransiyadagi katarlar nomi bilan tanilgan deviant nasroniylik oqimini yo‘q qildi. 1209-yilda Beziyers qirg‘inida 20000 katar o‘ldirildi va salib yurishining oxiriga kelib butun mazhab qirilib ketdi. Bundan tashqari ular asosan musulmonlarga qarshi yillar davomida kurashdilar. Ikki tomondan minglab insonlar qirilib ketganligini tarix kitoblaridan bilib olish mumkn.

Ba’zi bir ispanlar Amerikadagi tub aholining qulligi va yo‘q qilinishidan dahshatga tushganligini bildirishgan ekan. Ekstremizm yangi dunyoga XVI asrdan boshlab Amerikani mustamlaka qilgan ispan konkistadorlari bilan keldi.

O‘sha davrdagi ziyolilar ushbu dahshatlarni oqlash uchun irqiy va mafkuraviy dalillarni ishlab chiqqanlar. Ispanlar tabiiy ustunligi evaziga qit‘aning mahalliy aholisi ustidan qullik tartibini o‘rtangan. Shu darachada bo‘gan ekanki, ba’za tarixiy kitoblarda: “Unda siz odamzodlik qoldiqlarini deyarli topa olmaysiz” deya ta’kidlangan ekan.¹⁴ Ushbu asoslashlar 19-asr mutafakkirlari tomonidan Amerikaning irqiy qullikni qabul qilishiga olib keladigan zanjirning bir bo‘g‘ini sifatida tushunilgan.

¹³ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. / Mas’ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov . «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 18 b.

¹⁴ www.jmberger.com

Afrika millatiga mansub odamlarni qurbon qilgan tarixning eng shafqasiz va sharmandali ekstremistik amaliyotlaridan biri XIX asr oxiri va XX asrga kelib, yangitdan qit'aning janubida Ku-Kluks-Klan (KKK) nomi bilan ko'tarilib, 1910 va 20-yillarda yangi shaklda harakat boshlagan. Guruh bugungi kunda ham davom etmoqda. Garchi avvalgi kuchi yo'qotgan bo'lsa ham: 1925-yilda 4 million a'zosiga ega bo'lib, 2016-yilda 3000 ga yaqin tarafdorlari mavjudligi ta'kidlangan.

Binobarin, XXasrning boshlarida antisemitizm ekstremizmining yangi va ko'proq virusli shakllari paydo bo'ldi. Antisemitizm uzoq tarixga ega bo'lsa-da, fashistlar Germaniyasida genosid darajasiga ko'tarildi. Yana bir ekstremistik harakatni bilamiz. Garchi u bir muncha vaqt nemis jamiyatining asosiy oqimini egallab turgan bo'lsa ham. Bu – nasistlar edi. Hokimiyat tepasida kelganlaridan keyin olti million yahudiyni va millionlab odamlarni, shu jumladan nogironlar,sovet, serb, lo'lilar va polshaliklarni o'ldirdilar.¹⁵ Nasistlar mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, ularning merosi bugungi kunda dunyo bo'ylab (kamida) o'nlab neo-nasist guruhlarini shaklida saqlanib kelmoqda.

Anarxistlar Fransiya va Amerika prezidentlarini o'ldirdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Italiya qiroli va Avstriya imperatori ham shular qatoridadir. 1970-yillar davomida faqat Qo'shma Shtatlarning o'zida 184 kishi va Evropada esa ko'plab odamlar o'ldirilgan. Serbiyalik millatchi birinchi jahon urushini boshlagan deb qabul qilingan o'qni otdi (avstriyalik arxduke Frants Ferdinandni o'ldirish bilan).

Serbiyalik ekstremistlar 1990-yillarda Bosniya musulmonlariga qarshi genosid harakatlarini sodir etib, halokatli kuch bilan yana paydo bo'lishdi. 2019-yilda, Yangi Zelandiyaning Kristchurch shahrida sodir etilgan terroristik ommaviy qotillik qisman serb millatchiligidan ilhomlangan deyiladi.

1980-yillar zamonaviy jehodistik ekstremizm vujudga keldi. 2001-yil 11-sentyabrda zo'ravon ekstremizm masalasini global ustuvorlikka ko'targan al-Qoida tomonidan qo'zg'aluvchan, transmilliy harakatlar amalga oshirildi. U 2010-yillarda ISHIDning paydo bo'lishi bilan

¹⁵ www.jmberger.com

yanada harakatni kuchaytirdi. Bugungi kunda minglab jihodchi ekstremistlar butun dunyodagi terrorizmdan tortib to qo'zg'olongacha bo'lgan zo'ravonlik harakatlarida qatnashmoqdalar.¹⁶

Zamonaviy diniy terrorizmning ikkita alohida xatarli belgisini ajratib ko'rsatish mumkin: bir tomondan, u tobora shafqasizroq g'ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sig'dirish qiyin jug'rofiy ko'lamlar kasb etib bormoqda. AQSH Davlat departamentining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 650 dan ortiq terrorchilik hodisalari sodir etilmoqda. Xatarli jihati shundaki, ularning soni muntazam oshib bormoqda. Masalan, 1992-yilda ana shunday noxush voqealarning umumiy soni 362 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 600 dan oshib ketdi.

BBC World Service va London Qirollik kolleji ma'lumotiga ko'ra, 2014-yil noyabr oyining o'zidayoq jangarilar dunyo bo'yicha 5042 kishining umriga zomin bo'ldi. Shundan, "Iroq va Shom islom davlati" ("ISHID") tomonidan 2206 kishi, "Boko Haram" tashkiloti tomonidan 801 kishi va "Tolibon" harakati tomonidan 720 kishi qatl etilgan.

Ekspertlarning fikricha, dunyoda faoliyat ko'rsatayotgan terrorchilik tashkilotlarining yuzdan oshig'i eng zamonaviy qurollar bilan yaxshi ta'minlangan yirik uyushmalardan iborat. Ular turli qo'poruvchiliklarni sodir etish jarayonida o'zaro hamkorlik qiladilar, ma'lumotlar almashadilar, zarur hollarda, bir-birlariga harbiy, moliyaviy va boshqa shakldagi yordam ko'rsatadilar. Bu esa, terror oqibatlarini yanada oshiradi. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga "al-Qoida", "ISHID", "Jabhat an-Nusra", "Boko Haram", "Tolibon", "Abu Sayyaf" kabilarni kiritish mumkin.

Afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishni ko'zlaydigan kuchlar bor ekan, sun'iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to'xtamaydi.

¹⁶ www.jmberger.com

Bunga 2011–2014-yillarda ba’zi arab mamlakatlarida ro‘y bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli to‘qnashuvlar misol bo‘la oladi.

Mazkur ommaviy tartibsizliklar tufayli Tunis, Misr, Liviya, Suriya, Iroq kabi davlatlarda minglab kishilar qurbon bo‘ldi va voqealar hamon davom etmoqda. Yaqin Sharq davlatlarida bo‘lib o‘tgan xunrezliklar, “arab bahori” nomi bilan begunoh odamlarning yostig‘ini quritayotganlar ham asosan dinni qurol qilib olgan kuchlar ekani hech kimga sir emas. Shuningdek, bugungi kunda bunday oqimlar uchun o‘z maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash, Internet va ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali keng targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifalardan biriga aylangan.

Masalan, birgina ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan tartibsizliklarning salbiy oqibatlarini 2011-yilning boshlarida bir qator arab davlatlarida yuz bergan “twitter inqilobi” voqealarida ham ko‘rish mumkin. Xususan, tashqi kuchlar tomonidan Facyebook, Twitter ijtimoiy tarmoqlari va proksi-IP xizmatidan foydalangan holda Tunis, Misr, Liviya, Bahrayn, Eron, Suriyadagi tartibsizliklar tashqi kuchlar tomonidan nazorat qilib turilgan.¹⁷

Demak, bugungi kunda dunyo hamjamiyatida mafkuraviy poligonlarning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri har bir mamlakat, davlat, xalq oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Bunday sharoitda kishilarni, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongini turli xil yot g‘oya va axborot xurujlaridan saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha savollar.

1. Islom dinining asosiy manbalariga nima kiradi?
2. Diniy mutaasiblik qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi?

¹⁷ Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). / Mas’ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.

3. Islom manbalarida ekstremizmning qoralanishi haqida gapirib bering.

4. Islom ta'limotida terrorizmni qoralanishi haqida gapirib bering.

5. Ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan tartibsizliklarning salbiy oqibatlari qanday?

6. Zamonaviy diniy terrorizmning nechta xatarli belgisini ajratib ko'rsatish mumkin?

4-MAVZU: GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK GURUHLAR

1. Xavfsizlikka tahdid solayotgan din niqobidagi ekstremistik guruhlar.

“Musulmon birodarlar” (“al-Ixvon al-muslimun”) diniy- siyosiy tashkilot. 1928 yil Misrning Ismoiliya shahrida tuzilgan. Asoschisi - Shayx hasan al-Banno (1906-49). Uning siyosiy qarashlari Muhammad al-G‘azoliy, Muhammad Abdu, Jamoliddin al-Afg‘oniy, Rashid Rizo kabi panislomiy modernistlarning ta’sirida shakllangan. U islomning sunniylik oqimi ta’limotidan chetga chiqmagan holda “jihod”, “islomiy milliyatchilik”, “islomiy davlat” konsepsiyalarini ishlab chiqdi. Sayyid Qutb, Mustafo as-Siboi tashkilotning tanikli mafkurachilari bo‘lgan. Sayyid Qutbning “Islomda ijtimoiy adolat” asari uyushma ta’limotining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Tashkilotning maqsadi musulmon o‘lkalarda “islomiy adolat” tamoyillariga asoslangan jamiyat barpo etishdan iborat. Bunga esa “islomiy taraqqiyot yo‘li” bilangina erishish mumkin. “Musulmon birodarlar” mafkurasining g‘oyaviy asosini “islom faqatgina diniy e’tiqod bo‘lmasdan, balki mukammal dunyoqarash hamda ijtimoiy tuzumdur”, degan aqida tashkil etadi. “Musulmon birodarlar” murakkab tuzilmali, harbiylashgan bo‘limlarni o‘z ichiga olgan. Misrdan boshqa mamlakatlar (Suriya va Livan)da ham bo‘limlari bor. Uning faoliyati keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan bo‘lsada, tashkilot a’zolari talaba-yoshlarni o‘zlarining asosiy zarbdor kuchi deb hisoblaganlar. “Musulmon birodarlar” xayr-ehson qilish va ma’rifatchilik faoliyatidan (1928-36) to siyosiy hayotda terror metodini keng qo‘llashda faol ishtirok etishgacha bo‘lgan murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. 1930-yillarning o‘rtalaridan xalifalik shaklidagi “islomiy davlat” qurish g‘oyasi targ‘ibotiga zo‘r bera boshladi.

Hasan al Banno vafotidan so‘ng “Musulmon birodarlar” faoliyati yanada siyosiylashib bordi. Natijada u 3 yo‘nalishga bo‘linib ketdi: “mo’tadil birodarlar” (asosan, Hasan al-Banno va Sayyid Qutb izdoshlari); “islomiy demokratlar” “islomiy sosializm” ta’limotining

turli ko‘rinishlari tarafdorlari; harbiylashgan ekstremistik islomiy tashkilotlar (“Katoib Muhammad”, “Junud Alloh”, “at-Takfir va-l-hijra”, “at-Tahrir al-islomiy”). “Xizb uttaqir al-islomiy” diniy siyosiy partiyasi ham shular jumlasiga kiradi. “Musulmon birodarlar” uyushmasi bo‘linishi tufayli yagona tashkilot sifatini yo‘qotdi va 1950-yillardan “Musulmon birodarlar” harakati (“al-Ixvoniyya”) deb yuritila boshladi.

Shu davrdan boshlab “Musulmon birodarlar” harakati ekstremistik faoliyati uchun faqat Misrda emas, balki boshqa davlatlarda ham g‘ayri qonuniy deb e‘lon qilinib man etilgan. “Musulmon birodarlar” harakati Misr, Suriya, Iordaniya va Livanda faoliyat ko‘rsatib, bu mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarga katta salbiy ta‘sir qilmoqda. “Musulmon birodarlar” ning birinchi jur. “al-Ixvon al-muslimun” 1933 yildan chiqa boshlagan. 1980-yillardan boshlab “ad-Da‘va” (“Da‘vat”) jur. “Musulmon birodarlar” ning asosiy nashridir. Al-Qoida muqobil ravishda al-Qoida va al-Qoida deb yozilgan) 1988 yilda Osama bin Ladin, Abdulla Azzam, va boshqa bir qancha arab ko‘ngillilari tomonidan Sovet Ittifoqi-Afg‘oniston urushi davrida tashkil etilgan jangari sunniy islomiy ko‘p millatli tashkilot. Al-Qoida islomiy ekstremistlar va salafiy jihodchilar tarmog‘i sifatida faoliyat yuritadi. Tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi, Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO), Yevropa Ittifoqi, AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Hindiston va boshqa turli mamlakatlar tomonidan terroristik guruh sifatida belgilangan (quyida ko‘rib chiqing).

Al-Qoida turli mamlakatlardagi noharbiy va harbiy maqsadlarga qarshi hujumlarni uyushtirgan, jumladan 1998 yil Amerika Qo‘shma Shtatlari elchixonasining portlashlari, 11 syentyabr xurujlari va 2002 yil Balidagi portlashlar. Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumati 11 syentyabr xurujlariga al-Qoida va uning ittifoqchilariga putur yetkazmoqchi bo‘lgan “Terrorizmga qarshi urush” ni boshlash bilan javob qaytardi. Asosiy rahbarlarning, shu jumladan Usama bin Ladinning o‘limi, Al-Qoida operasiyalarini yuqoridan pastga hujumlarni tashkil qilish va

rejalashtirishdan, aloqador guruhlar va yakka guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan hujumlarni rejalashtirishga o'tishiga olib keldi. Al-Qoida o'ziga xos xudkushlik hujumlarini va bir vaqtning o'zida bir nechta nishonlarni bombardimon qilishni o'z ichiga olgan hujumlarni uyushtiradi. Al-Qoida mafkurachilari musulmon mamlakatlaridagi barcha begona ta'sirlarni yo'q qilishni ko'zda tutmoqdalar.

Al-Qoida a'zolari xristian-yahudiy ittifoqi Islomni yo'q qilish uchun fitna uyushtirmoqda, deb hisoblashadi. Salafiy jihodchilar sifatida, al-Qoida a'zolari jangovar bo'lmagan odamlarni o'ldirish diniy jihatdan jazolangan deb hisoblashadi. Al-Qoida, shuningdek, sun'iy qonunlar deb qaraladigan narsalarga qarshi chiqadi va ularni qat'iy shariat qonunlari bilan almashtirishni xohlaydi. Al-Qoida kofir deb bilgan odamlarga qarshi ko'plab hujumlarni uyushtirgan. Shuningdek, u musulmonlar o'rtasida mazhablararo zo'ravonlikni qo'zg'atish uchun javobgardir. Al-Qoida liberal musulmonlar, shialar, so'fiylar va boshqa mazhablarni bid'at deb biladi va uning a'zolari va hamdardlari ularning masjidlari va yig'ilishlariga hujum qildilar. Mazhablararo hujumlarga misol qilib Yazidiylar jamoatidagi portlashlar, Sadr Siti shahridagi portlashlar, Ashuradagi qatliom va 2007 yil aprel oyida Bag'doddagi portlashlar keltirilgan. 2011 yilda Usama bin Laden vafot etganidan so'ng, guruhni misrlik Ayman az-Zavohiri boshqargan. XX asrda yuzaga kelgan diniy-siyosiy tashkilotlar va ulaning ta'sirida shakllangan destruktiv oqimlar. Zamonaviy voqelik ekstremizm va xalqaro terrorizmning salohiyati sifat va miqdor jihatidan jiddiy o'sganini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida ekstremizm va terrorizmning global xavfsizlikka yo'naltirilgan jiddiy tahdidga aylanishiga zamin yaratmoqda.

Ekstremistik va terrorchi guruhlar globallashuv jarayonlari va yirik davlatlar orasidagi geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvidan hamda fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda ekstremizm va terrorizmga qarshi keng ko'lamlı kurash olib borilayotgan muhitga moslashishga harakat qilmoqda. Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga salbiy ta'siri xalqaro terrorchilik tizimida yetakchi o'rinlarni egallab

turgan quyidagi diniy-siyosiy tashkilotlarning mohiyati tahlil qilinganda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

1. “Al-Qoida” radikal “islom” g‘oyalariga asoslangan ushbu transmilliy diniy-siyosiy guruhning paydo bo‘lishiga Usoma ben Laden (1957–2011) rahbarligida Afg‘onistonda Sovet armiyasiga qarshi urushda ishtirok etish uchun ko‘ngillilarni yollash va ularni qurol-aslaha bilan ta‘minlash maqsadida Pokiston hududida tuzilgan “Maktab al-xidmat” byurosi asos bo‘lib xizmat qilgan. 2001-yilning 11-sentyabridagi terroristik faoliyatlar natijasida Al-Qoidaning kelib chiqishi va shakllanishi hamda Usoma ben Ladenning biografiyasi haqidagi ko‘plab ma‘lumotlar paydo bo‘la boshladi.¹⁸

Usoma ben Ladenning shaxsiyati va uning tashkiloti al-Qoida borasida ushbu bobda ko‘plab mavzular muhokama qilingan. Ben Ladenning intellektual va ma‘naviy shakllanishining keng konteksti o‘xshashdir: liberal, demokratik, g‘arbiy sivilizasiya ma‘naviy mohiyatdan mahrumdir, bu esa uni Xudoning yakuniy va aniq ifodalangan vahiysiga qarshi qo‘yadi. Ushbu mavjud xatar tufayli mo‘min G‘arbga imkoni boricha qarshilik ko‘rsatishi va unga bog‘liq bo‘lgan yoki xususan islom olamidagi u bilan ittifoq bo‘lgan tuzumlarni buzishi lozim.

2. “Musulmon birodarlar”. Oqimning kelib chiqish tarixi. Oqimning global barqarorlikka tahdidi. “Musulmon birodarlar”ga raddiyalar.

Tarix to yakuniy, abadiy va osoyishta musulmon olami o‘rnatiladigan oxirgi qiyomat voqealarigacha islomiy haqiqatning ahamiyati pasayib borishidan iboratdir. 1977-yilda Ben Laden Jidda shahridagi Qirol Abdulaziz universitetining muhandislik va biznes kursiga qabul qilingan. Undan islom dinini o‘rganish ham talab qilingan, bu yerda u Abdulla A‘zam va Sayyid Qutbning ukasi, Misr ixvon tashkilotining a‘zosi va akasining nashrlarining muharriri Muhammad Qutbning rahnamoligi ostida o‘zining salafiylik nazariyasini boyitgan. A‘zam Falastin ixvon tashkiloti hamda Xamasning a‘zosi deb topilgan.

¹⁸ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari. / Mas‘ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 78 b.

U 1967-yilgi olti kunlik urushda qatnashgan, 1969-yilda doktorlik dissertasiyasini himoya qabul qilgan va Iordaniya universitetida islom huquqshunosligi bo'yicha professor bo'lgan. Bir necha yildan so'ng u siqib chiqarilgan va Abdulaziz universitetida ta'lim berishni boshlagan. Uning ravshan va islom yerlarini qayta tiklash haqidagi tushunchasi ochiq va ravshan bo'lgan: "jihod va qurol bitta narsadir: muzokaralar, konferensiyalar va dialoglarga o'rin yo'q". Xalifalik tomonidan boshqarilgan har qanday hudud xatto u kichik va yoki bir kishining qo'lidagi hovli bo'lsa ham, qayta qo'lga kiritilishi shart.

Ben Laden uchun bunday fikr aksiomadir. 1996-yilda "al-Qoida"ning asosiy jangovar kuchlari Afg'onistonning "Tolibon" harakati nazoratidagi hududlarga ko'chib o'tdi. Aynan shu yerda, 1998-yilning fevralida "al-Qoida" yetakchiligida "al-Jamoa al-islomiya", "al-Jihod" (Misr), "Jamaati ulame Pokiston", "Kashmir qo'zg'olonchilik harakati" (Hindiston), "Jihod" (Bangladesh) va "Tolibon" harakati vakillari "Yahudiy va salibchilarga qarshi xalqaro islom fronti" uyushmasi tuzilganini e'lon qilishdi.

Ushbu uyushma nomidan Usoma Ben Laden G'arb dunyosiga jihod e'lon qilgan. Shundan so'ng, qator og'ir oqibatlarini keltirib chiqargan terrorchilik harakatlari sodir etildi. Jumladan, 1998-yil 25-iyunda "al-Qoida" jangarilari Saudiyaning Daxran shahri yonida joylashgan AQSH harbiy havo kuchlarining bazasi oldida amalga oshirgan portlash natijasida 19 kishi halok bo'lib, 300 dan ziyod kishi tan jarohatini oldi. O'sha yilning 7-avgustida esa "al-Qoida" jangarilari bir vaqtning o'zida AQSHning Tanzaniya va Keniyadagi elchixonalarini oldida bomba ortilgan mashinalarni portlatishi oqibatida esa 242 kishi halok bo'ldi va 5000 ga yaqin odam shikastlandi. Va nihoyat, 2001-yilning 11-sentyabrida Amerika Qo'shma Shtatlarida turli reyslar bilan Nyu-York, Boston va Washington shaharlaridan uchgan to'rtta "Boing-757" samolyoti "al-Qoida" guruhiga mansub 18 nafar terrorchi tomonidan egallab olinib, ularning ikkitasi Nyu-Yorkdagi Xalqaro Savdo Markazi joylashgan "egizak" binolarga, bittasi esa AQSH qurolli kuchlari shtabi – Pentagonga yo'naltirildi. Yana bir samolyot Pensilvaniya shtatidagi Shanksvill rayoniga qulab tushdi.

3. “al-Qoida” ekstremistik va terroristik oqimlarni birlashtirgan tarmoq. Tarmoqning kelib chiqish tarixi. “al-Qoida”ga raddiyalar.

Umuman olganda, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, “al-Qoida” guruhi jangarilari Afg'oniston (1992-yildan), Somali (1992–1993-yillar), Bosniya va Gersegovina (1992–1995-yillar), Kashmir (1993-yildan), Shimoliy Kavkaz (1995-yildan), Kosovo (1999-yildan), Markaziy Osiyo (1999-yildan), Pokistonning Janubiy Vaziriston viloyati (2001-yildan) va Iroq (2003-yildan) hududlarida qurolli to'qnashuv va terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so'ng Afg'onistonda o'tkazilgan keng ko'lamli xalqaro aksilterror harakati natijasida “al-Qoida” jiddiy talafot ko'rgan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirishga intilmoqda. Jumladan, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, tashkilot asosiy tizimlarini erkin pushtun qabilalari yashaydigan Pokistonning shimoli-g'arbiy va Kashmirdagi baland tog'li hududlarga ko'chirishga harakat qilmoqda. Qayd etilgan dalillar ham “al-Qoida”ning xalqaro terrorchilik tizimining markaziy unsuri va jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlar, terrorchilik amaliyotlarini moliyalashtirish, rejalashtirish hamda bevosita amalga oshirishning asosiy bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Musulmon birodarlari haqida ma'lumot bering?
2. Al-Qoida asoschisi haqida ma'lumot bering?
3. Diniy mutaassiblik va ekstremizm: mohiyat va maqsadlarini tushuntirib bering.
4. Islom niqobi ostidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari haqida gapiring.
5. Xavfsizlikka tahdid solayotgan din niqobidagi ekstremistik guruhlar
6. “Musulmon birodarlar” harakatining global barqarorlikka tahdidi qanday?

5-MAVZU: GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK GURUHLAR ("IROQ VA SHOM ISLOM DAVLATI")

1. ISHID tarixi va tahdidi. ISHIDning parchalanib ketishi. Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID) (ba'zan Iroq va Suriya Islom Davlati deb tarjima qilinadi) - sunniy, ekstremist, jihodchi, o'zini xalifalik deb e'lon qilgan jangari guruh, sobiq tan olinmagan davlat. Guruh o'zini **Islomiy Davlat (ID)** deb nomlaydi va arabcha **Da'ish** qisqartmasi bilan ham ma'lum. ISHID 2014-yilning boshida Iroqning g'arbida joylashgan muhim shaharlardagi davlat harbiy kuchlarini siqib chiqardi. Suriyada esa ham davlat kuchlari, ham Suriya fuqarolar urushida ishtirok etayotgan guruhlar bilan jang qildi. Iroqda katta hududni bosib olganidan keyin, guruh 2014-yil iyun oyida Abu Bakr Al-Bag'dodiy boshchiligida xalifalik o'rnatilganini e'lon qildi.

2017-yilning noyabriga kelib guruh egallab olgan deyarli barcha hududlarni qo'ldan boy berdi. Iroq qurolli kuchlari "Dajla amiri" laqabli "Islomiy davlat" terroristik guruhi rahbarlaridan birini qo'lga oldi. Iroq markazidagi mamlakat qurolli kuchlari topshiriq paytida terrorchining izini topishga va pistirma o'rnatishga muvaffaq bo'lgan. ISHIDning tomirlari 2003-2011-yilgi Iroq urushiga borib taqaladi. Guruhning to'g'ridan-to'g'ri o'tmishdoshi bo'lmish Iroqdagi Al-Qoida (IAQ) Iroq hukumatiga va boshqa chet ellik kuchlarga qarshi bo'lgan isyonda muhim rol o'ynadi. Abu Musab al-Zarqavi boshchiligida IAQ mojaro davomida sodir etilgan eng mudhish hujumlarni amalga oshirdi. 2006-yil Zarqavining o'limidan keyin guruh bir necha kichik ekstremist guruhlar bilan birlashdi va o'zini Iroq Islom Davlati (IID) deb qayta nomladi. Bu o'zgarish guruhning keng hududlarni bosib olish va jahon islom jamiyatiga yetakchilik qilish niyatida ekanligini ko'rsatdi. 2007-yilga kelib bo'lsa g'arbiy Iroqdagi bir necha sunniy aymoqlar guruhga qarshi chiqqanidan keyin uning faoliyati sezilarli darajada cheklandi. Bu o'zgarishlarga IID jangchilarining egallangan yerlardagi mahalliy aholiga qilgan shafqasiz muomalasi va sunniy aymoq boshchilarining isyonlarda qatnashmaslik uchun mablag' bilan ta'minlanishi sabab

bo'ldi. Bundan tashqari, IAQ/IIDning bir necha boshchisi AQSH va Iroq kuchlari tomonidan o'ldirilishi ham guruhni kuchsizlantirdi.

2010-yil guruh boshiga janubiy Suriyada joylashgan va AQSH boshqarib turgan qamoqxonada besh yil o'tirib chiqqan jangchi Abu Bakr Al-Bag'dodiy keldi. Iroq siyosatida diniy guruhlariga bo'lgan munosabat, xususan Nuri al-Maliki hukumati tomonidan Al-Qoida va Baas tuzumining qoldiqlari bilan kurashish niqobi ostida sunniylarning repressiya qilinishi g'arbiy Iroqda ekstremizm uchun sharoit yaratdi. 2011-yilga kelib sunniylar noroziligining kuchayishi va chet ellik harbiylarning mamlakatni tark etishi IAQ/IID yana tiklanishiga imkon yaratdi. Sunniy ekstremistlar tomonidan uyushtirilgan portlatishlar soni yana bir bor ko'paydi. 2011-yil Suriya Prezidenti Bashar al-Assadga qarshi g'alayon sifatida boshlangan Suriya fuqarolar urushi IAQ/IID uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Guruhning jangchilari osonlikcha Iroqdan sharqiy Suriyaga o'tishdi. 2012-yilning oxiriga kelib harbiy muxolifatning o'zagi bo'lib kelgan va asosan dunyoviy guruhlardan tuzilgan to'da o'zaro kelishmovchiliklar va charchoq sabab kuchsizlana boshladi. Islomiy kuchlar bo'lsa aksincha kuchaya boshladi.

Bular orasida mahalliy islomiy jangchi guruhlar birlashmasi bo'lmish Islomiy Front, Al-Qoidaning markaziy bo'limi bilan aloqador va Ayman al-Zavahiri boshchiligidagi Nusrah Fronti hamda Abu Bakr Al-Bag'dodiy qo'llab-quvvatlovchi jangchilar bor edi. 2013-yil aprel oyida Bag'dodiy o'zining Suriya va Iroqdagi kuchlarini Nusrah Fronti bilan Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID) nomi ostida birlashtirish niyatida ekanligini e'lon qildi. Nusrah Fronti bunga qarshi chiqdi. Natijada ikki guruh orasidagi asosan jangchi yollash bo'yicha bo'lgan bellashuv avj oldi va pirovardida ikki tomon ochiqchasiga jang qila boshladi. ISHID davlat boshqaruvidan ancha avval chiqib ketgan sharqiy hududlarni tezlik bilan egallab oldi. Guruh markazida Raqqa shahri joylashgan o'zi bosib olgan hududda qat'iy va talabchan shariat o'rnatdi.

Guruh janglarda erishgan yutuqlari, o'z dushmanlariga va guruhga ko'ra islomiy qonun-qoidalarni buzganlarga qilgan vahshiy muomalasini

ko'rsatib o'zini targ'ibot qildi. Bu targ'ibot Iroq va Suriya tashqarisidan ko'plagan radikal kishilarni jalb qilgani aytiladi, ammo ularning aniq soni noma'lum qoldi. ISHID yana sharqiy Suriyadagi neft zavodlari kabi muhim infrastrukturaning egallab oldi. Bu zavodlar yordamida guruh qora bozorda neft sotib foyda ko'rdi. O'zbekistonlik jangarilar ham guruh safida jang qilayotgani haqida xabarlar tarqatildi. Bular orasida ISHID targ'iboti bilan shug'ullanganlar ham borligi aytiladi.

O'zbekiston Islomiy Harakati bo'lsa Islomiy Davlatni qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi. ISHID o'zi uchun markaz qilib olgan Raqqa shahridan boshqa hududlarga qarab kengaydi va Suriya va Iroqda bir necha muvaffaqiyatli hujumlarni uyushtirdi. 2014-yil yanvar oyida guruh asosan sunniylar yashaydigan Falluja va Ramadi shaharlarini bosib oldi. Bundan keyin ISHID jangchilari hukumat harbiylarini hayratda qoldirib shimolga qarab yurish qildi. Iyun oyida Iroqning ikkinchi eng yirik shahri bo'lmish Mosul shahrini qarshiliksiz egalladi. ISHID olg'a siljir ekan, ijtimoiy axborot vositalari yordamida o'z jangchilarining qo'lga olingan Iroq askarlarini qatl qilganini ko'rsatuvchi surat va videolarni tarqatdi.

2014-yil iyun oxirida guruh o'zi bosib olgan hududda xalifalik e'lon qilingani va Bag'dodiy uning xalifi ekanligi haqida audioyozuvni tarqatdi. O'sha e'londan keyin guruh o'zini shunchaki Islomiy Davlat deb atay boshladi. Guruhning butun dunyodagi musulmonlarga yetakchilik qilish haqidagi iddaolarini boshqa musulmon guruhlar tan olmadi. ISHIDning Iroqda juda tez kengayishi xalqaro jamiyatni tashvishga soldi va Bag'dodda Malikining ag'darilishi bilan yakunlangan siyosiy krizisga olib keldi. Xalqaro aralashuvga chaqiruvlar kuchaydi va 8-avgustda AQSH ISHIDning Iroqdagi avtonom kurd hududiga bostirib kirishining oldini olish uchun havo hujumlarini boshladi. Hujumlar ISHIDning yanada kengayishining oldini oldi, ammo ular guruhni allaqachon egallab olingan yerlardan chiqara olmadi. ISHID dahshatli va provokasion targ'ibot qilishda davom etdi. Avgust va sentyabr oylarida g'arbiy jurnalistlar va yordam ishchilarining ISHID jangchilari tomonidan boshi olingani tasvirlangan videolar tarqatildi. Bu tasvirlar ISHIDning global xavf ekanligi haqidagi

qoʻruqlarni kuchaytirdi. 23-sentyabrda AQSH Iordaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahreyn va Saudiya Arabistonidan iborat koalisiyaga bosh boʻlib oʻzining havo hujumlarini Suriyaga kengaytirdi. “Iroq va Shom islom davlati” tashkil topishida “al-Qoida” tashkiloti muhim oʻrin tutgan. Dastlab, 2004-yilda xalqaro miqyosdagi terrorchi Abu Mushab Zarqoviy Iroqda “Tavhid va jihad harakati”ni tuzadi va “al-Qoida”ning Iroqdagi boʻlimi sifatida faoliyat olib boradi. Iroqdagi harakat doirasini kengaytirish maqsadida keng koʻlamli ishlar olib boriladi. Keyinchalik unga “Jaysh al-fotihin”, “Jaysh as-sahoba” kabi bir qator terrorchi guruhlar qoʻshilishi natijasida Zarqoviy 2006-yilda Abdulloh Rashid Bagʻdodiy boshliq “Mujohidlar maslahat kengashi” tuzilganini eʼlon qiladi.

2. ISHID faoliyatining islom mohiyatiga zid ekani borasidagi manbalar. Buning natijasida Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarni birlashtirgan tashkilot 2006-yil 15-oktyabrda “Iroq islom davlati” nomi ostida Iroqda tashkil topadi va unga Abu Umar Bagʻdodiy ismli shaxs rahbarlik qiladi.

2010-yil 19-aprelda Abu Umar Bagʻdodiy oʻldirilgandan soʻng guruhga Abu Bakr Bagʻdodiy nomi bilan tanilgan Abdullo Ibrohim as-Samariy (ayrim maʼlumotlarga koʻra, Ibrohim Avvad al-Badriy al-Husayniy) rahbarlik qiladi. Suriyada kechayotgan mojarolarga mustaqil armiya sifatida kelib qoʻshilgandan soʻng, 2013-yil aprel oyida tashkilot “Iroq va Shom islom davlati” (ISHID) deb nomlandi. “Al-Qoida” tashkiloti “ISHID”ning Suriyadagi mojarolarga aralashganidan soʻng, 2014-yil fevral oyida mazkur tashkilotning “al-Qoida”ga aloqasi yoʻq deb bayonot berdi.

BMT Xavfsizlik kengashi maʼlumotlariga koʻra, dunyodagi eng xavfli hisoblangan “al-Qoida” faolligining kamayishi undanda kuchliroq terrorchilik tashkilotlari, xususan “Iroq va Shom islom davlati”ning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan. 2014-yil 29-iyunda tashkilot rahbarlari tomonidan Iroq va Shom (Suriya) hududida xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bagʻdodiy xalifa ekani eʼlon qilindi. Keyinchalik, “ISHID” oʻzini “Islom davlati” deb nomladi. Tashkilotning bosh maqsadi islom “xalifaligi”ni qayta tiklash va islom shariatini amalga tatbiq etishdan

iborat. Bu yoʻlda Iroq, Suriya mamlakatlari negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati “xalifalik”ni barpo etib, bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni eʼtirof etadi.

3. ISHIDning ekstremistik va terroristik qarashlariga taniqli islomshunos olimlar va yetakchi ulamolar tomonidan bildirilgan raddiyalar. Hozirgi kunda “ISHID” tomonidan boshqaruv oʻrnatilgan hududlarda na islomiy va na insoniy tamoyillarga toʻgʻri keladigan qonunlar joriy qilinmoqda. “ISHID” aqidasi koʻra, dunyoviy-maʼrifiy yoʻlni tutgan musulmon davlatlar tuzum shakllarini kufr deb eʼlon qilgan. Ushbu qarashlarning barchasi islom dinining haqiqatini bilmaslik, uning matnlarini zohiran, yuzaki tushunish, mazmun-mohiyatini chuqur anglamasdan hukm chiqarish va oʻz yoʻnalishiga moslab sharhlashga asoslanadi. Jumladan, ular eʼlon qilgan “shirk koʻrinishlarini, unga olib boruvchi vositalarni yoʻq qilish” gʻoyasi hozirda musulmon olamida shirk mavjud degan qarash boʻlib, maqbaralarni buzish, qadimiy yodgorliklarni tashkil etuvchi haykallar, arxeologik topilmalarni yoʻq qilishga qaratiladi. Shuning bilan birga, xristian dini vakillarini “zimmiy” hukmida hisoblab, ulardan “jizya” soligʻini majburlab undirish, ularga xoch osib yurmaslik, ibodat vaqtida ovoz kuchaytirgichlardan foydalanmaslik kabi taqiqlar ham belgilab qoʻyilgan.

Diniy toqasizlik, ayollar va bolalar huquqlarining poymol etilishi, taraqqiyot yutuqlaridan yuz oʻgirish, oddiy insonlar hayotiga tajovuz qilish avjiga chiqmoqda. Hattoki, musulmon ayollarga nisbatan esa oʻta mutaassibona hukmlar joriy qilinib, ularni buzganlarga shafqasiz jazo metodlari qoʻllanmoqda.

Bundan tashqari, “ISHID” maxsus kiyimini kiyish vojib, kiyimganga darra uriladi. Bir soʻz bilan aytganda, mazkur hududda aholi shariat talablariga boʻysunishga majbur qilinmoqda. Sud tizimi bekor qilinib, “qozilik” joriy etilgan. Dunyoviy tashkilotlar, madaniyat maskanlarining faoliyati umuman toʻxtatilgan. Shu sababli, “ISHID”ning botil aqidalari butun dunyodagi musulmon ulamolari tomonidan qattiq tanqid ostiga olingan.

Mavzu bo'yicha savollar

1. ISHID haqida ma'lumot bering?
2. ISHID asoschisi haqida ma'lumot bering?
3. Yaqin Sharqda faoliyat olib borayotgan ekstremistik va terroristik tashkilotlar haqida ma'lumot bering.
4. ISHIDning ekstremistik va terroristik qarashlariga taniqli islomshunos olimlar va yetakchi ulamolar tomonidan bildirilgan raddiyalar haqida gapirib bering.
5. ISHID faoliyatining islom mohiyatiga zid ekani borasidagi manbalar qaysilar?
6. ISHIDning tomirlari nimaga borib taqaladi?

EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“HIZBUT-TAHRIR”)

1. “Hizbut-tahrir” oqimining kelib chiqish tarixi. Din niqobidagi dinga zid bo‘lgan mafkuralarning yurtimizga kirib kela boshlashi asosan XX asrning 90-yillarida yuz berdi. Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadlari tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu diyorda asosan “Hizbut-tahrir”, “Turkiston islom harakati”, “Akromiyalar”, “Nurchilar”, “Islomiy jihod ittihodi” kabi guruhlarining faoliyati kuzatilgan va yetarlicha chora-tadbirlar ko‘rilgan. Yuqoridagi guruhlardan dastlabkisi “Hizbut-tahrir al-islomiy” (arab. “Islom ozodlik partiyasi”)ni keltirishimiz mumkin.

“Hizbchilar”, “tahrirchilar” deb ham yuritiladi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909–1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947-yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga ko‘chgan. Aslida Misrdagi “al-Ixvon al-muslimun” (“Musulmon birodarlar”) tashkiloti a’zosi bo‘lgan Nabahoniy 1953-yilda mazkur jamoa a’zolidan chiqib, Quddus (Iyerusalim)da “Hizbut-tahrir al-islomiy” tashkilotini tuzgan. Nabahoniy va fotidan so‘ng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925–2003) boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy Osiyo hududida) o‘z faoliyatini jadallashtirgan.¹⁹

Dastavval Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e’lon qilgan. Shundan keyin esa, ushbu shakllangan islom ummatining da’vatlari orqali butun dunyoda xalifalik davlatini qurish mumkin, deb hisoblaydi. Tashkilotning asosiy maqsadlari quyidagi uslublar orqali namoyon bo‘ladi:

¹⁹ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. / Mas’ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 102 b.

– fikriy kurash. Bu omma orasida o‘zining “madaniy” qarashlarini targ‘ib qilish orqali bo‘ladi;

– fikriy inqilob. Bunda madaniy va siyosiy faoliyat olib borilib, hizbning fikrlari jamiyat ongiga singishi bilan yuzaga keladi;

– hukumatni egallash. Bu bosqich “tarbiyalangan ummat” orqali barcha hukmni qo‘lga olish bilan yakunlanadi.

So‘nggi yillarda “Hizbut-tahrir”da g‘oyaviy yakdillik yo‘qolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo‘linishlarga olib keldi. Undan “Hizbun-nusra” guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, “Hizbut-tahrir”ning “Ayollar qanoti” kuchaytirilishi barobarida, ular orasida o‘zini o‘zi o‘ldirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda.

2. “Hizb ut-Tahrir” din niqobi ostida g‘arazli maqsadlarni ko‘zlagan oqimdir. “Hizbut-tahrir”ning a‘zolari o‘rtasida taqsimlangan vazifalar aniq belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, “Amir Qiyodat” (dunyo bo‘yicha xalifalik davlatining eng katta rahbari), “Mo‘tamad” (vakil, ma‘lum bir davlat boshlig‘i), “Mas‘ul” (javobgar, viloyat bo‘yicha boshliq), “Naqib” (rahbar, rais, tuman bo‘yicha boshliq), uning yordamchisi esa “Musoid” va undan keyingi lavozimdagilar “Jihoz a‘zolari” (boshqaruv idora a‘zolari) deb ataladi. Harakatga kiruvchilarni o‘qitishga mas‘ullar “Mushrif” (guruh rahbari) deyilsa, o‘quvchilarni “Doris” (o‘quvchi) deb belgilangan.²⁰

“Hizbut-tahrir” jamoasi g‘oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda jamoa ta‘limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan turli xildagi kitob, risola va jurnallar noqonuniy yo‘llar bilan mintaqaga olib kirildi. Mazkur tashkilot 1992-yildan boshlab, O‘zbekiston hududida o‘zining o‘ta zararli faoliyatini olib borishga harakat qilib kelgan.

“Hizbut-tahrir”ning faoliyati O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Livan, Misr, Iordaniya, Germaniya, Rossiya, Pokiston va Suriya kabi bir qator davlatlarda qonun bilan taqiqlangan. “HIZB UT-TAHRIR” (to‘liq nomi “Hizb at-tahrir al-islomiy” – “Islom ozodlik partiyasi”) - siyosiylashgan diniy tashkilot (oqim). Falastinda

²⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Hizb_ut-Tahrir

Taqiyuddin Nabhoniyy (1909-1979) asos solgan. U “Musulmon birodarlar” guruhining Falastin bo‘linmasida faoliyat yuritib, 1953 yil maslakdoshlari bilan mazkur bo‘linma a‘zolarini yangi diniy-siyosiy partiya – “Hizbut tahrir”ga birlashtirgan. “Hizb ut-Tahrir” ta’limoti Taqiyuddin Nabhoniyy va uning izdoshi Abdul Qadim Zallumning “Islom nizomi”, “Islom davlati”, “Xalifalik”, “Islomiy olamga qaynoq nidolar”, “Hizbut tahrirning tushunchalari”, “Demokratiya - kufri nizomi” va “Siyosiy ong” kabi kitoblarida bayon etilgan.

Ularda dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitutsiya, saylov kabi siyosiy tartib qoidalar inkor qilingan hamda diniy mutaassiblik g‘oyalarini targ‘ib qilish, siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish va xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatish yo‘llari ifoda etilgan. “Hizbut tahrir” mafkurasi 3 bosqichdan iborat amaliyot orqali siyosiy hokimiyatni egallab olishni nazarda tutadi:

1. Marhalatut-tasqif - tushuntirish ishlari. Siyosiy va ma’naviy ongi zaif shaxslarni o‘z tomoniga og‘dirish orqali tashkilotning yashirin bo‘linmalarini tuzish.

2. Marhalatut-tafo-ul - ummat bilan birlashish. Targ‘ibot-tashviqot yo‘li bilan o‘z tarafdorlari – “ummat”ni shakllantirish.

3. Marh-alatut-talabun - nusrat (g‘alaba, hokimiyat) talab qilish. Mavjud “ummat” kuchi bilan davlat to‘ntarishini amalga oshirish va siyosiy hokimiyatni egallash. Tashkilot piramida shaklidagi tuzilishga ega. Uning quyi pog‘onasini 5 kishilik “halqa” (to‘garak)larga birlashgan “doris” (dars oluvchi)lar tashkil etadi. Xalqaga “mushrif” (dars beruvchi) rahbarlik qilib, 4-5 mushrifdan iborat “mahalliy jihoz” (ta’minot boshqarmasi) “naqib” (noyib) ga, naqiblar viloyat darajasida “musoid” (yordamchi)ga bo‘ysunadilar. Musoidlar faoliyati mintaqaviy rahbar – “mu’tamad” (ishonchli) tomonidan boshqariladi. Tashkilot rahbari – “al-Amirul-a‘zam” (bosh boshqaruvchi) tashkilotning oliy bo‘g‘ini – “Qiyodat” (boshqaruv rayosati) orqali mu’tamadlarning faoliyat yo‘nalishini belgilab turadi. Bunday tuzilish tashkilot faoliyatini mumkin qadar yashirin olib borish imkonini beradi. “Hizbut tahrir” o‘z rahbariyati, qarorgohi va moliya manbalarini qat’iy sir tutadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Nabhoniyni vafotidan so'ng, 1979-2003 yillarda tashkilotga falastinlik Abdul Qadim Zallum (1923-2003) rahbarlik qilgan. 2003 yildan boshlab esa "Hizb ut-Tahrir" ga Iordaniya fuqarosi Alo Abu Rushta ("Abu Yosin") yetakchilik qiladi. U o'z mamlakatida ekstremistik faoliyati uchun bir necha marta qamoq jazosini o'tagan. Nabhoniy dastavval maqsad sifatida Falastinda shariat asosidagi davlat qurishni e'tirof etgan.

Keyinchalik esa u partiyaning asosiy maqsadi - musulmon dunyosini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurish, deb e'lon qildi. "Hizb ut-Tahrir" faoliyati 1950-60 yillarda Yaqin Sharqda, 1970-80 yillarda Janubiy Osiyoda, 1990-yillarda Markaziy Osiyoda va MDHga a'zo bo'lgan ba'zi mamlakatlarga tarqaldi. Tashkilot G'arbiy Yevropadagi bir necha mamlakatlarda ham o'z bo'linmalariga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, tashkilotning Buyuk Britaniyada joylashgan bo'linmasi muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. Tashkilot siyosiy g'arazlarini Qur'on va hadislarni noto'g'ri talqin qilish orqali oqlashga urinadi. Shuning uchun islom dunyosining taniqli diniy namoyandalari, jumladan, Saudiya Arabistonining sobiq bosh muftiysi, marhum shayx Bin Boz, Yusuf Qarzoviy (Qatar) "Hizb ut-Tahrir" ni "islomni buzuvchi" tashkilot sifatida baholaganlar.

Markaziy Osiyoning yetuk ulamolari Abdulaziz Mansur, Alouddin Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va boshqa o'z chiqishlarida "Hizb ut-Tahrir" iddaolarini rad etganlar. O'zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashining 1999 yil 16 iyundagi "Din niqobi ostidagi dinbuzarlik haqida"gi fatvosida "Hizbut tahrir" va boshqa buzg'unchi toifalar faoliyati qattiq qoralangan. "Hizb ut-Tahrir" rahbarlari o'z chiqishlarida go'yoki faqat g'oyaviy kurash usullaridan foydalanishlarini e'lon qiladilar. Biroq, tashkilot mafkurasini ifodalovchi hujjatlar, shuningdek, "Hizb ut-Tahrir" a'zolarining qator musulmon davlatlarida amalga oshirgan terrorchilik harakatlari buning aksini ko'rsatadi.

1989 yil AQSHning Missuri shtatida "Musulmon talabalarning baynalmilal aloqalari" nomi ostida o'tgan anjumanda "Hizb ut-Tahrir" vakili "musulmon bo'lmagan hukumatlarga qurolli jihad e'lon qilish

zarur”, degan mazmunda ma’ruza qilgan. Ushbu ma’ruza bir necha tillarda “Hizb ut-Tahrir” a’zolariga tarqatilgan. Tashkilotning “al-Va’y” (“Ong”) jurnalida ham diniy mutaassiblik va ekstremizm ruhidagi maqolalar muntazam berib boriladi.

Xususan, jurnalning 2001 yil iyun, 170-sonida xalifalik qurish yo‘lida barcha vositalarni qo‘llash, jumladan, qotillik qilish oqlangan hamda begunoh odamlarning o‘limiga sabab bo‘luvchi terrorchi-hudkush (kamikadze)lar “shahidlar” qatoriga kiritilgan. “Hizb ut-Tahrir” a’zolari qator musulmon mamlakatlarida qurolli xurujlarni amalga oshirganlar. Bunday amaliyot 1960-70 yillarda Iordaniyada, 1974 yil Misrda, 1999 yil Livanda kuzatilgan. 2000 yil Suriya huquqni muhofaza qilish idoralari hukumatga qarshi qurolli g‘alayon ko‘tarishga hozirlik ko‘rgan 800 nafar “Hizb ut-Tahrir” a’zosini qo‘lga olgan. 2002 yil Filippinda qo‘lga olingan “Hizbut tahrir”ga mansub shaxslardan ko‘p miqdorda portlovchi moddalar va o‘qotar qurollar topilgan. 2003 yil aprel oyida Isroilning Tel-Aviv shahridagi kafelarning birida “Hizbut tahrir”ning Buyuk Britaniyadagi bo‘linmasi a’zosi Umar Sharif va “al-Muhojir” ekstremistik guruhi vakili Osif Hanif o‘zlarini portlatib yuborishlari natijasida ko‘plab begunoh insonlar hayotdan ko‘z yumgan. “Hizbut tahrir” vakillarining 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent va Buxoroda, iyul oyida Toshkentda amalga oshirilgan terrorchilik xurujida ishtirok etganligi sud jarayonlarida o‘z tasdig‘ini topdi. “Hizb ut-Tahrir” rahbariyati har safar qurolli amaliyot muvaffaqiyasizlikka uchragan zahoti go‘yoki ushbu harakatlar tashkilotning “ajralib” chiqqan qismi tomonidan amalga oshirildi, degan da’vo bilan aybni bo‘ynidan soqit qilishga intilib kelgan. “Hizbut tahrir” boshqa terrorchi guruhlar uchun jangarilar tayyorlab beruvchi “konveyer”ga aylangan. O‘zini “Al Qoida”ning Iroqdagi bo‘limi deb, ko‘plab begunoh iroqliklarning hayotiga zomin bo‘layotgan terrorchi guruhning rahbari Abu Muso Zaraqoviy dastavval “Hizb ut- Tahrir” a’zosi bo‘lgan. 2005 yilning 13 may kuni Andijonda qator qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirgan “akromiylik” oqimining asoschisi Akrom Yo‘ldoshev ham o‘z faoliyatini “Hizb ut-Tahrir”da boshlagan.

4. **“Hizb ut-Tahrir”ning buzg‘unchi faoliyatini ochib bergan adabiyotlar.** Ekstremistik mohiyati fosh bo‘lgan “Hizb ut-Tahrir” deyarli barcha musulmon mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya, Germaniya va boshqa davlatlarda terrorchi tashkilot sifatida taqiqlangan. “Hizb ut-Tahrir” o‘zining faoliyatini aholisi tarkibida yirik musulmon jamoalari mavjud bo‘lgan MDH mamlakatlarida kengaytirishga intilmoqda. Ushbu hududda “Hizb ut-Tahrir” a‘zolari o‘z g‘oyalari ifodalangan varaqalarni mahalliy tillarga tarjima qilib, yashirin bosmaxonalarda chop etmoqdalar.

Tashkilot a‘zolarining jangarilik amaliyoti uchun zarur ashyolarni to‘plashi ularning qo‘poruvchilik faoliyatini amalga oshirishga hozirlik ko‘rayotganidan dalolat beradi. 2004 yil Tataristonda qo‘lga olingan “Hizb ut-Tahrir” a‘zolaridan o‘qotar qurol va portlovchi modda yuklangan nimcha, Boshqirdistonda ushlangan “Hizb ut-Tahrir” a‘zolaridan esa granatalar, o‘q-dori hamda Ufa shahridagi hukumat idoralari belgilangan xarita olingan. Hibsga olinganlarning ba‘zilari Afgonistonda jangovar tayyorgarlik o‘tab kelgan.

2000-yillardan buyon “Hizb ut-Tahrir” faoliyatida o‘z tarafiga davlat boshqaruvi, huquqni saqlash idoralari xodimlarini jalb qilish va strategik ob‘yektlarga suqilib kirishga harakat qilish hamda aholi ichida tarafdorlarning sonini ko‘paytirish uchun xayriya ishlarini faollashtirish kabi holatlar kuzatilmoqda. “Hizb ut-Tahrir” tashkiloti Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda siyosiy g‘araz maqsadlari sari amalga oshirilayotgan zo‘ravonlik harakatlari manbalaridan biriga aylandi. Ushbu tashkilotning faollashuvini sog‘lom siyosat yuritayotgan dunyoviy davlatlarga nisbatan xalqaro terrorchilik tomonidan e‘lon qilingan “jihod” ning bir unsuri sifatida baholash lozim. Islom tarixida o‘tgan va muayyan vaqtdan so‘ng barham topgan turli buzg‘unchi oqimlar kabi “Hizb ut-Tahrir”ning iddaolari tashqi ko‘rinishdan go‘yoki, islomni qayta tiklash, dinni tozalash, haqiqiy musulmonlikni qaror toptirish bo‘lsa-da, bu tashkilotning paydo bo‘lganidan to hozirgi kunga qadar olib borgan faoliyati, uning asl maqsadi sodda, ishonuvchan, aksariyat dindan bexabar yoshlarni o‘z g‘oyasiga ergashtirish, odamlar orasiga

fitna solish yo‘li bilan siyosiy hokimiyatni egallash ekanini yaqqol ko‘rsatdi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hizb ut-Tahrir haqida ma’lumot bering?
2. Hizb ut-Tahrir radikal g‘oyalari haqida ma’lumot bering?
3. Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning faoliyat uslublaridan qaysilarni bilasiz?
4. “Hizb ut-Tahrir”ning buzg‘unchi faoliyatini ochib bergan adabiyotlar qaysilar?
5. 1989 yil AQSHning Missuri shtatida qanday nom ostida anjuman bo‘lib o‘tgan?
6. Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri qanday?

7-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“AKROMIYLAR”, “NURCHILAR”)

1. “Akromiylar” oqimining tarixi va barqarorlikka tahdidi.

“Akromiy”lar oqimining g‘oyalari, maqsad-vazifalari, faoliyat uslublari. O‘zbekiston hududida faoliyati aniqlangan din niqobidagi ekstremistik tashkilotlardan yani biri bu – “Akromiylar” harakatidir. Ularning ham asosiy maqsadlari siyosiy hokimiyatga intilish bo‘lganligini quyida berib o‘tadigan ma‘lumotlardan bilib olishimiz mumkin. Asoschisining nomidan kelib chiqqan holda “Akromiylar” firqasi “imonchilar”, “birodarlar”, “xalifachilar” deb ham ataladi. “Hizbut-tahrir” tashkiloti asoschisi Taqiyiddin Nabahoniy asarlaridan ta’sirlangan holda 1992-yilda Akrom Yo‘ldoshev (1963–2009) tomonidan Andijonda shakllantirilgan²¹.

“Akromiylar”ning bosh g‘oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg‘ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

Akrom Yo‘ldoshev “ilk diniy saboqlar”ini “Hizbut-tahrir” uyushmasida olganligi bois, o‘z shaxsiy ta’limotini yaratishda harakatning nazariy va amaliy fikrlaridan yiroqlasha olmagan²². Shu bois, “Islom nizomi”, “Izzat va sharaf sari” va “Xalifalik” nomli “Hizbut-tahrir” adabiyotlaridan foydalangan holda o‘n ikki darsdan iborat “Imonga yo‘l” nomli kitobi orqali o‘z diniy falsafiy qarashlarini bayon qiladi. Sekin-asta o‘z atrofiga xayrixoh bo‘lgan kishilarni yig‘ib, mazkur kitob asosida darslar tashkillashtirgan va “Akromiylar” jamoasini shakllantirgan. Bu kitobdagi g‘oya atrofida birikkan

²¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Akromiylar>

²² Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. / Mas’ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. –102 b.

tadbirkorlar o‘nlab korxonalar ochishadi. Bu korxonalaridagi ish tartibi go‘yoki “islomiy adolat” tamoyillariga asoslangani aytiladi.

Harakat siyosiy hokimiyatga erishishning 5 ta – “sirli”, “moddiy” (“iqtisodiy”), “ma’naviy” (“siyosiy”), “uzviy maydon” va “to‘ntarish” (“oxirat”) bosqichiga asoslanadi. So‘nggi ikki bosqich jamiyat “islomlashtirilgan”dan so‘ng amalga oshirilishi va u orqali hokimiyatni butunlay egallash rejalashtirilgan.²³

“Akromiylar” o‘zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug‘ullanganlar hamda yangi a‘zolarini asosan qarindoshlar hisobiga o‘zlarining savdo do‘konlari, sataroshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik, kosibchilik va mebel ishlab chiqarish syexlariga ishga jalb qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar. “Akromiylar” yangi a‘zolariga ertayu-kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o‘zlarining go‘yoki siyosatdan yiroq, kichik bo‘lsada, haqiqiy “birodarlar jamoasi” muhitining “go‘zal” jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo‘lga olish bilan bog‘liq rejalarini jamoaning asosiy qismidan sir tutganliklari hamda yangi tarafdorlar ularni siyosatga aloqasi yo‘q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko‘nikib boraverganliklarini ko‘rsatadi. Bu yo‘ldagi amaliy da’vat uslubi boshqa mutaassib kuchlar yondashuvidan farqli bo‘lib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo‘yishga asoslangan.

2. “Akromiylar”ning faoliyat uslublari islom ta’limotiga zid ekani borasida manbalardan dalillar. “Akromiylar” buzg‘unchiligining salbiy oqibatlarini. Akrom Yuldoshevning 2004-yil yozida “Akromiylar”ga tegishli qator idora va tashkilotlarning faoliyati to‘xtatilib, rahbarlari hibsga olinganidan keyin, ularni ozod etish chora-tadbirlariga boshchilik qilgani aytiladi. Unga nisbat berilgan videoda Yo‘ldoshev may oyining dastlabki kunlarida va 12-maydan 13-mayga o‘tar kechasi ham Andijonda qanday voqealar yuz berayotganligidan doimo xabardor bo‘lib turganligini aytgan edi. Ma’lumki, 2005-yil 12–13-may kunlari Andijon shahrida “Akromiylar” oqimi mavjud

²³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Akromiylar>

konstitusiyaviy tuzumni ag‘darish maqsadida ko‘plab odamlarning qurbon bo‘lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etgan. Hozirgi vaqtda G‘arbda “Akromiylar” yangi diniy-siyosiy guruhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, oqim tarafdorlari Germaniyaning Dyusseldorf shahrida 2009-yilning may oyida “Andijon – Adolat va Tiklanish” tashkilotini tashkil qilgan. 2011-yilda “Akromiylar” jamoasi va ularga moyil bo‘lgan “Andijon – Adolat va Tiklanish”, “Tanyach” tashkilotlari va “Erk” partiyasi ishtirokida “O‘zbekiston xalq harakati” nomli uyushma tuzilgan. Ushbu harakat a‘zolari tomonidan “ozodlik”, “e‘tiqod erkinligi”, “inson huquqlari” kabi jozibali tushunchalar ishlatilib, turli yo‘llar, masalan, Internet tizimi orqali asosan yurtimiz yoshlarini o‘z saflariga qo‘shishga harakat qilmoqda.

3. “Nurchilar” oqimining g‘oyalari, tarixi, mohiyati, faoliyat uslublari. “Nurchilik” (turk. nurculuk) diniy mutaassib harakat. Xalq tilida “Nurchilar” degan nom bilan ham mashhur. Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlog‘ida tug‘ilgan Said Nursiy (1876–1960) bo‘lib, “Badiuzzamon” (arab. zamonaning buyugi, benazir) laqabi bilan tanilgan.

Harakat uning asoschisi tomonidan XX asrning 20-yillaridagi Turkiyadagi siyosiy va diniy vaziyatning o‘zgarishi ta’sirida, xususan, Mustafo Kamol Otaturkning dunyoviy davlat tuzishiga qarshi muxolif ravishda shakllantirilgan. Said Nursiy Turkiya Respublikasi konstitusiyasi tuzumiga tahdidi va shariatga asoslangan davlat tuzishni uyushtirishda ayblanib, sudlandi va 23-yil umrini qamoqda o‘tkazdi.²⁴ Harakat g‘oyasi Nursiy tomonidan yozilgan 14 jilddan iborat Qur’on oyatlarining sharhlari va diniy ko‘rsatmalardan iborat “Risoi Nur” kulliyoti kitobiga asoslanadi. “Nurchilik” hukumat tomonidan ta’qib qilingani uchun mazkur kitob 1954-yilgacha biror-bir nashriyotda chop etilmay, harakat faollari tomonidan qo‘lda ko‘chirilib, xalq orasida

²⁴ Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. / Mas’ul muharrir K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 106 b.

maxfiy tarqatilgan. Harakat a'zolari manbaning muhimligini ko'rsatishda

Badiuzzamonning "Ilm uchun Risolai Nurni o'qish va ko'chirib yozish kifoya, boshqa hech narsa kerak emas", degan fikrini ilgari suradi. Bu oqimning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g'oyalari turkiyalik mutaassiblarning moddiy va ma'naviy ko'magida yetkazilgan. Ular tomonidan mintaqa mamlakatlarida ochilgan 128 ta liseydagi ta'lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalanilgani ularning dovrug'i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi. "Nurchilar" harakatining rejasiga ko'ra, 10 – 15 yillardan so'ng ular faoliyat olib borgan mamlakatning yirik siyosiy arboblari va tijoratchilari bo'lib yetishishlari kerak edi.²⁵

Mintaqa davlatlari televideniyelariga beg'araz deya taqdim etilgan diniy mazmundagi film va turli yo'llar bilan keng tarqalgan kitoblar yordamida ham "Nurchilik" g'oyalarini yoyish ishlari olib borildi. Bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda.

Bu oqimning Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1992-yildan boshlab mintaqa mamlakatlarida turk liseylarining ochilishi orqali namoyon bo'ldi. "Nurchilik" harakatning "Silm" tarmog'i muassislik qilgan, moddiy-texnik ta'minoti "Osiyo finans" tashkiloti tomonidan moliyalashtirilgan 128ta lisey ochildi. Liseydagi ta'lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalangan holda mashg'ulotlar olib borilgani ularning dovrug'i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi. "Nurchilik" harakatining O'zbekistonga kirib kelishi mustaqillik yillarining boshlariga borib taqaladi. Ular Turkiya bilan bo'lgan milliy va madaniy aloqalar soyasi ostida Turk-o'zbek liseylari faoliyatini moliyalashtirib, o'zbek yoshlarini harakat g'oyalari domiga tortmoqchi bo'ldilar. Harakatning asl maqsadlari fosh bo'lgach, 1999-yil uning

²⁵ <https://samuslim.uz/oz/articles/actual/nurchilik>

faoliyati taqiqlanib, mamlakatdagi liseylar yopildi. Shuningdek, harakat a'zolarining O'zbekistondagi ikkinchi g'ayriqonuniy urinishlari sifatida tashkil etilgan o'quv markazlari, chop etilgan gazeta va jurnallar hamda teleko'rsatuvlar aniqlanib, ularning faoliyati ham tugatildi.

Ming afsuski, bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda. "Nurchilik" ochiqdan-ochiq konstitusion tuzumga qarshi kurash, "islom davlati"ni qurish g'oyalari mavjud bo'lmasa-da, mazmun va mohiyat jihatidan uning g'oyalari va ushbu oqim tomonidan chop qilingan adabiyotlar fundamentalistik ta'limotlarning aholi orasida ildiz otib ketishiga asos yaratib, jamiyat barqarorligiga xavf soluvchi mutaassiblik g'oyalarini targ'ib etishga xizmat qiladi. Harakatning g'oyalari va faoliyatiga Turkiya jamiyatining o'zida ham ziddiyatli munosabat mavjud.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Akromiylar haqida ma'lumot bering?
2. "Akromiylar" oqimining tarixi va barqarorlikka tahdidi qanday edi?
3. "Akromiylar" buzg'unchiligining salbiy oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Nurchilar radikal g'oyalari haqida ma'lumot bering?
5. Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning faoliyat uslublari qanday?
6. "Nurchilar" oqimining g'oyalari, tarixi, mohiyati, faoliyat uslublari haqida nimalarni bilasiz?

8-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“TURKISTON ISLOM HARAKATI”)

1. “Turkiston islom harakati” ekstremistik oqimining kelib chiqish tarixi. “Turkiston islom harakati” (sobiq “O‘zbekiston islom harakati”) diniy ekstremistik va terrorchi tashkilot. Ushbu tashkilot 1996-yilda “O‘zbekiston islom harakati” nomi ostida tashkil etilgan. Harakatni shakllantirishda 1992–1993-yillarda O‘zbekistonda faoliyati taqiqlangan “Adolat uyushmasi” (Namangan), “Islom uyg‘onish partiyasi” (1990-yil Astraxanda asos solinib, 1991-yil yanvaridan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan), “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo‘qon), “Turkiston islom partiyasi”, “Islom lashkarlari” (Namangan) kabi diniy ekstremistik guruhlarining sobiq faollari ishtirok etgan.²⁶ Tashkilotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida “Buyuk islom xalifaligi”ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federasiyasining Volgbo‘yi respublikalarini qamrab olishdan iborat. Tashkilot o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlarini amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali mintaqadagi ichkisiyosiy vaziyatni beqarorlashtirish kabi vositalardan foydalanadi.

“Turkiston islom harakati” guruhi jangarilari 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000-yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, 2004-yili Toshkent va Buxoroda, 2005-yili Andijonda, shuningdek, 1999, 2000 va 2006-yillarda qo‘shni Qirg‘izistonda, 2006-yili Tojikistonda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan. Mazkur guruh mintaqadagi terrorchi tashkilotlar bilan yaqin aloqaga ega.

2. Oqimning Markaziy Osiyodagi barqarorlikka tahdidi va uning salbiy oqibatlarini. Oqim faoliyatining islom ta’limotiga zid ekani. “Turkiston islom harakati” so‘nggi yillarda talafotlar,

²⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Akromiyalar>

strukturaviy o'zgarishlar, rahbar a'zolar orasidagi yo'qotishlarga duch keldi. Hozirda g'oyaviy targ'ibot kuchaytirilib, bosma va elektron nashrlar tarqatilishiga katta urg'u berilmoqda. "Islomiy jihod ittihodi" (arab. "Ittihad al-jihad al-islamiy"). Mazkur guruhning "Islom jihodi", "Islom jihodi uyushmasi", "Islom jihodi-mujohidlar jamoati" nomlari ham mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, guruhga avvallari "Turkiston islom harakati"ning a'zosi bo'lgan, o'zini "amir" deb e'lon qilgan Najmiddin Jalolov asos solgan. Mutaxassislar "Islomiy jihod ittihodi" guruhi "Turkiston islom harakati"dan ajralib chiqqanini e'tirof etishadi. Bunga moliyaviy masalalar, strategiya va maqsadlar bo'yicha "Turkiston islom harakati"ning rahbari bilan bir guruh jangarilar o'rtasida ixtilofning yuzaga kelishi asosiy sabab bo'lgan.²⁷ Guruhning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hukumatiga qarshi chiqish, konstitusiyaviy tuzumni ag'darish, terrorizm orqali islom xalifaligini o'rnatishdan iborat. Ushbu maqsadda guruh Afg'oniston, Pokiston va Kavkazdagi xalqaro terrorchi jamoa va tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan.

Ushbu guruh Markaziy Osiyo mintaqasidagi faoliyati davomida bir qator teraktlar sodir etgan. Guruh a'zolari tomonidan 2009-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida qo'poruvchilik harakati sodir etilgan. Shuningdek, 2009-yilning yoz oylarida ular tomonidan Toshkent shahri, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida amalga oshirilgan qotillik va bosqinchiliklar natijasida 3 kishi halok bo'lgan, 24 fuqaro turli darajada tan jarohati olgan.

3. "Islomiy jihod ittihodi" terroristik tashkilotining g'oyalari, tarixi va faoliyat uslublari. "Islomiy jihod ittihodi" bugungi kunda "Internet" tarmog'i orqali targ'ibot ishlari o'tkazish va mehnat migrantlari ichida yollash ishlari o'tkazish kabi usullar bilan o'z safini yangi jangarilar bilan to'ldirishga harakat qilmoqda. Yuqorida qayd etilgan diniy-ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekiston xavfsizligiga tahdid solgani yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda o'z aksini topgan. Shunga mos ravishda, O'zbekistonda

²⁷ https://uz.vvikipedla.com/wiki/islamic_jihad_union#Islamic_Jihad_Group

ham ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha salmoqli tajriba to'plangan. Mazkur tajribadan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan, huquqtartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralari qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish deganidir. Boshqacha aytganda, bunday yo'ldan borilsa, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan "ildiz"lar zararlanmay qolaveradi, ma'lum bir davr o'tishi bilan ular yangi "kurtak"lar berishda davom etaveradi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. "Islomiy jihad ittihodi" haqida ma'lumot bering?
2. "Turkiston islom harakati" ekstremistik oqimining kelib chiqish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. "Turkiston islom harakati" radikal g'oyalari haqida ma'lumot bering?
4. "Turkiston islom harakati" guruhi jangarilari qayerlarda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan?
5. Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning faoliyat uslublari qanday?
6. "Islomiy jihad ittihodi" terroristik tashkilotining g'oyalari, tarixi va faoliyat uslublari haqida ma'lumot bering?

9-MAVZU: YANGI DINIY HARAKATLARNING FAOLIYAT USLUBLARI TAHLILI

1.Yangi diniy harakatlar, konfessiya, zamonaviy diniy uyushmalar kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati.

Dunyoning diniy manzarasi qotib qolgan, o'zgaras bir hodisa emas. Xususan, mazkur manzara yildan–yilga o'zgarib borayotgani, mavjud dinlar o'zlarining an'anaviy areallari doirasidan chiqib borayotganlarini ham alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kundagi o'zgarishlar haqida so'z ketar ekan quyidagilarni alohida qayd etish lozim. Eng avvalo, shakllangan dinlar doirasida muayyan o'ziga xosliklarga ega bo'lgan yangi yo'nalish va sektalarning paydo bo'lishi davom etmoqda. Masalan, mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan.

Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi. Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi.

Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar. Zamonaviy voqelik diniy–ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda “Bogorodichiy syentr”, “Serkov ob'edineniya”, “Serkov Isusa”, “Serkov Novogo Zaveta”, “Beloye bratstvo”, “Bojestvenniy orden Pervogo Angela” kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. “Satanizm” deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor. Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish

hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo‘lganlar ichida ish olib borish yo‘li bilan o‘z tarafdorlarini ko‘paytirishga harakat qilmoqdalar.

Bunday sektalarga asos solgan “avliyo”lar o‘z izdoshlarini aldash yo‘li bilan ularning mol–mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar. Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo‘layotgan voqealarning ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda. Ugandadagi “Oxirat kuni” sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo‘ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga “belgilagan” ushbu sekta rahbarlari o‘z tarafdorlarini mol–mulklarini sotish, tushgan mablag‘ni ularga berishga va shu yo‘l bilan gunohlardan forig‘ bo‘lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga “ko‘chirilishi” sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg‘onishiga olib kelgan. Shundan so‘ng rahbarlar Kanungu qishlog‘ida 500 dan ortiq o‘z tarafdorlarini aldab bir joyga to‘plab, ustlaridan yopib binoga o‘t qo‘yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko‘ra, tezkor tadbirlarni o‘tkazgan polisiya yana to‘rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. 2.Mintaqada faoliyat yuritayotgan yangi diniy harakatlarning maqsad, vazifalari va faoliyat uslublari.

Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo‘lgani qayd qilingan. Ijtimoiy–iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektalarning keng yoyilishiga olib kelmoqda. Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma‘naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo‘lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar. Mavjud diniy ta‘limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizasiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Masalan, xristianlar amalga oshirgan inkvizisiya va salb yurishlari xato bo‘lganini tan olib, Rim Papasi hatto, rasman kechirim ham so‘radi.

1992 yilda Papa Ioann Pavel II o'z paytida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi qarashlarni yoqlagani uchun cherkov tribunali tomonidan tavba qildirilib, o'z qarashlaridan voz kechishga majbur qilingan Galileo Galileyning haq bo'lganini tan olib, barchadan uzr so'ragani ham bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ta'kidlash zarur. Masalan, o'tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Yevropada bugungi kunda 20–25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada – 3 million, Germaniyada – 5 million, Fransiyada – 6–7 million islomga e'tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hozirda aynan islom e'tiqodchilari soni eng tez ko'payib borayotgan din hisoblanadi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, islomning yillik o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilga qadar musulmon aholi soni Shimoliy Amerikada – 25, Afrikada – 2,15, Osiyoda – 12,57, Evropada – 142,35, Avstraliya va Okeaniyada – 257,01 foizga ko'paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e'tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan. Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migrasiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko'pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog'liq. Shuningdek, aholisi an'anaviy ravishda buddaviylik va islomga e'tiqod qilib kelgan o'lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra xristianlikning o'sish ko'rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo'nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo'lmoqda. Qayd etilgan mulohazalar bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganidan dalolat beradi.

Diniy konfessiyalar manzarasi rang–barangligini O'zbekistonda rasman ro'yhatdan o'tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xristianlikka mansub bo'lsa–da, yurtimizdagi 11 ta yo'nalishning har biri o'zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo'la oladi. Noan'anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun

begona bo'lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o'sha erga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Konfessiyalar haqida ma'lumot bering?
2. Totalitar sektalar haqida ma'lumot bering?
3. Diniy sekta deganda nimani tushunasiz?
4. Sektantlik inson ongiga va ijtimoiy barqarorlikka tahdidi haqida ma'lumot bering.
5. Yevropada bugungi kunda qancha musulmonlar istiqomat qilmoqdalar?
6. Noan'anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda nimani tushunasiz?

10-MAVZU: NORASMIY DINIY JAMOALAR FAOLIYATINING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

1. Tasavvuf, tariqat, tariqatchilik atamalarining mazmun-mohiyati. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoa va sektalar. Tarix shuni ko'rsatadiki, chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar boshidan kechirayotgan jamiyatda rivojlanishning "yagona to'g'ri yo'li"ni, agar jamiyatdagi vaziyat salbiy tomonga yo'nalgan bo'lsa, "yagona najot yo'li"ni bilishga da'vo qiluvchi turli diniy jamoalar yoki sektalar vujudga kelishi kuzatiladi. O'zbekistonda ham 1990-yillarning boshida muayyan darajada xarizma va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega, o'ziga ishonchi yuqori bo'lgan ayrim "yangi dindorlar" o'z g'oyalarini boshqalarga ham targ'ib qila boshladilar. Oqibatda respublikada bir necha norasmiy diniy jamoalar shakllandi. Ularning a'zolari orasida maxsus diniy ma'lumotga ega shaxslar deyarli uchramaydi.

2. "Ma'rifatchilar" oqimi tarixi va mohiyati. "Ma'rifatchilar" g'oyalarining islom ta'limotiga zid ekani.

Norasmiy diniy jamoalar ilgari surayotgan diniy-g'oyaviy qarashlarning aksariyati sof diniy xarakterga ega bo'lib, "xalifalik qurish" kabi diniy-siyosiy maqsadlarga qaratilmasada, aqidaviy jihatdan hanafiylik mazhabi ta'limotiga mutlaqo zid g'oyalarni targ'ib etish va o'zlariga ergashmagan musulmonlar va boshqa din vakillariga o'ta keskin munosabat bildiriladi. Jamoa ichida ayrim holatlarda fuqarolarning qadr-qimmatini kamsituvchi tartiblar joriy qilingan va jamiyatga salbiy munosabatlar shakllantirilgan. Oqibatda jamoa a'zolarining jamiyat va ijtimoiy aloqalarning uzilib qolishi, ular va boshqa fuqarolar orasida o'zaro mojarolar kelib chiqishi, ayrim adeptlarning oilalari barbod bo'lishi kabi ijtimoiy illatlar kuzatilmoqda. Jamoa rahbarlari esa o'z tarafdorlarini shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish holatlari aniqlangan. Hozirgi kunda respublikada faoliyati kuzatilayotgan norasmiy diniy jamoalar qatoriga "Ma'rifatchilar",

“Shohidiylar” va “Baxshillochilar”ni kiritish mumkin. “Ma’rifatchilar” jamoasiga 1990-yillarning o‘rtasida Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida yashovchi Bahodir Mamajonov (1950 y.t.) tomonidan asos solingan. Jamoaning g‘oyaviy ta’limoti B.Mamajonov tomonidan yozilgan va noqonuniy tarzda chop etilgan, diniy va ilmiy asossiz yozilgan “Ma’rifat”, “Tilak”, “Namoz-Sig‘inish”, “Rost-Qur’on” kitoblari hisoblanadi. “Ma’rifat” kitobi B.Mamajonovning diniy mavzudagi fikrlari va nozil bo‘lish tartibiga ko‘ra joylashtirilgan bir necha suralarning tarjimasidan iborat. Ushbu kitob nomidan kelib chiqqan holda aholi ichida B.Mamajonovning izdoshlari “Ma’rifatchilar” deb tanilgan. B.Mamajonov esa o‘zini va tarafdorlarini “To‘g‘ri din”dagilar deb hisoblaydi. “Namoz-Sig‘inish” kitobida B.Mamajonov tomonidan belgilangan namoz tartibi bayon qilingan. “Rost-Qur’on” kitobida ham go‘yoki “Usmon ibn Affon davrida Qur’on noto‘g‘ri tartiblangan” degan da‘vo ostida suralar nozil bo‘lish tartibiga ko‘ra joylashtirilgan. “Ma’rifatchilar”ning an’anaviy islom ta’limotiga zid da‘volari:

- Qur’on va namoz milliy tilda, ya’ni o‘zbek tilida o‘qilishi shart hisoblanib, go‘yoki “o‘zi aniq bilmagan narsaga erishish” shirk ekani e’lon qilinib, “ota-bobolarimiz ... mushrik edilar” deb hisoblanadi;

- O‘zbekiston aholisi faqat 1990 yili “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan Qur’on tarjimalari orqali haqiqiy Qur’onga (B.Mamajonovning da’vosicha – “Rost-Qur’on”) erishgan, ungacha Qur’onga go‘yoki “shayton suralari qo‘shilgan” deb da‘vo qilinadi hamda mavjud tafsirlar tan olinmaydi;

- Muhammad payg‘ambarga “vositachi”, “uning vazifasi faqat Qur’onni yetkazish edi” degan da‘vo bilan hurmat ko‘rsatilmaydi, “xulafoi roshidin”dan keyingi xalifalar “do‘zaxi” sanaladi;

- Qur’on - yagona muqaddas manba, hadislar tan olinmaydi;

- dunyoviy partiya va boshqa dindagilar, shu jumladan, yahudiy va xristianlar “shaytonga ergashgan”lar deb qaraladi;

- mazhablarga ergashish “shirk” amal hisoblanadi;

- mayyitni kafanlash va “janoza” o‘qish islomda yo‘q amallar, deb qaraladi;

- go'yoki isrof bahonasida davlat bayramlari va tug'ilgan kunlarni nishonlash, to'y-ma'rakalar o'tkazish, diniy marosim va urf-odatlar dindan chiqaruvchi shirk amallar qatoriga kiritilgan;

- namoz va ibodatda ishlatiladigan sano va salovotlarning barchasi o'zbek tilida o'qilishi joriy qilingan, namoz vaqti va tartibi e'tiborga olinmaydi, bir sutkada besh mahal azonsiz, B.Mamajonov belgilagan vaqt va tartibda 17 rakat, kechasi 2 rakat sunnat namozi o'qiladi. Jamoa a'zolarining asosiy qismini B.Mamajonovning qarindoshlari va yaqinlari tashkil etadi. Ayrim a'zolar O'zbekiston islom harakatining jangovar lagerlarida "hijrat"da bo'lib qaytganlar.

4. "Shohidiylar" oqimi tarixi va ijtimoiy tahdidi. "Shohidiylar" oqimi g'oyalarining islom ta'limotiga zid ekani. Hozirda jamoaning kam sonli a'zolari Farg'ona viloyatining Toshloq tumani va Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida istiqomat qiladi. "Shohidiylar" jamoasiga 1990-yillarning boshida diniy ma'lumotga ega bo'lmagan andijonlik Karimov Xabib (1944 y.t.) asos solgan. Jamoa tarafdorlari 52 nafarni tashkil qilib, Andijon shahri va Andijon tumanidagi fuqarolar yig'inlarida faol harakat qilganlar. Oqim tarafdorlari navbati bilan davriy ravishda (15 kunda bir) o'z xonadonlarida yig'ilishlar tashkil qilib, oqimning "Qur'ondan ma'ruf" nomli kitobi asosida diniy darslar o'tkazganlar. Ushbu jamoa diniy qarashlarida islom ta'limotiga zid quyidagi tamoyillar mavjud:

- Qur'on tafsirlari va hadislar inkor qilinadi;

- namoz besh mahal emas, istalgan vaqtda ikki rakat o'qiladi, go'yoki soliq amallar namoz hisobiga o'tadi deb hisoblanadi;

- Makka shahridagi "Masjidul Harom"dan boshqa masjidlar tan olinmaydi, imom-xatiblar go'yoki sof islomdan qaytgan hisoblanib, jamoa a'zolariga namoz uchun masjidga borish man etilgan, juma namozi faqat Makka ahliga farz etilgan deb da'vo qilinadi;

- islomiy marosimlar o'tkazilmaydi. Jumladan, 2001 yilning syentyabrida X.Karimov onasi vafot etganda mayyitni kechasi yashirincha, "janoza" o'qimay ko'mib kelgan;

- jamoa a'zolariga to'y va boshqa dunyoviy marosimlarni o'tkazish yoki ishtirok etish ta'qiqlangan;

- quda-andachilik munosabatlari faqat oqim a'zolari o'rtasida o'rnatiladi;

- spirtli ichimliklarni ma'lum bir me'yorda (mast holatga keltirmaydigan) iste'mol qilish harom sanalmaydi. "Shohidiylar" jamoaga yangi a'zolarini asosan o'zlarining yaqin qarindoshlari ichidan jalb qiladilar. Quda bo'lish ham odatda faqat jamoa doirasida amalga oshiriladi. Yangi a'zolarga oq matoga o'ng qo'lini qo'ygan holda qasamyod qilishi va 70 kun ro'za tutishi yoki kuniga 800-1000 so'm (jami 56-70 ming so'm) miqdorida a'zolik badali to'lashi buyuriladi. Jamoa a'zolariga diniy tushunchalar "Qur'ondan ma'ruf" nomli kitob asosida beriladi. Ushbu kitob 1960-yillarda Toshkent shahri va viloyatida vujudga kelib, hozir faoliyati kuzatilmayotgan, hadislarning muqaddasligini va mazhablarga ergashishni rad etgan "Ahli Qur'on" norasmiy diniy jamoasi a'zolari tomonidan tayyorlangan. Ma'lumki, islomda harom qilingan amal yoki narsani halol hisoblash e'tiqodiy shirk hisoblanadi. "Ma'rifatchilar" va "Shohidiylar" jamoasiga a'zo bo'lgan shaxslar shariat hukmiga ko'ra dindan chiqqan hisoblanadi. "Shohidiylar" hozirda Andijon shahri va Andijon tumani hududida istiqomat qiladilar. "Baxshillochilar" norasmiy jamoasiga Buxoro viloyatida tug'ilgan Aliyev Baxshillo 1997 yilda asos solgan. Uning diniy qarashlari quyidagi holatlarga ko'ra islom ta'limotiga zid sanaladi:

- B. Aliyev o'zini avval qiyomatdan oldin keladigan Mahdiy, keyinchalik esa payg'ambar, turmush o'rtog'i Mohira Aliyevani "musulmonlar onasi", farzandlarini "musulmonlar amiri", yaqin izdoshlarini "sahobiylar" deb e'lon qilgan;

- jamoada shahodat kalimasida B. Aliyevni payg'ambar deb tan olish joriy qilingan;

- B. Aliyev go'yoki uni ziyorat etgan shaxs ham amalini bajargan odamning savobini olishini, o'ziga ergashganlarga qiyomatda savol-javob yo'qligi, ular qanday holatda vafot etishidan qat'iy nazar, shahidlik maqomi berilishi, hatto barcha erkak maslakdoshlariga payg'ambarlik darajasi berilishi haqida targ'ib qiladi;

- namoz besh emas, go'yoki uch mahal farz qilingan;

- o'g'il farzandlarni islom talablariga muvofiq xatna qildirish bekor qilingan. Jamoada tartib diniy sekta shaklida tashkil etilib, jamiyat bilan ijtimoiy aloqalari buzilgan. Jamoa a'zolari rahbarning barcha ko'rsatmalarini so'zsiz bajaradilar va unga tegishli buyumlarni "tabarruk" sanaydilar. Ba'zi adeptlar turmush o'rtoqlarini M.Aliyevaga "muxlisa" etishi oqibatida jamoada o'ziga xos "ayollar qanoti" vujudga kelgan. B.Aliyev 1990-yillarning oxirida aholi ichida diniy va milliy asosda nizo keltirib chiqarishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlar sodir etgani uchun jazoga tortilgan. 2006 yilda ozodlikka chiqqach, Rossiya Federasiyasiga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan. Aynan mana shu davrda B.Aliyev izdoshlari ichida uni ziyorat qilganlarga go'yo hoji maqomi berilishi haqidagi g'oyalarni tarqatgan. Rossiyaga borgan "Baxshillochilar" B.Aliyevga katta miqdorda pul berishlari, ishga yollanib, daromadlarining asosiy qismini jamoa yetakchisiga topshirishlari kuzatilgan. 2008-2010 yillar davomida jamoa a'zolari shu tariqa "hijrat"ga chiqib, o'z yetakchilariga "baytulumol" sifatida pul to'plab berganlar. "Baxshillochilar" asosan Buxoro va Kogon shaharlarida istiqomat qiladilar. Ta'kidlash joizki, norasmiy diniy jamoalarning faoliyatida ishtirok etish, jamoa g'oyalari asosida diniy ta'lim olish yoki o'rgatish O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 5 va 9-moddalarini buzish hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida belgilangan qonuniy jazo qo'llanishiga olib keladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Tasavvuf, tariqat, tariqatchilik atamalarining mazmun-mohiyati haqida gapirib bering.
2. Ma'rifatchilar haqida ma'lumot bering?
3. Shohidiylar haqida ma'lumot bering?
4. Sektantlik inson ongiga va ijtimoiy barqarorlikka tahdidi haqida ma'lumot bering.
5. "Shohidiylar" oqimi tarixi va ijtimoiy tahdidi haqida nimalarni bilasiz?
6. "Ma'rifatchilar" oqimi tarixi va mohiyati haqida nimalarni bilasiz?

11-MAVZU: DESTRUKTIV SEKTALARINING JAMIYAT BARKARORLIGIGA TAHDIDI (“AUM SINRIKYO”, “DAVIDCHILAR BO‘LINMASI”, “MORMONLAR JAMOASI”)

1. Sektalarining jamiyat barkarorligiga tahdidi. Asaxara 1955 yilda Kyusyu orolida tug‘ilgan. U 1984 yilda “Aum Shinsen-no-kay” (“Ma’nan yetuk va g‘ayritabiyy kuchga ega insonlar jamiyati”) diniy tashkilotiga asos solgan. Tashkilot keyinchalik “Aum Sinrikyo” deb nomlangan. To‘rt yildan so‘ng uning izdoshlari soni 3-4 ming kishiga yetgan. Uning muridlari nafaqat Yaponiya, balki AQSH va Rossiyada ham bor edi. U tarafdorlarini hindlar ma’budi Shivaning qayta tug‘ilgan qiyofasi ekanligiga ishontirgan (Asaxara o‘zini “Tokio Isosi” va “Muqaddas papa” deb ham atagan) va ulardan barcha mol-mulklarini unga berishni talab qilgan. Asaxara o‘z ta’limotini barcha dinlarning umumlashmasi deb e’lon qilgan. Aytishlaricha, uning izdoshlari aksariyat vaqt davomida ovqatlanish, uxlash va yaqinlari bilan suhbatlashishdan voz kechishgan. Natijada ular muntazam ravishda yarim gipnoz holatida yurishgan, irodalari sustlashgan. “Aum Sinrikyo” safida shifokor va olimlardan iborat oliy ma’lumotli kishilar ham bo‘lishgan va ularning ayrimlari jinoyatlarda ishtirok etishgan. Sekta a’zolari televideniye orqali tez-tez chiqishlar qilib, o‘z tashkilotlari haqida so‘zlab berishgan. OAV ularga odamlar ongiga ta’sir ko‘rsatishlarida yordam bergan. Sud stenogrammalariga ko‘ra, Asaxara qiyomatdan qochib qutulib bo‘lmasligini, u o‘ldirgan insonlar esa jannatga tushishini ta’kidlagan. 1989 yil noyabrda advokat Susumi Sakamoto butun oilasi bilan o‘ldiriladi. Yurist bir necha kishiga farzandlarining Asaxara ta’siridan qutulishiga yordam bergandi. Uni xotini va bir yoshli o‘g‘li bilan birgalikda bo‘g‘ib o‘ldirishadi. 1990 yilda Asaxara va uning 24 sherigi vakillar palatasiga saylovlarda mag‘lub bo‘lishgach, sekta asoschisi qasos rejasini tuzdi. Fudziyama tog‘i etagidagi qishloqlardan birida “Aum Sinrikyo” zaharli zarin gazi va o‘tochar qurollar ishlab chiqarish bilan shug‘ullana boshladi. 1994 yilda guruh a’zolari bu gazdan Masumoto shahridagi tumanlardan birida foydalanishdi. Sektaga qarshi da’voni ko‘rayotgan sudya hujumga

uchradi. Bundan tashqari, tashkilot o'zi ishlab chiqargan qurolni tekshirib ko'rmoqchi edi. Oqibatda sakkiz kishi halok bo'ldi, 600 kishi jarohatlandi. Keyingi yili zarin Tokio metrosida qo'llanildi – tashkilotning 15 a'zosi gazli paketlarni beshta turli poyezd vagonida odam gavjum bo'lgan vaqtda teshib qo'yishdi. Natijada 6 mingdan ortiq kishi zaharlandi, 13 kishi qurbon bo'ldi. Tez orada Asaxara hibsga olindi va 1996 yilda sud eshituvlari boshlandi. Nihoyat, 6 iyul kuni sekta asoschisi qatl etilganidan so'ng "Aum Sinrikyo" faoliyatidan jabrlanganlar yengil nafas olishdi. Ammo bu hali hammasi tugadi degani emas – tashkilot 2000 yilda "Alef" nomi bilan qayta faoliyat boshlagan deb hisoblanadi. Yaponiya vazirlar mahkamasi bosh kotibi Yosixide Suga "Alef" a'zolari polisiyaning qat'iy kuzatuvda ekanligini bildirdi. Darvoqe, "Aum Sinrikyo" bilan aloqador yana bir guruh mavjud. Uni 2007 yilda Asaxaraning sobiq tarafdori Fumixiro Joyu tashkil etgan. Mahalliy huquq organlari ma'lumotlariga ko'ra, "Aum Sinrikyo" bilan aloqador guruhlar tarafdorlari Yaponiyada 1650ga yaqin kishini, Rossiyada 460 kishini tashkil etadi. Ularning mablag'i 1 mlrd iyen (\$9 mln)dan oshadi. "Aum Sinrikyo"ning tarafdorlari necha kishi ekanligini esa aytish qiyin. Ayni paytda ularning soni 60 mingga yetganligi taxmin qilinadi.

Katta Rossiya ensiklopediyasidagi ma'lumotlarga ko'ra, 1994 yilda sekta tarafdorlari soni 40 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 1992 yilda Asaxara Rossiyaga kelgan va ma'ruzalar o'qigan. 1995 yilda Tokio metrosida yuz bergan hujumdan so'ng Ostankino sudi tashkilotni yopish to'risida qaror chiqargan. Shundan so'ng tashkilotning uch nafar rahbariga fuqarolar huquqlari va shaxsiyatiga daxl qilish ayblovini e'lon qilingan. Ammo ular sud qilinmadi – 1998 yilda ular jamiyatga xavf tug'dirmaydi deb topildi. 2000 yilda Vladivostokda Yaponiyada terakt amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rgan Asaxara tarafdorlari qo'lga olindi.

2016 yilda Rossiya Oliy sudi "Aum Sinrikyo"ni terrorchi tashkilot deb topdi va uning faoliyatini taqiqladi. Rossiya din va sektalarni o'rganish assosiasiyalari markazi prezidenti Aleksandr Dvorkinning aytishicha, hozirda mazkur harakat tarafdorlari 3 ming atrofida, lekin

aniq raqamni aytish qiyin. “Sekta yashirin faoliyat yuritadi, bundan tashqari turli darajadagi a’zolar bor: kimdir sektaning to‘laqonli a’zosi, yana kimdir qisman a’zo”, - dedi ekspert. Uning aytishicha, sekta a’zolari internet orqali odamlarni jalb etadi va odatda bo‘lajak qurbonlarni “yoga kurslari”ga taklif etishadi. So‘ngra qiziqqanlar asta-sekin yetti bosqichli sinovdan o‘tib, sektaga qamrab olinadi. Mormonlar - XIX asrning birinchi yarmida Jozef Smit tomonidan Qo‘shma Shtatlarda yaratilgan diniy madaniyat Iso Masihning oxirgi kunlardagi azizlari cherkovi g‘oyalariga asoslanadi, ammo keyinchalik ulardan voz kechdi. Mormonlik ko‘plab olimlar tomonidan ushbu cherkovning yo‘nalishi sifatida aniqlashni davom ettirmoqda, biroq ularni asosiy kitobdan, diniy marosimning muqaddas oyatlaridan ajratish mumkin. Mormon - Muqaddas Kitobni emas, balki Mormon Kitobini o‘z hayotining asosiy kitobi deb hisoblaydigan kishi. Mormonlarning birinchi belgisi, yashirin jamoalarning a’zolarining muhr va chizmalarida ko‘rinadigan, piramidadir. Bu qadimiy bilim va sehrli kuchlarning kuchli ramzidir, ular har bir kishi uchun ochiqdir. Piramidaning yuqori qismida egasiga boshqa sivilizasiyalar bilan ma’lumot almashish imkonini berish uchun Koinotga yo‘naltirilgan.



Mormonizmning diniy e’tiqodi qisman yaxshi va yomonni, sevgi va xiyonatning asosiy tushunchalariga nisbatan katolik va pravoslav imoniga o‘xshaydi. Shuni unutmangki, Mormon dinida ham muhim farqlar mavjud:

1. Inonishlarning markaziy hissi insoniyatni gunohlardan qutqarish uchun Iso Masihni yuborgan Samoviy Otadir.
2. Qutqaruvchining ta’limoti hayotning barcha sohalariga kirib borishi kerak, shuning uchun Mormonlar o‘z qoidalariga binoan yashashi kerak.
3. Xudo insoniyat bilan muloqotni davom ettiradi: har bir avlodda uning payg‘ambarlari tug‘iladi.

4. Haqiqiy Mormonlar kimligini tushunishni istagan har kim, bu kitobni o'qimaguniga qadar buni qila olmaydi.
5. Ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish nafaqat eng yuksak qadriyatlar, balki din uchun haqiqiy majburiyatdir.

2. Destruktiv sektalarga qarshi kurash strategiyasi. Ushbu dinga e'tiqod qiluvchilarning asosiy yashash joyi Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan. Har bir davlatda amaliy hayotda yashayotgan radikal jamoalarni va har bir inson uchun ochiq bo'lgan zamonaviy cherkovlarni topishingiz mumkin. Mormonlar jamiyati televizionni taqiqlaydi, ammo Internetdan faol foydalanadi. Jamiyatning qatlamlariga bo'linishi minimaldir, chunki boy musulmonlar kambag'allarga yordam berishlari kerak. Mormonlar Xudoning o'zi tomonidan marhamatlangan eng yaxshi ish erni etishtirish va chorva uchun g'amxo'rlik qilishdir. Ko'pgina odamlar uchun yangi dinni bilish, butun sayyoradagi Xudoning kalomini targ'ib qiluvchi missionerlar bilan muloqot qilishdan boshlanadi. Agar kishi ruhi yaqinligini his qilgan prinsiplar bilan his qilayotgan bo'lsa, u jamoat tarafdorlarining saflariga qo'shilishni taklif qiladi. Mormonlarga ko'ra, din uch holatni bajarganidan keyin imonlilar uchun tabiiy hisoblanadi:

- ✓ suvga cho'mish orqali suvga cho'mishning muqaddasligi;
- ✓ gunohlarning kechirilishi;
- ✓ Muqaddas Ruh in'omini olish uchun jamoatning eng oliy a'zosiga baraka berishi.

Mormonlarni mazhablar tomonidan tan olinishi va ularning qonun bo'yicha ta'qib qilinishi haqidagi savollar uzoq vaqtdan beri munozaralarga berilib ketgan. Taniqli huquqshunoslar va nasroniy diniy rahbarlari shubhasiz: Mormonlar ommaning ongiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan bir mazhabdir. Ushbu da'volarning foydasiga ular o'z e'tiqodlari haqida bir nechta faktlarni aytadilar:

1. Iso Masih Shaytonning ukasi. Kitobga ko‘ra, uning taqdiri uning ukasi Lusifer tomonidan kuch va shon-shuhratga ochko‘zlik keltirib chiqardi.

2. Mormonizmning dastlabki 50 yilligi, Odam Atoga ishonish kerak bo‘lgan yagona Xudo ekanligini o‘rgatdi.

3. Mormon kitobi qadim zamonlardan qolgan tarixchilar tomonidan tasvirlangan tarixiy voqealarga ziddir.

Jamoat izdoshlari kamdan-kam holatlarda san‘at asarlari qahramonlari bo‘lishadi, biroq ularning ishtiroki bilan bog‘liq voqealar ba‘zan mashhur rejissyorlarning qiziqish maydoniga tushadi. Mormonlarga va‘z qilishni tasvirlaydigan filmlar ro‘yhati quyidagilardan iborat:

1. “Osmonning narigi tomonida”. Jon-Groberg, Jan-Groberg, Tonga orollarini missioner sifatida olib, Janining xotini bilan ajralib turadi. Uning maktublari yolg‘izlik bilan kurashish uchun unga yordam beradi va u - orol aholisi bilan muloqot qilish jarayonida qo‘lga kiritgan donolik bilan baham ko‘radi.

2. “Missiyani qaytarish”. Mormon missionerlaridan Jared Felps bir necha yil diniy safarga borib, sevimli qizini va onasini kutib turganligini hisobga olib, Uning kelishi bilan, sevgilisi boshqa turmushga chiqadi va onasi boshqa bola bilan homilador bo‘ladi. U pulsiz, uy-joysiz va yaqin odamlarsiz yangi hayotni boshlashi kerak.

3. “Ikki eng yaxshi yil”. Harlemning ikki chekkasida joylashgan bir xonadonda ikki juftlik to‘la vaqtli maxsus va‘zgo‘ylar yashaydi, lekin ular avlodlar o‘rtasidagi farq tufayli bir-biriga yaqinlashib boradilar.

4. “Mening ismim Uchbirlik”. Mormonlar jamoati uchinchi shaxsning professional qotilini xayr-ehson qilmoqda va mahalliy er egasi va uning to‘dasi uchun kengashni topish uchun yordam so‘raydi.

5. “Guardian”. Ajralishdan keyin, Jonatan ismli rasmning qahramoni jon-jahdi bilan o‘z e‘tiqodini qayta tiklashni

rejalashtirayotgan bir qiz unga ishonib topshiradigan diniy jamoatga tushadi. Mormon Kitobi mormon dinining muqaddas kitobidir. Kitob ilk marotaba 1830-yili AQSHda Kenja Joseph Smith rahnamoligida chop etilgan. Joseph Smith'ga ko'ra ushbu kitob Amerika qit'asida eramizdan avvalgi 600- va eramizning 400-yillari orasida oltin taxtalarga yozib qoldirilgan muqaddas matnlar tarjimasidir. Mormon Kitobining haqiqatdan ham mormonlar da'vo qilayotgan makon va zamonga doir ekanligi shubha ostiga olingan va quyidagicha tanqid qilinadi:

- Ko'pchilik olimlar Mormon Kitobida tasvirlangan joylarning Amerika qit'asida borligidan shubhalanishadi.
- Mormon Kitobida tasvirlangan ko'p hayvonlar, o'simliklar va qurilmalar Amerikada XV asrdan avval bo'lmagan.
- Mahalliy Amerika hindulari tillari va Mormon Kitobi asl nusxasi yozilgan til, deb da'vo qilinuvchi Qadimgi Misr tili, yoki umuman, Yaqin Sharq tillar orasida bog'liqlik yo'q.
- Maya hindularining yozuv tizimi Yaqin Sharq yozuv tizimlariga o'xshamaydi.
- Maya solnomalarida Mormon Kitobida bahs etiluvchi shaxslar va voqealar tasvirlanmagan.
- Amerika hindulari va Yaqin Sharq aholisi DNK tahlili ular orasida aloqa borligini ko'rsatmagan.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Aum Senrikyo haqida ma'lumot bering?
2. Mormonlar haqida ma'lumot bering?
3. "Missionerlik" tushunchasining mazmunini tushuntirib bering.
4. "Prozelitizm" tushunchasining mazmunini tushuntirib bering.
5. Prozelitizmning ijtimoiy barqarorlikka tahdidi haqida ma'lumot bering.
6. Destruktiv sektalarga qarshi kurash strategiyasi haqida nimalarni bilasiz?

12-MAVZU: DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

1. Dunyodagi davlatlarning dinga munosabatining turlari. Zamon taraqqiyotga yuz tutgan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyoning ma'rifatparvar, ziyoli qatlami uchun zamonaviy dunyoda dinning o'rni qanday bo'ladi, degan savol keng tortushuvli va muammoli masalaga aylandi. Bunga sabab esa shiddat bilan o'zgarib, rivojlanib borayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy taraqqiyot edi. Yaqin o'tmishdagi taraqqiy etish boshlagan Yevropada hukmron fikr va qarash shunday ekanligini ko'rish mumkin: XVII asrga qadar hukmronlik qilgan dinning ijtimoiy hayotdagi samaradorligi haqidagi qarashlar XVIII asrning boshidan XX asrning oxirigacha mutlaqo teskari ko'rinishda harakat qila boshladi. "Din ijtimoiy hayotdan asta-sekin uzoqlashib, oxir-oqibat yo'q bo'lib ketadi", degan da'voga oid bu qarash XIX-XX asrlarda ijtimoiy fanlar sohasida ham ahamiyatli bo'lib, asosiy g'oyaga aylandi²⁸. Karl Marksning bashoratiga ko'ra esa kapitalizm dinni jamiyat hayotidan uzoqlashtirishi va keyinchalik butunlay olib tashlashi kerak edi²⁹. Bu tushuncha esa katta ehtimolga ko'ra "ijtimoiy evolusiya" tushunchasi bilan shakllangan va o'zini davriy tushuncha tarixida ustun kelishligiga bo'lgan pozitivi bilan ifodalangan.

Zamon rivojlanib borar ekan din va muqaddas narsalar yo'q bo'lib ketadi degan gipoteza XX asrda modernizm asosida shakllangan qarashning birinchi darajali shioriga aylangan edi. Modernizasiyaga ko'ra ta'kidlangan din haqidagi gipoteza, ijtimoiy fanlarda sekulyarizasiya nazariyasi sifatida ko'zga ko'rinish boshladi. Dunyoviyashtirish g'oyasining asosiy argumenti, modernizasiya jarayoni birinchi navbatda diniy muassasalar, keyinchalik diniy marosimlar va pirovardida diniy tasavvurlarni ijtimoiy hayotdan uzoqlashadi, uziladi va oxir-oqibat butunlay yo'qolishiga olib keladi, degan fikr edi. Diniy ma'rifatni taraqqiyot uchun yagona to'siq deb biladigan sekulyarizasiya nazariyasining dinga nisbatan bir tomonlama

²⁸ Leger E. Religion as a chain of memory, – P.141-146.

²⁹ Ko'se A. "Modernleşme, Sekülerleşme ve Din Arasındaki İlişkinin Yeni Paradigmaları, "İncil'in Dönüşü: 21. Yüzyılda Dinin Geleceęi, ed. Ali Köse – İstanbul "Timaş Yayınları", 2014): - S. 11.

yondashuviga ko‘ra, din va muqaddas narsalarni ijtimoiy hayotning barcha tarkibiy elementlaridan tozalash kerak degan g‘oyani ilgari surishi edi ³⁰. Konseptual va nazariy rivojlanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sekulyarizasiya asosan dini modernizasiya jarayonida qoloqlik, muqaddas va g‘ayritabiiy ahamiyatdagi narsalarning regressiyasi sifatida talqin qiladi. Bellax esa dinga bo‘lgan o‘z munosabatida ³¹ “ilm-fan dini va boshqa shu kabi xurofot qorong‘uliklarni yo‘q qiladi” der ekan, din va unga bog‘liq muqaddas tushunchalarni ma‘rifiy afsona sifatida ta‘riflaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bu kabi taxmin va gipotezalarning barchasi, turli soha olimlarining bashoratlariga qaramasdan, bugungi kunda din jamiyatdan uzo‘qlashmadi, aksincha din o‘zining butun borlig‘i bilan insoniyat hayotida saqlanib qoldi. Shuningdek, hayotning hamma jabhasida o‘z ta‘sirini qayta tiklamoqda. Modernizasiya butun dunyoni o‘rab olgan bugungi kunda din ham sekulyarlashishi haqidagi barcha taxminlar quruq chupchakka aylanib qoldi. Bugungi zamonaviy, har tomonlama taraqqiy etgan dunyo shuni ko‘rsatmoqdaki, modernizasiya qanchalik keng miqyosda va davomli bo‘lmasin, din jamiyatdan ajralishi mumkin emasligini ko‘rsatdi.

Ma‘lumki, modernizasiya jarayonida an‘anaviy jamiyatlarning birdamligini saqlab qolishda din asosiy unsur bo‘lib xizmat qiladi. Yana shunisi ham borki, jamiyat tuzilmalaridan individualistik va plyuralistik tartibga, u yerdan esa bugungi axborot jamiyatiga o‘tish mumkin.

Hozirda ijtimoiy dinamika, keng miqyosli o‘zgarishlar, insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlar va sotsal tuzulmalarni ham chuqur silkitishda davom etmoqda. Ijtimoiy hayot instetusional va byurokratik vositalar bilan ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartiradi. Odamlar orasidagi munosabatlar va o‘zaro aloqalar madaniyat muassasalarini rasionalizasiya qilinishi yo‘li bilan qayta quriladi. Shunisi aniqki, dinning mavjudligi va uning hayotni anglash tarzidagi o‘ziga xosligi

³⁰ Eisenstadt N. Modernleşme: Başkaldırı ve Değişim, Doğu Batı Yay. – Ankara, 2007, – S. 72.

³¹ 1987, "Secularization", The Encyclopedia of Religion, ed. Mircea Eliade, Volume 13, Macmillan Publishing Company, New York, Collier Macmillan Publisher, London, – S. 159-165.

o'zgaraydi va yana diniy hayot sosiologik o'lchovga ko'ra ahamiyatli bo'lib qolaveradi.

2. Davlat va din munosabatlari huquqiy asoslari. Diniy e'tiqodlarni ko'rinishlari mentalitet, ijtimoiy tajriba va madaniyatga ko'ra farq qiladi. Zamonaviy ijtimoiy hayotda diniy e'tiqodga asoslangan jamiyatning duch keladigan eng katta muammosi, ijtimoiy dinamika o'zgarishiga qarab, an'anaviy idrok va e'tiqodiy talqinda turli ijtimoiy guruhlar orasida yuzaga keladigan ziddiyatlar paydo bo'lishida ko'rinadi³².

Zamonaviy dunyoda din evolyusion pozitivistik bashoratlarga zid o'laroq, insoniyat taraqqiyotidagi barcha jabhalar va yo'nalishlar markazida katta mavqiyega ega bo'lib bormoqda. Biroq, dindorlik bundan keyingi davrda odamlar bilganidek an'anaviy holatda davom etmaydi, balki u ba'zi o'lchovlar va ma'nolarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham yangi diniy individualizm, an'anaviy diniy qarashlarni tanqid qilishi kuzatiladi. Chunki dindorlik kundalik hayot tafsilotlarini individual talqin qilish va izlash mavzusi sifatida shakllanadi. Shaxsiy diniy tajribaning ahamiyati tobora ortib borayotganligi G'arbda ham, Sharqda ham g'ayrioddiy va sirli talqinlarning tobora ommalashib borayotganida namoyon bo'lmoqda. Ba'zi din sosiologlari ushbu zamonaviy diniy e'tiqod shakllarini "tegishli bo'lmasdan ishonish" yoki "ishonmasdan egalik qilish" kabi o'ziga xos tushunchalar bilan aks ettirishga harakat qilmoqdalar.

Ko'inishidan, bugungi jamiyatda dindorlar diniy-dunyoviy, an'anaviy-zamonaviy, xususiy-davlat sohalari kabi, ko'rinishidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan keskinliklarga duch kelmoqda. Zamonaviy dunyoda dindorlik ham kollektiv birdamlik va fikrni istisno qiladigan individualizm muammosiga, ham diniy tizimlar sohasida tobora ko'payib borayotgan plyurallashuvga duch kelishi kerak. An'anaviy jamiyatda dindor kishi turli xil e'tiqod tizimlari bilan shug'ullanishda hech qanday muammoga duch kelmagan. Ommaviy axborot jamiyatida esa rang-barang variantlar bilan shaxslarning ma'naviy tajribalarini va

³² Pippa Norris and Ronald Inglehart, *Holy and Secular: Religion and Politics Around the World* (Cambridge: Cambridge University Press, 2004), – P. 7.

diniy bilim manbalarini yuzaga chiqaradi. Diniy plyuralizm dinlar va e'tiqodlar o'rtasidagi uchrashuv va muloqot munosabatlarini rivojlantirib, shaxslarning o'z dinlariga mansubligi to'g'risida yangi tasavvur va tushunchalarni targ'ib qiladi. Bir tomondan plyuralizm xavotir va ikkinchisiga nisbatan xurofotni yengillashtiradi va shu bilan birga diniy munosabatlarning nisbiyligi xavfini ham o'z ichiga oladi.

Taraqqiy etgan jamiyatdagi munosabatlar dinamikasi va tizimining o'zgarishi sababli, dindorlarning ijtimoiy dunyoda ishtirok etishi va unda o'z o'rniga ega bo'lish mas'uliyati, ma'lum axloqiy makonni kengaytiradi va shu bilan birga turli chalkashliklar kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi. Dindorlik nafaqat diniy amaliyotlarni bajaruvchisi, balki u shaxsiy va ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga olish va jamoat manfaatlarida ishtirok etish bilan ham bog'liqdir. Biroq, endigi jamiyatda globallashtirilgan dunyoning iste'mol madaniyatini tushunish holatini ifodalovchi dindorlikning boshqa jihati ham mavjud.

Boshqacha qilib aytganda, yangi davrda diniy tizimlar avvalo yakkalangan, begonalashgan va xavotirda yashayotgan shaxsga tinch va xavfsiz ekanligini his qildirishdagi vazifasiga ko'ra, tarixdan bugungi kunga qadar, o'ylaymanki bundan keyin ham tengsiz bo'lib qoladi. Boshqa tomondan esa, zamonaviy individualizm va plyuralizasiya sharoitida, biz turli xil diniy talqin va tasavvurlarning ta'siri bilan diniy individualizm va yangi diniy qarashlarning plyuralizm guvoh bo'lamiz. Biroq, postmodernizm davrida standartlashtirish iste'mol madaniyatiga qarshi faqat xokisorlik va soddalik, ma'naviy yuksaklik va chuqur sadoqatni tavsiflovchi ko'rinishda bo'lgan diniy ma'no tizimlari saqlanib qolmoqda.

Qadim davrlardan boshlab jamiyat birligini taminlagan asosiy unsurlardan biri din bo'lib kelgan. Dinga e'tiqod qiluvchilar uchun ma'naviy huzur manbasi bo'lishi bilan birga, jamiyatni birdamligi uchun ham asosiy faktorlardan hisoblangan. Yaratuvchining borligini isbotlash uchun insoniyat qadimdan turli uslublardan foydalangan. Tarixdan to bugungi kunga qadar turli davrlarda yashab o'tgan madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'z diniy e'tiqodiga boshqalarni ham chaqirgan.

Uzoq tarixdan hozirga qadar, o'tgan davr tajribasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, diniy qadriyatlarni mahkamaga tortish va tanqid qilish salbiy oqibatlariga olib keladi. Chunki bu qadriyatlar insoniyatning ijtimoiy birligini taminlovchi asosiy unsurlardandir.

3. Dunyo davlatlarida vijdon erkinligini ta'minlash holati. Yevropada juda ko'p diniy jamoalarning paydo bo'lishi ular bilan o'z davridagi davlat munosabatlari, tarixiy jarayonlar asosida tahlil qilingan. Faqat XIX asrdan bugungi kunga qadar sotsial bilimlarni jiddiy shaklda tanqid qilmasdan umumiy o'laroq qabul qilingan, an'anaviy sekulyarizasiya muassasalarining bugungi dunyoda keraklicha bayon qilinmagani ham hal qilinishi kerak bo'lgan masalalardan bo'lib qolmoqda. Berger va Greys Devi kabi ba'zi sosiologlar nazariyasi Yevropa tajribasini aks ettiradi. Ularga ko'ra dunyoning boshqa mintaqalarida din va davlat munosabatlari diniy xulq-atvor va dindorlik darajalarini bayon qila olmagan. Sekulyarizatsiyaning so'ngi ikki yuz yil ichida Yevropaning diniy e'tiqodi va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va chuqur o'zgarishlarga olib kelgani haqiqat bo'lsada³³, shu bilan birgalikda, Yevropaning tajribasi bundan mustasno deb hisoblanadi³⁴. Chunki AQSH, Hind yarimoroli, Osiyo o'lkalari va islom dunyosidagi taraqqiyotga ko'z tashlanganda, ya'n dinning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga qaralganda, an'anaviy sekulyarizasiya'n bashorat qilish nazariyasi no'to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi.

Yangi jamiyatda diniy harakatlarning tezlashishi, ma'naviyat va ma'rifat tushunchasining bir ko'rinishi o'laroq ko'zga tashlanadi. Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishi, yoki an'anaviy dinlarda kuzatilayotgan tiklanish harakatlari, modernizatsiya va sekulyarizasiyaga paralel o'laroq dinning yo'q bo'lishi haqidagi tezislar ko'payishiga qarama-qarshi ravishda, uni tanqid ostiga olinishiga zamin hozirlamoqda³⁵. So'ngi yillarda sekulyarizasiya nazaryasi o'zining tarixidagi eng jiddiy

³³ Rene Remond, *Religion and Society in Modern Europe* (Oxford: Blackwell Publishers, 1999), – S. 187.

³⁴ Grace Davie, "Europe: The Exception That Proves the Rule?", *The Desecularization of the World: Resurgent Religion in World Politics*, ed. Peter L. Berger (Washington: Ethics and Public Policy Center, 1999), – S. 76.

³⁵ Sekulyarlashish nazariyasiga tanqidiy yondashuvlar uchun bk. Ali Ko'ze, *Dunyoviylik shubha ostiga olinmoqda: 21 asrda dinning ahamiyati* (Istambul: 2001).

qarshilikka duch kelmoqda ³⁶. Masalan XX asrning 60-yillarida sekulyarizasiya nazariyasi qo‘llanilgan, ya’ni modernizasiya kengayishi va yuksalishi asnosida dinni jamiyat hayotidan uzoqlashtirish va ahamiyatini yo‘qotishga harakat qilgan olimlarning bir qismi, yangi ishlanmalar, ilmiy dalillar va ular asosida yuzaga chiqqan ma’lumotlarni hisobga olgan holda o‘zlarining din haqidagi bu qarashlari noto‘g‘ri bo‘lganini tan oldi. Hozirgi paytda sekulyarizasiya nazariyasi qaytadan ko‘zdan kechirilishini talab qilganlar bo‘lganidek, bugunga kelib bu nazariyaning hech qanday ahamiyati qolmaganini, nazariya o‘zini oqlay olmaganini aytadiganlar ham ko‘payib bormoqda. Masalan Jeffry Hadden “Towards Desacralizing Secularization Theory”, asari muallifi “Sekulyarizasiya nazariyasi ahamiyati yaxshi tekshirilmagan qat’iy taklif nazariyasi emas, balki bir ta’limot, yoki mafkuraviy dogmaga aylantirilgan”³⁷, deb ta’kidlaydi. Rodney Stark va Roger Finke esa Haddindan biroz oldinroq sekulyarizasiya nazariyasini tarixga ko‘milishi kerakligini iddao qilgan. Ularning ta’kidlashlaricha, “Ikki yuz yil davomida haqiqatlarga teskari borib, ming yillar mobaynida tarix chig‘rig‘idan o‘tgan an’analarni oyoqosti qilgan sekulyarizasiyadan voz kechish vaqti keldi. Chunki sekulyarizasiya insoniyat kelajagini mutlaqo xafga qo‘yuvchi zararli unsur ekanligi bugun hammaga ma’lumdir”³⁸.

Yangi davrda yuzaga keladigan holat tufayli diniy hayot, an’anaviy jamiyatlarga turli ko‘rinishlarda ta’sir qilishi, diniy muhitni yemirilishiga, diniy e’tiqodlarni susayishiga olib keladi. Bu borada Bellin shunday deydi. “An’anaviy ma’naviyatni doimiy davom etishi va insonlar ongida muqaddaslik tuyg‘ulari saqlanishi insoniyat hayoti davomiyligini ta’minlanishi kafolatidir”³⁹.

1967 yilda Berger e’lon qilgan “The Sacred Canopy”⁴⁰ nomli kitobda an’anaviy sekulyarizasiya nazariyasi va u o‘z g‘oyalarini dalillar bilan asoslab berganida va 1999 yilda nashr qilingan “The

³⁶ Norris va Inglehart, *Sacred and Secular*, – S. 4.

³⁷ Hadden J. “Towards Desacralizing Secularization Theory”, *Social Forces*, 65/3 (1987), – S. 587.

³⁸ Stark R. Finke R. *Acts of Faith: Explaining the Human Side of Religion* (Berkeley: University of California Press, 2000), – S. 79.

³⁹ Daniel Bell, “The Return of the Sacred? The Argument on the Future of Religion,” *British Journal of Sociology*, 28/4 (1977), – S. 448.

⁴⁰ Peter L. Berger, *The Sacred Canopy* (Garden City: Doubleday, 1967). – P. 98.

Desecularization of the World: A Global Overview” nomli maqolasida shuni e’tirof qilgan edi: “Biz dunyoni sekulyarlashtirishga harakat qilishimiz xatodir, chunki dunyo bugun oldingidek dindordir”⁴¹. Bergerga ko‘ra sekulyarlashish o‘z ichiga olgan, ya’ni uni qo‘llab quvvatlash uchun yozilgan adabiyotlarning hammasi yozilish sababiga ko‘ra xatodir. Aslida jamiyatni modernizasiya qilish uchun dinni mutlaqo tanazzulga uchratishga hojat yo‘q. Bugungi voqeliklar kuzatilsa, modernizasiyalashgan jamiyatlarda ham din mutlaqo saqlanib qolganiga guvoh bo‘linadi⁴². Masalan, so‘nggi yillarda qilingan keng tadqiqotlar AQSHda jamiyat qanchalik modernizasiyalashsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini ko‘rsatgan va xilma-xil dalillarga ishora qilmoqda. Masalan, bugungi kunda amerikaliklarning 94 foizi Xudoni va ruhni borligiga ishonishadi, 80 foizdan ko‘prog‘i esa Xudoni duo bilan bog‘lanish mumkin bo‘lgan borliq o‘laroq bilishadi. Amerika xalqining 70 foizi Xudoga mutlaqo ishonishlarini ifoda etadilar. 92 foizi dinni jamiyat hayotiga kerak deb hisoblaydi, 58 foizi esa dinni o‘z hayotlarida juda ahamiyatli bir unsur ekanini bildirishadi.

Amerikadagi har o‘n kishidan oltitasi esa dinni bugungi dunyoning muammolariga yagona yechim deb hisoblashadi. Bularning hammasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi dunyoni eng taraqqiy etgan jamiyati – amerikaliklarning katta qismi dinni hali ham hayotning asosiy unsuri, yashashning ma’nosi deb bilishadi. Boshqa tomondan diniy tashkilotlar Amerikada sog‘lom hayot tarzini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Tadqiqodchining izlanishlariga ko‘ra, cherkovlarni “vatandoshlik madaniyati va qobiliyatlarni” rivojlantirganini isbotlagan!

Bugungi kunda AQSHda ibodat uylariga bog‘liq, ya’ni dindor kishilar jamiyatni boshqarish yoki ijtimoiy-siyosiy hayotda jamiyat uchun ko‘proq foyda keltirishlari taxmin qilinmoqda. Shu sababga ko‘ra cherkov, masjid va sinagoga kabi ibodat uylariga muntazam qatnovchi siyosatchilar jamiyatdagi kishilar e’tiboriga va ishonchiga boshqalarga qaraganda ko‘proq sazovor bo‘lishi kuzatilmoqda. Ba’zi ilm kishilari

⁴¹ Peter L. Berger. The sacred canopy: Elements of sociological theory of religion: – New York: Doubleday, 1967. – P. 58.

⁴² Peter L. Berger. The Desecularization of the world: Resurgent religion and world Politics. – Washington: B. Eerdmans Publishing, 1999. – P. 18.

ham ibodat qilinadigan maskanlarni insonlar orasida ahamiyati ortganini, bu fikrni ham Robert Putmanning soʻzi bilan “jamoaviy sarmoya”ni (social capital) bildirib oʻtmoqda. Fuqarolar orasida ishonch va munosabatga ishora qilgan “jamoaviy sarmoya” hukumatni, uning samaradorligiga va hatto iqtisodiyotiga hissa qoʻshgani aniqlandi. Ibodat joylaridagi sotsial munosabatlar, siyosiy tuzumlarning shakllanishiga yordamchi boʻlganini ham aytib oʻtilgan⁴³.

Bugungi zamonaviy dunyoda dinning jamiyatdagi ahamiyati, uning insoniyat hayoti davomiyligini taʼminlashining zarurati tobora oshib bormoqda. Masalan, Yevropadagi sekulyarlashish va din munosabati asosiy masala boʻlgan bir paytda, fransuz sosiologi Daniyele Herviyeu-Leger diniy ong zanjirini jamoaviy deb bilish va uni hisobga olish muhim element ekanligini taʼkidlaydi. Daniyele Herviyeu-Legerga koʻra din bir xotira zanjiri oʻlaroq, unga eʼtiqod qilgan kishi oʻzini jamoat va jamiyatga bogʻlaydi, anʼana esa (yoki umumiy ong) bu insoniyat hayotiy mavjudligining tamalini yaratadi. Herviyeu-Leger din mavzusi markazida urf-odat, yaʼni bir ishonch zanjiriga maʼlumotni joylashtirib, dinning anʼanaviy holatini saqlab qolish asosiy muammo ekanini aytadi. Daniyele Herviyeu-Leger Gʻarb jamiyatida va ayniqsa Fransiyaning xotira inqirozi maʼlum darajada u jamiyatda yashagan kishini diniy eʼtiqodlar zanjiridan uzadi. U buning sababi nima ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. Bularning hammasiga qaramay Herviyeu-Leger zamonaviy Yevropa jamiyatlarida (jamoaviy) xotira bilan din orasidagi zanjirni takror kashf qilganini iddao qiladi⁴⁴.

Anʼanaviy Sharq jamiyatlarida parallel rivojlangan jamiyatlarga taqlidan qabul qilingan modernizasiya va sekulyarizasiya nazariyalari islom olamida qanday qabul qilingani va nimalarga olib kelganini koʻrish uchun uning geografiasidagi baʼzi tajribalarni oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Bu tadqiq qilish esa yuqorida soʻz yuritilgan sekulyarizasiya nazaryasini yangidan koʻzdan kechirib-kechirilmasligi

⁴³ Robert Booth Fowler and others. Religion and politic sin Amerika: Faith, Culture and strategic choices. – USA: Westview Press, 2010. – P. 48.

⁴⁴ DaineleHervien – Leger. Religion asa Chain of Memary. – New Jersey: Rutgers University Press, 2000. – P. 141-146.

haqidagi qarashlar qanchalar asosli ekani yuzasidan kelib chiqqan qarama-qarshilikka ham yechim bo‘ladi.

Islom olamida din va dunyoviylik orasidagi munosabat turli bosqichlardan o‘tgan va bu hamon davom etmoqda deya olamamiz. Turli mintaqadagi mamlakatlarning o‘ziga xos sharoitlariga ko‘ra yangilanishi bir-biridan farq qiluvchi o‘lchamlarga ega bo‘ldi. XIX asrda sekulyar G‘arb qadriyatlarini islom olamining boshqaruvidagi aksariyat elita qatlam o‘z boshqaruvi ostidagi jamiyat hayotiga tadbiiq qilishni ustun hisoblashgan.

XX asrning boshlarida esa g‘arbliklarning ochgan universitetlarida o‘qigan yangi avloddan, o‘z jamiyatlari uchun sekulyar G‘arb madaniyatini tadbiiq qilinishiga modernizasiya va ijtimoiy transformasiya loyihasini tashuvchilari sifatida foydalanildi. Boshqa tomondan dunyoviylikni davlat strukturasi asosi o‘laroq qabul qilgan va uni amalga oshirganlar ba’zi-ba’zida dindor qatlam bilan to‘qnashib turish holatlari ham uchrab turgan. Jamiyatni o‘z dunyo qarashlariga ko‘ra tartiblashni va boshqarishni xohlagan bu tendensiyalar orasidagi munosabatlar, ba’zi islom diyolarida sotsial barqarorlikni saqlash vajidan jiddiy muammolarga sabab bo‘ldi. Shu sababdan ba’zi islom diyolarida tez-tez notinchlik, kelishmovchilik va urushlar kelib chiqishi ham kuzatildi.

Sekulyarlashuvni islom diyolariga kirib kelish tarixi va asosiy dastur sifatida boshqaruvda qo‘llash, shakl-shamoyiliga ko‘ra bu boradagi tortishuvlar, dunyoviylik vujudga kelib tarqalgan G‘arb diyolaridan farqli kechdi. Musulmon o‘lkalarda milliy davlatlarning barpo etilishi, diniy va siyosiy hokimiyat vakolati bir-biridan tamoman ajratilishi Yevropa diyolaridagi kabi yengil kechmadi. Ya’ni tarixchi olim Ashirov A. aytib o‘tganidek: “G‘arb – qonunlar, Sharq urf-odatlar bilan boshqariladi”⁴⁵. Masalan, g‘arbiy xristianlik bu jarayondan o‘ta olmagan. Islom o‘lkalarida esa dunyoviylik ichki dinamikadan ko‘proq tashqi dinamika asosida rivojlanishning ta’siri bilan boshlangan. G‘arb o‘lkalarida paydo bo‘lib diniy va siyosiy hokimiyatning bir-biridan

⁴⁵ Ashirov A. Etnologiya. – T.: “Yangi nashr”, 2014. – B. 192.

ajralishiga yo‘l ochgan milliy davlatchilik fikri, islom olamida XIX asrning oxirlariga qadar paydo bo‘lmagan. G‘arbda rivojlangan dunyoviylik, diniy va ruhoniylar sinfini siyosat va davlat boshqaruvidan olib tashlash bilan birga, uning hukmronligini jamiyat hayotidan ham mutlaqo olib tashladi.

Bu borada G‘arb va Sharq qiyoslanadigan bo‘lsa G‘arbda dunyoviylik siyosiy, sotsial, madaniy va iqtisodiy rivojlanishga paralel ravishda qadam-ba qadam amalga oshirilgan. Islom olamida esa dunyoviylik G‘arb o‘lkalariga teskari, tadrijiy shaklda rivojlangan. Sharqdagi modernizasiya ichki o‘zgarishlardan ko‘ra Yevropa mustamlakachiligi va hududlari kengayishi, XIX asrning boshlarida u boshlagan g‘oyaviy mahsulot, tashqi o‘rnatilgan oqim sifatida kiritilgan. G‘arb mustamlakachilari bilan yuzma-yuz qolgan musulmon xalqlar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida e‘tibor qaratadigan asosiy mavzu omon qolish, mustaqilligini saqlab qolish bo‘lganoni ko‘rish mumkin. Ularni band qilgan asosiy muammo o‘z mamlakatlarini bosqinchilardan himoya qilish yoki saqlab qolish bo‘lgan. Ayniqsa, fan va texnika sohasida G‘arbning taraqqiyoti va rivojlanishi dunyoviy madaniyatning ustunligi va zamonaviylikka erishish yo‘li o‘laroq baholangan. G‘arbda bundan ancha oldin jamiyat hayotiga tadbiq qilingan, bugunga kelib esa u o‘zini oqlamadi degan fikrlar baralla yangrab turgan bo‘lsa, Sharqda dunyoviylik boshlangan davrdan boshlab bugungi kunga qadar islom olamida bu yo‘lni qabul qilish yoki rad qilish masalasi, zamonaviy rivojlanish uchun bu yo‘lni tanlash yoki tanlamaslik masalasi haligacha tortishuvli masala bo‘lib qolmoqda. Islom olamida davom etayotgan din-davlat munosabatlari va dunyoviylik haqidagi tortishuvlar bosim sifatida islomni faqat individual e‘tiqoddan iborat deb baholash, din va davlatni bir-biridan ajratilishi kerakligini aytgan qarashlar joy olmoqda.

Boshqa tomondan esa inqilobdan keyingi Eron misolida bo‘lgani kabi islom siyosiy hokimiyatning asosi bo‘lishi kerak degan bahsli qarashlar ham mavjuddir. Yangilanish va amalga oshirilgan modernizasiya davrida, dunyoviylikning islom olamiga kelishi va

mustaqil musulmon davlatning tashkil topishi sababidan sekulyarizatsiya turli shakllarda amalga oshirish uchun zamin hozir bo'ldi.

Dunyoviylik islom olamining o'z tarixiy tajriba va madaniy an'anasiga hech qanday joy qoldirmasligi mumkinligi xavfi sabab, milliy davlatchilikni mutlaq sekulyarlashtirish hali hanuz bahsli masala bo'lib qolmoqda.

“Dunyoviylik” tushunchasi G'arbga geografik jihatdan Sharqning va islom olamining eng yaqin bo'lagi bo'lgan Turkiyaga Fransiyadan kirib kelarkan, arablarda bu tushunchaning muqobili o'laroq XIX asrda “materialist” yoki “ateist” ma'nolari qo'llanilgan. Bu esa tahqirlovchi va kamsituvchi kinoya o'laroq “dahriy” kalimasiga almashgani ehtimoldir. Bugungi kun arab tilida dunyoviylik terminiga muqobil “dunyo” yoki “dunyoviy ishlar” ma'nolarini ifodalagan “ilmoniy” kalimasi qo'llanilmoqda. Boshqa ko'pgina Sharq davlatlarida esa sekulyarizatsiya so'zi “dunyoviylik” so'zi bilan ifoda qilinmoqda. Shu bilan bir vaqtning o'zida dunyoviylik atamasi ma'nosidagi “sekulyar”, “sekulyarlik” va “sekulyarizm” kabi ma'nolari ham ishlatilmoqda. Omma orasida esa bir-birini o'rniga ham qo'llaniladigan bu terminlarni ma'nosiga e'tibor qaratiladi.

“Dunyoviylik” tushunchasi muntazam tarkibiy va bir institusional tushunchani ifoda qiladi. Sekulyarlik tushunchasi esa yanada ko'p diniy hayotdagi transmutatsiya, dinning jamiyat hayotidagi ro'lida ko'riladigan aloqasini va bir tomondan dunyoviylashishga ishora qiladi.

Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib yirik musulmon davlatlarni va bu borada yuzaga kelgan tortishuvlarni siyosiy formasiyalar asoslariga ko'ra ochiqalay olamiz. Islom o'lkalaridagi dunyoviylik tushunchasi, amaliy dasturlar, dunyoviylik haqidagi fikrlar va salbiy reaksiyalar, har o'lkaning o'z jamiyatida va siyosatida tarixiy birlik va diniga ko'ra shakllangan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dindan to'liq voz kechib, butunlay sekulyarlikka berilish Yevropa misolida o'zini oqlamadi. Chunki buni aynan sekulyarlikka majoziy ma'noda beshik bo'lib xizmat qilgan Yevropa ziyoli qatlamini o'zi bugun tan olmoqda va XX asr boshida aynan yevropalik olimlar aytgan fikrlarga qarshi fikr bildirmoqda.

Insoniyatning uzoq tarixi davomida hech bir davrda dinsiz jamiyat kuzatilmagani, dinning insoniyat hayotida naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Zamon qanchalar taraqqiy etmasin u insoniyatning madaniyatlilik va ma'naviyatligining o'lchovi bo'lib qolaveradi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Dunyoviylik haqida ma'lumot bering?
2. Davlat va din munosabatlari haqida ma'lumot bering?
3. Dunyodagi davlatlarning dinga munosabatining turlari qanday?
4. Musulmon o'lkalarda milliy davlatlarning barpo etilishi haqida ma'lumot bering?
5. Amerikadagi har o'n kishidan nechtasi dinni bugungi dunyoning muammolariga yagona yechim deb hisoblashadi?
6. Dunyo davlatlarida vijdon erkinligini ta'minlash holati qanday?

13-MAVZU: EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH BO‘YICHA XALQARO HUQUQIY ME‘YORLAR VA XALQARO TASHKIOTLAR FAOLIYATI

1. Xalqaro konvensiyalarda ekstremizm va terrorizm masalalari.

Internetdagi radikalizm - zo‘ravonlikni qamrab oluvchi matnlar, terroristik hujumlarni qanday qilib eng yaxshi yo‘lga qo‘yish kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar, ekstremistik filmlar yoki ovozli kliplar, forumlarda odamlar va muassasalarga tahdidlarni qamrab oladi⁴⁶. Turli xalqaro tashkilotlar axborot texnologiyalarining jinoiy maqsadlarda qo‘llanmasligini va ularning umumbashariy tinchlikka xavf solish uchun ishlatilmasligini ta‘minlashga urinmoqda. 2001 yilning 25-noyabrida Yevropa kengashi internet jinoyatlariga qarshi kurashish uchun konvensiya qabul qildi. Konvensiya axborot texnologiyalaridagi jinoyatlariga qarshi umumiy choralar ko‘rishga, zarur qonunlar qabul qilishga va muammoga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga chaqiradi⁴⁷.

“Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiya” yoki (“Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Budapesht konvensiyasi”) birinchi xalqaro shartnoma hisoblanib, Internet va kompyuter jinoyatlari borasidagi milliy qonunlarni uyg‘unlashtirish, internetda tarqatilayotgan radikal g‘oyalarni aniqlash va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali muammolarni hal qilishga intiladi. 2006 yil 1 martda Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokol kuchga kirdi. Qo‘shimcha protokolni ratifikasiya qilgan davlatlardan irqchi va ksenofobik materiallarni internet tizimlari orqali tarqatish ta‘qiqlandi. Shuningdek irqchilik yoki ksenofobiya tahdidlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish talab qilinadi. Konvensiya quyidagi jinoyatlarni oldini olish uchun imzolangan. Internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar, mualliflik huquqini buzish, kompyuter bilan bog‘liq firibgarlik, virtual bolalar pornografiyasini hamda radikal g‘oyalar va tarmoq xavfsizligini buzishni oldini olishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnomadir.

⁴⁶ <https://www.government.nl/Radicalisation> and terrorism.

⁴⁷ Muhammad A.Y. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2016. – B.590.

Buddapesht konvensiyasining 9-moddasida bolalar pornografiyasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar aks etgan. Konvensiyaga a‘zo davlatlar bolalar bilan bog‘liq xatti-harakatlar qasddan va huquqsiz sodir etilgan bo‘lsa ichki qonunchiligiga binoan jinoiy javobgarlik sifatida choralarni ko‘radi⁴⁸.

Konvensiyaning asosiy maqsadi jamiyatni kiberjinoyatchilikdan himoya qilishga qaratilgan. Xususan internetga tegishli qonunlarni qabul qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatni tinchligini asrashga qaratilgan. Konvensiya Yevropa va xalqaro ekspertlarning to‘rt yillik mehnati mahsulidir. 2016 yil iyul oyidan boshlab Yevropa Kengashiga kirmaydigan davlatlar Avstraliya, Kanada, Isroil, Yaponiya, Panama, Shri-Lanka va AQSH ushbu shartnomani ratifikasiya qilganlar. Misr Konvensiyani imzolamagan bo‘lsada Misr Prezidenti Al Sisi hukumati 2018 yilda kompyuter jinoyati bilan bog‘liq asosiy qonunni qabul qildi. Facyebook va Twitter singari ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklar va terrorizmni targ‘ib qiluvchilarni qonun hujjatlari asosida jinoiy javobgarlikka tortish nazarda tutildi⁴⁹. Strategik aloqa, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistlarning manipulyasion xabarlarini katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Odamlarni, ayniqsa yosh ayollar va erkaklarni o‘z saflariga jalb qilishdi. Radikalizasiya ko‘p jihatdan milliy chegaralarni kesib o‘tadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt davlatlarga o‘ziga xos majburiyat yuklaydi. Paktning 20-moddasida milliy, irqiy diniy nafratni tashkil etuvchi har qanday tashviqot va diskriminasiya, adovat yoki zo‘ravonlikka undash qonun bilan ta‘qiqlanishi aks etgan. Bunday cheklovlarning ko‘pgina misollari Internetga taalluqlidir. Agar ushbu cheklovlarning buzilishi (ya‘ni noqonuniy tashviqot) sodir bo‘lsa, og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi.

Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokol 2013 yil 28-yanvar Strasburgda kiritildi. Konvensiyada internet tizimlari orqali tarqatiladigan irqchi va ksenofob maateriallar uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilandi. Shuningdek konvensiyaning 3-

⁴⁸ <https://www.coe.int/Council> of Europe.

⁴⁹ [rm.coe.int.CETS 185-Convention on Cybercrime-Coe.](https://www.coe.int/T/185-Convention%20on%20Cybercrime-Coe)

moddasida irqchi va ksenofobik materiallarni kompyuter tizimlari orqali tarqatilganda davlatlar o'z ichki qonunchiligiga binoan choralarni ko'radi. Genosidni tashkil etuvchi harakatlarni yoki insoniyatga qarshi jinoyatlarni ta'qiqlash 6-moddada aks etgan⁵⁰. Radikalizasiyalashgan kontentni tartibga solish hozirgi paytda bir nechta mamlakatlarda faol ravishda olib borilmoqda. Buyuk Britaniyada "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Internet-ma'lumot bo'limi" (CTIRU) tashkil etildi. Bu bo'lim 2010 yilda "terrorchilik harakatlarini rag'batlantiruvchi yoki ulug'laydigan" 49000 dan ortiq kontentni olib tashlagan. London polisiyasi har hafta 1000 dan ortiq ekstremistik veb-sahifalarni olib tashlaydi. 2014 yilda jugendschutz.net kontenti nafrat bilan gapiradigan barcha huquqbuzarliklarning 58 foizini olib tashlashga erishdi⁵¹.

2. Xalqaro tashkilotlarning ekstremizm va terrorizmni oldini olishdagi faoliyati. 2015 yil 13-noyabrda Fransiya hukumatining iltimosiga binoan Facyebook qirg'in bilan bog'liq 32000 ta xabarni o'chirib tashladi. Fransiyada 2015 yil 5-fevraldagi 125-sonli farmon bilan Fransiya hukumati veb-saytlarni blokirovka qilishga imkon beradi. Daniyada sud qaroriga binoan polisiya messenjerdagi kontentlarni yopishi mumkin. Birlashgan Qirollik va Tunisda ogohlantirishlar beriladi va filtrlash qo'llaniladi. Hindistonda Internet-provayder lisenziyasini blokirovka qilish bilan bir qatorda to'xtatib qo'yish ham buyurilishi mumkin. Avstraliyada messenjer terroristik harakatlarni targ'ib qilish, axloq me'yorlarini buzish, jinoyat yoki zo'rvonlik masalalarini targ'ib qilish, rag'batlantirish yoki ko'rsatma berish sodir etsa, profil hamda kanal aniqlangan taqdirda olib tashlanishi mumkin. Komissar terroristik harakatlarni targ'ib qilish uchun topilgan materiallarni Avstraliya Federal Polisiyasiga xabar qiladi.

Saudiya Arabistonidagi "Sakinah Kampaniyasi" rakikal g'oyalarga qarshi kurashishda muhim dasturlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sakinah mustaqil nodavlat tashkilot tomonidan yuritiladi. Islom ishlari vazirligi

⁵⁰ [https://www.enisa.europa.eu.Additional Protocol to the Convention on Cybercrime, concerning the criminalization of acts of a racist and xenophobic nature committed through computer systems \(2003\), Council of Europe, Treaty No.189](https://www.enisa.europa.eu.Additional Protocol to the Convention on Cybercrime, concerning the criminalization of acts of a racist and xenophobic nature committed through computer systems (2003), Council of Europe, Treaty No.189).

⁵¹ Jugendschutz.net is a platform on which any individual can report violations of youth protection laws (<http://www.jugendschutz.net/en/hotline/>).

tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Diniy qarashlarga radikal qarashni targ'ib qilish uchun Internetdan foydalanadigan shaxslarni tog'ri yo'lga solishga intiladi. Dialog va qarama-qarshi dalillar yuqori darajada olib boriladi. Qirollikdagi boshqa radikalizasiyaga qarshi kurashish strategiyalariga o'xshab, Sakinah Kampaniyasi diniy bilimlarni izlayotgan shaxslar bilan onlayn aloqada bo'lib, ularni ekstremistik manbalardan uzoqlashtirishga harakat qiladi. Milliy internetni filtrlash va monitoring qilish tizimi Ar-Riyodda joylashgan. Internet xizmatlari bo'limi Ichki ishlar vazirligi boshchiligidagi xavfsizlik qo'mitasining ko'rsatmalariga asosan veb-filtrlashni boshqarish uchun javobgardir. Hozirgacha bloklangan saytlarning aksariyati noqonuniy yoki axloqsiz kontentga tegishlidir. Saudiya Arabistonida Internetning joriy etilishi qirollikda jihodchi adabiyot va targ'ibotning tarqalishini sezilarli darajada kengaytirdi. Ruxsasiz fatvolar chiqarilishini cheklash uchun so'nggi qadamlar qo'yildi. Hozirda faqat davlat homiysi bo'lgan Islom Ulamolari Kengashi bilan bog'liq bo'lgan ulamolar fatvo chiqarishi mumkin⁵². Amerika tadqiqotiga ko'ra bir nechta davlatlar Qirollik Internetdagi ekstremizmga qarshi qanday kurashayotganiga qiziqishmoqda. Bunda bu dasturning ahamiyati katta. AQSH Harbiy akademiyasining Terrorizmga qarshi kurash markazining har oylik nashr etilgan nashrida aytilishicha, Internetda ekstremizm va zo'ravonlik tarqalishi butun dunyo bo'ylab Qirollikning Sakinah kampaniyasi radikal g'oyalarga qanday kurashyotganiga bo'lgan qiziqishiga olib keldi⁵³.

Amerikalik ekspert Kristofer tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu kampaniya turli ekstremistik mafkuralarga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Uning fikriga ko'ra, Sakinah kampaniyasi nodavlat va mustaqil dastur bo'lib, u yerda malakali olimlar faoliyat yuritadi. Ulamolar onlayn chat xonalariga kirib, foydalanuvchilar bilan Islom va takfiriylar g'oyalarning zarari to'g'risida munozaralar olib borishmoqda deb ta'kidlaydi. Internetga

⁵² <https://ctc.usma.edu/Christopher> Boucek. Campaign and Internet Counter-Radicalization in Saudia Arabia. August 2008.

⁵³ <https://carnegieendowment.org>. Christopher Boucek. The Sakinah Campaign and Internet Counetr-Radicalization in Saudia Arabia. August 25, 2008.

ulangandan so‘ng, dastlab shaxs bilan suhbatlashgandan so‘ng, Sakinah ishchisi ularga shaxsiy suhbat xonasiga o‘tishni taklif qiladi. Ushbu onlayn suhbatlar ketma-ket postlar shaklida amalga oshiriladi. Ikkinchi holatda, odatda ular bilan suhbatlashayotgan kishi savol yuboradi, so‘ngra Sakinah ishchisi javob beradi. Ushbu suhbatlar bir necha soat ichida amalga oshirilishi mumkin, ammo ular bir necha oy davomida davom etishi ma’lum bo‘lgan. So‘ngra dialog stenogrammasi boshqalar o‘qishi uchun Internetda joylashtiriladi va dastur ko‘lamini ko‘paytiradi⁵⁴.

Sakinahning 2017 yilgi hisobotiga ko‘ra, dastur o‘zining onlayn dialoglari va munozaralariga kirgan 3250 ta radikalning 1500 tasining fikrlarini mo‘tadil qilish va to‘g‘rilashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu barcha suhbatlar va tahrirlar kompaniya tomonidan hujjatlashtirilgan va arxivlangan bo‘lib, mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun muhim hisoblanadi. Dastur Facyebook va Telegram kabi messenjerlarda ham faol bo‘lib, ular bir nechta akkaunt va platformalarni boshqaradi. Facyebook platformasida 410,000 obunachisi yoki izdoshlariga ega⁵⁵.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo davlatlarning tegishli organlari tomonidan birgalikda o‘tkazilgan “Syamin-2015” onlayn-terrorizmga qarshi mashg‘ulot 2015 yil 14 oktyabrda janubiy-sharqiy Xitoyning Fujian provinsiyasining Syamin qirg‘oq shahrida bo‘lib o‘tgan. Mashg‘ulotda SHHT delegatlari va guruhning kiberterrorizmga qarshi kurashish tashkiloti ishtirok etdi. Ushbu mashg‘ulot internet va ijtimoiy tarmoqlardan terrorizm, separatizm va ekstremizmni g‘oyalarini tarqatishda foydalanadiganlarni aniqlashga xizmat qildi. Bu SHHT tomonidan uyushtirilgan terrorchilarga qarshi kurash bo‘yicha birinchi qo‘shma onlayn mashg‘ulot hisoblanadi⁵⁶. 2013-2015 yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik dasturi asosida SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi tomonidan 2013 yil 20 syentyabrda kiber ekspertlar guruhi tashkil etildi. SHHTga a‘zo

⁵⁴ <https://www.arabnews.com>. Saudi Sakinah campaign draws world’s interest. 29 March 2015.

⁵⁵ www.terrorismanalysts.com. By Abdullah bin Khaled al-Saud. The Tranquillity Campaign: A Beacon of Light in the Dark World Wide Web.

⁵⁶ <http://english.chinamil.com.cn/Zhang> Tao.SCO hosts first joint online counter-terrorism exercise in China. 2015/10/15.

davlatlar terrorizm, separatizm va ekstremizmning onlayn faoliyatiga qarshi kurashda hamkorlik qiladi.

Mashg'ulotning asosiy maqsadi SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida terrorizm, separatizm va ekstremizm g'oyalari uchun internetdan foydalanishni aniqlash va oldini olish uchun hamkorlik mexanizmini takomillashtirishdan iborat bo'lib, mashg'ulot shuningdek a'zo davlatlarga huquqiy tartiblar, tashkiliy va texnikaviy almashinuvda yordam berishga qaratilgan. Shuningdek internetdan terrorizm, separatizm va ekstremizm faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanadigan terrorchilarga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu mashg'ulot mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni samarali himoya qilish va davlatlarning terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik darajasini yanada yaxshilash uchun xizmat qildi⁵⁷.

O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurash to'g'risida qabul qilingan Qonunlar. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

garovga ushlab turilgan shaxs - qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs;

terrorizm - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlarni sodir etishga yoki

⁵⁷ <https://www.refworld.org>. Country Reports on Terrorism 2015-China. 2 June 2016.

sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar;

terrorizmni moliyalashtirish - terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat;

terrorchi - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs;

terrorchilik guruhi - oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi;

terrorchilik tashkiloti - ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi;

terrorchilikka qarshi operatsiya - terrorchilik harakatiga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta'minlash hamda terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan, kelishilgan va o'zaro bog'liq maxsus tadbirlar majmui;

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zona - joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo'shlig'i, transport vositalari,

binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan doiradagi ularga tutash hududlar;

terrorchilik faoliyati - terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyat;

terrorchilik harakati - garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo'lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obektlarni shu jumladan kontinental shelfda joylashgan stasionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatishlar, o't qo'yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariya, texnogen xususiyatli halokatlarni sodir etish yo'li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish;

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi;

jazoning muqarrarligi;

terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg'unligi;

jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladigan operasiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

terrorizmni targ'ib qilish;

terrorchilik guruhlarini va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor yuridik shaxslarni, ularning bo'linmalari (filiallari) va vakolatxonalarini (shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini) akkreditatsiya qilish, ro'yhatdan o'tkazish va ularning faoliyat ko'rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi;

tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni yashirish.

Davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashadilar va zarur yordam beradilar.

Terrorizmga qarshi kurash sohasida O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari, maxsus xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

Shaxs terrorchilik faoliyatida ishtirok etishdan o‘z ixtiyori bilan qaytgan, bu haqda tegishli davlat organlariga xabar bergan hamda og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining va terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Tashkilot sudning qarori asosida terrorchilik tashkiloti deb topiladi va tugatiladi.

Terrorchilik tashkiloti deb topilgan tashkilot tugatilganda unga tegishli mol-mulk musodara etiladi hamda davlat mulkiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yhatga olingan xalqaro tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) O‘zbekiston Respublikasining sudi tomonidan terrorchilik tashkiloti deb topilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi hududida mazkur tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) faoliyati taqiqlanadi va bu tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) tugatiladi, unga (uning bo‘linmasiga, filialiga, vakolatxonasiga) tegishli, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan mol-mulk musodara etiladi va davlat mulkiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining **“Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi** Qonunning maqsadi ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ekstremizm - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rluk ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi;

ekstremistik faoliyat - quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi asoslarini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga;

hokimiyat vakolatlarini egallashga yoki o‘zlashtirishga;

qonunga xilof qurolli tuzilmalar tuzishga yoki ularda ishtirok etishga;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga;

zo‘rluk yoki zo‘rluk ishlatishga oshkora da‘vat qilish bilan bog‘liq holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga;

jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga;

biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga;

ushbu moddaning to‘rtinchi - o‘ninchi xatboshilarida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish uchun oshkora da‘vat qilishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirishga, tashkil etishga, tayyorlashga yoki sodir etishga doir faoliyat;

ekstremizmni moliyalashtirish - ekstremistik faoliyatning mavjud bo‘lishini va faoliyat ko‘rsatishini, shaxslarning ekstremistik faoliyatda ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishini yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishini ta‘minlashga, ekstremistik tashkilotlarga yoxud ekstremistik faoliyatga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘larni, resurslarni berishga yoxud yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat;

ekstremist - ekstremistik faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek ekstremistik faoliyatda ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs;

ekstremistik guruh - oldindan til biriktirib ekstremistik faoliyatni amalga oshirayotgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilayotgan ikki yoki undan ortiq shaxs;

ekstremistik material - ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga oshkora da'vat qiladigan yoxud shunday faoliyatni amalga oshirish zarurligini asoslab beradigan yoki oshkora oqlaydigan, tarqatish uchun mo'ljallangan hujjat yoki har qanday vositadagi boshqa axborot;

ekstremistik tashkilot - ekstremistik faoliyatni amalga oshirganligi tufayli o'ziga nisbatan faoliyatini tugatish yoki taqiqlash to'g'risida sudning qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan qarori qabul qilingan tashkilot.

Ekstremizmga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

oshkoralik;

javobgarlikning muqarrarligi.

Ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murossasizlik munosabatini shakllantirish, shuningdek uning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

ekstremizm sohasidagi huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash;

ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagilar taqiqlanadi:

ekstremistik faoliyatning har qanday ko'rinishlari;

yuridik shaxslar tashkil etilganda ularni ekstremistik tashkilotlarning nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki o'xshash bo'lgan belgilarni o'z ichiga olgan nomlardan foydalanish.

Ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murossasizlik munosabatini shakllantirish;

ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida rasmiy ogohlantirish chiqarish;

yuridik shaxs tomonidan ekstremistik faoliyat amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

ekstremistik materiallarni olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etishni taqiqlash;

ekstremizmni moliyalashtirishni taqiqlash;

yuridik shaxsning faoliyatini to‘xtatib turish;

tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish.

Ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murossasizlik munosabatini shakllantirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

tushuntirish ishlarini olib borish;

huquqiy tarbiya va ta’limni tashkil etish;

ekstremizmga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish;

madaniy an’analarni, ma’naviy, axloqiy va vatanparvarlik ruhidagi tarbiyani mustahkamlash;

ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish;

ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini takomillashtirish.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murossasizlik munosabatini shakllantirish qonunchilikka muvofiq boshqa yo‘llar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ekstremistik faoliyat belgilarini o'z ichiga olgan, tayyorlanayotgan g'ayriqonuniy harakatlar to'g'risida yetarlicha va avvaldan tasdiqlangan ma'lumotlar mavjud bo'lgan hamda javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organining mansabdor shaxsi ekstremizmning yuzaga kelishiga yo'l qo'yayotgan mansabdor shaxslarga va jismoniy shaxslarga bunday faoliyatga yo'l qo'ymaslik to'g'risida yozma shaklda rasmiy ogohlantirish chiqaradi, ogohlantirishda uni chiqarishning aniq asoslari ko'rsatiladi.

Rasmiy ogohlantirish e'lon qilingan shaxs undan norozi bo'lgan taqdirda, ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tegishli davlat organining yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga yoki sudga ushbu ogohlantirish ustidan shikoyat qilishga haqli.

Yuridik shaxs tomonidan uning faoliyatida ekstremizm belgilari mavjudligi to'g'risida dalolat beruvchi qonun buzilishi sodir etilgan taqdirda, prokuror yoki ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organining boshqa mansabdor shaxsi mazkur yuridik shaxsning mansabdor shaxsiga ko'rsatib o'tilgan qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida taqdimnoma kiritadi va ularni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi. Agar ushbu qonunbuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, shuningdek taqdimnoma kiritilgan kundan e'tiboran bir yil ichida ekstremizm belgilari mavjudligi haqida dalolat beruvchi yangi faktlar aniqlansa, prokurorning yoki ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organi boshqa mansabdor shaxsining taqdimnomasiga asosan yuridik shaxsning faoliyati olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib turiladi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarori bilan taqiqlanadi.

Ekstremistik faoliyat amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida o'ziga taqdimnoma kiritilgan shaxs undan norozi bo'lgan taqdirda, ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuqori turuvchi davlat organiga, uning mansabdor shaxsiga yoki sudga ushbu taqdimnoma ustidan shikoyat qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasining hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikasiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish va namoyish etish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, tayyorlanayotgan, saqlanayotgan, tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan, shuningdek ommaviy axborot vositalarida yoki telekommunikasiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan materiallar qonunchilikda belgilangan tartibda ekstremistik materiallar deb topiladi.

Ekstremistik materiallar, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilari belgilangan tartibda yo‘q qilinishi yoki olib tashlanishi kerak. Ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikasiyalar tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirilgan ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini yo‘q qilish yoki olib tashlash imkoni bo‘lmaganda ulardan foydalanish cheklanadi.

Ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organining ekstremistik materiallarni yo‘q qilish, olib tashlash yoki ulardan foydalanishni cheklash to‘g‘risidagi talabining telekommunikasiya tarmoqlariga va Internet jahon axborot tarmog‘iga kirish bo‘yicha xizmatlar taqdim etuvchi shaxs tomonidan bajarilmaganligi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat organlari hamda boshqa subektlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan davlat organlari ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikda berilgan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ekstremistik faoliyatni amalga oshirganlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Shaxs ekstremistik faoliyatda ishtirok etishni o‘z ixtiyori bilan rad etgan, bu haqda tegishli davlat organlariga xabar bergan hamda og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining va ekstremistlarning maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq javobgarlikdan ozod etiladi.

Tashkilotlar ekstremistik faoliyatni amalga oshirganlik uchun tugatiladi, ularning faoliyati esa taqiqlanadi.

Tashkilotni tugatish sudning qarori asosida amalga oshiriladi.

Ekstremistik tashkilot deb topilgan tashkilot tugatilganda unga tegishli mol-mulk musodara qilinadi hamda davlat mulkiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yhatga olingan mintaqaviy, xalqaro yoki xorijiy tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ekstremistik tashkilot deb topilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududida mazkur tashkilotning (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasining) faoliyati taqiqlanadi hamda bu tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) tugatiladi, unga (uning bo‘linmasiga, filialiga, vakolatxonasiga) tegishli bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mol-mulk esa musodara qilinadi hamda davlat mulkiga o‘tkaziladi.

Mintaqaviy, xalqaro yoki xorijiy tashkilotning (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasining) faoliyatini taqiqlash:

belgilangan tartibda akkreditasiyani bekor qilishga;
chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mazkur tashkilot vakillari sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishini taqiqlashga;

O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday moliya-xo'jalik faoliyatini yoki boshqa faoliyatni yuritishni taqiqlashga;

ommaviy axborot vositalarida ushbu tashkilot nomidan har qanday materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududida e'lon qilishni taqiqlashga;

taqiqlangan tashkilotning materiallarini, shuningdek uning materiallarini o'z ichiga olgan axborot mahsulotini O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatishni taqiqlashga;

ommaviy tadbirlar o'tkazishni, shuningdek ular taqiqlangan tashkilot vakillarining ishtirok etishini taqiqlashga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining mintaqaviy, xalqaro yoki xorijiy tashkilotni (uning bo'linmasi, filiali, vakolatxonasini) ekstremistik tashkilot deb topish, O'zbekiston Respublikasi hududida uning faoliyatini taqiqlash, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bunday tashkilotning bo'linmasi, filiali, vakolatxonasi faoliyatini tugatish to'g'risidagi qarori ko'chirma nusxasini olgan kundan e'tiboran tegishli chet davlatni bu haqda taqiq sabablari va taqiq bilan bog'liq oqibatlarni ko'rsatgan holda diplomatik kanallar orqali belgilangan tartibda xabardor qiladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Sakinah dasturi haqida ma'lumot bering?
2. Syamin-2015 haqida ma'lumot bering?
3. Ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar haqida ma'lumot bering.
4. Ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari haqida ma'lumot bering.
5. Ekstremizmga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qaysilar?

14-MAVZU: VIJDON, E'TIQOD ERKINLIGI VA DINIY TASHKIOTLAR

1. Vijdon va erkinligining o'zaro farqli jihatlari. Bugungi kunda shakllanib hayotga tadbiiq qilingan inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqqa ko'ra davlatlar inson huquqlari va ularni asosiy erkinliklarini hurmat qilishga, shu bilan birga, hamma uchun birdek, hech-qanday kamsitishlarsiz, amal qilinishini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda keltirilgan normalar davlatlarning inson huquqlari sohasida o'z milliy qonunchiligini ishlab chiqishi va qabul qilishida namuna vazifasini o'taydi.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham din masalasi o'z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la mos keladi. Qaysidir dinga e'tiqod qiluvchi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi huquq va majburiyatlar belgilanishini ta'minlovchi Konstitutsiyaning 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”⁵⁸.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 18-moddasida “Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega”⁵⁹, deb qayd etilgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18-moddasida ta'kidlanganidek, “Ushbu huquq o'z ixtiyori bilan o'ziga ma'qul dinni qabul qilish va e'tiqod qilish erkini, yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda ibodatga borish, diniy va boshqa urf-odatlarini va marosimlarni bajarish

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 13.

⁵⁹ Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси // Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Инсон ҳуқуқлари бўйича универсал шартномалар / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: “Адолат”, 2002. – В. 51.

erkinligini ham o‘z ichiga oladi”⁶⁰. BMTning asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklarini irqiy, jinsiy, lisoniy, milliy, diniy mansubligi yoxud sog‘ligi holatidan qat’i nazar barcha uchun rivojlantirish, inson qadr-qimmatini va hurmatini ta’minlash hamda bu yo‘ldagi murosasizlik ko‘rinishlariga qarshi kurashishga doir vazifa va majburiyatlar bayon etilgan. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar jahon hamjamiyatining har bir a‘zosini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qaror toptirish, demokratiya va huquq tantanasi uchun bag‘rikenglik bilan sa’yuharakat qilishga da’vat etadi. YuNESKO tomonidan 1995 yil 16 noyabrda e‘lon qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari deklarasiyasida bayon etilganidek, “Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolasizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishni, o‘z iymon e‘tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e‘tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o‘z e‘tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim”⁶¹.

2. Diniy tashkilotlar tushunchasi Ushbu xalqaro-huquqiy andozalar 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va uning asosida keyingi yillarda ishlab chiqilgan milliy qonunlarga implementasiya qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston o‘zini “dunyoviy davlat” deya e‘lon qildi va Konstitusiya orqali buni mustahkamladi. “Dunyoviylik” tushunchasi zamirida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili mujassamdir. Shu bilan birga, davlat dindorlarning haq-huquqlarini kafolatlash majburiyatini ham o‘z zimmasiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasiga ko‘ra, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l

⁶⁰ Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт // Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Инсон ҳуқуқлари бўйича универсал шартномалар / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: “Адолат”, 2002. – Б. 61.

⁶¹ Бағрикенглик тамойиллари декларацияси// ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари: тўплам / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: “Адолат”, 2004. – Б. 91.

qo'yilmaydi" ⁶² . Din, vijdon va dunyoqarash erkinligi borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan ushbu choralar nafaqat O'zbekistonda yashovchi turli millatga mansub fuqorolar o'rtasida do'stona munosabatlarni mustahkamlashda, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda ham o'z samarasini bermoqda. Siyosiy barqarorlik esa, jamiyat tinchligi va taraqqiyotini ta'minlashdagi muhim omillardan biridir. Zero, har qanday mamlakat o'z siyosiy tizimini shakllantirib, hayotga joriy etishda bag'rikenglikni ta'minlovchi omillardan keng foydalanishga harakat qiladi. Shulardan biri esa diniy bag'rikenglikdir. Din va uning bag'rikenglik xususiyati insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida, ma'naviy-madaniy hayotning rivojida asosiy omillardan biri bo'lib kelgan. Shu boisdan din barcha mamlakatlar va jamiyatlarning siyosiy barqarorligini ta'minlashga, ma'naviy-madaniy, hattoki iqtisodiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan"⁶³.

Mamlakatimizda mazkur konstitusiyaviy norma negizida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun ⁶⁴ qabul qilingan. O'zbekiston Konstitusiyasi va milliy qonunchilikda kafolatlangan vijdon va e'tiqod erkinligi barcha fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarni yaratdi. O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri – bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqaroviy o'zaro ahillikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Ma'lumki, O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu tashabbuslarning zamirida "Jaholatga qarshi – ma'rifat"

⁶² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – Б. 13.

⁶³ Xo'jamurodov I.R., Yoqubov Y.M. Islom: jamiyat va shaxs. – Toshkent: Falsafa va huquq institute nashriyoti, 2007. – B. 89.

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда

shiori o‘z mujassamini topgan. Davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”⁶⁵ doirasida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida, jumladan din va e‘tiqod erkinligini ta‘minlash borasida samarador islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Birinchiidan, dindorlarning muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishi borasida ularga zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ishlar natijadorligi oshdi. Xususan, 1991 yilda 350 kishi Haj ziyoratini amalga oshirgan bo‘lsa, 2018 yilda ularning soni 7 ming 350 nafarga yetib, dastlabki ko‘rsatkichdan 21 barobarga ortdi⁶⁶. Umra safari bilan bog‘liq barcha tashkiliy cheklovlar olib tashlandi. Ikkinchiidan, mamlakatimiz hududida yashovchi nasroniy va yahudiylar o‘zlari uchun muqaddas bo‘lgan qadamjolarini ziyorat qilishlari borasida ham bir qator qulayliklar yaratildi. O‘tgan davr mobaynida ikki mingdan ortiq dindorlar Rossiya, Gresiya va Isroil davlatlarida joylashgan shunday ziyorat maskanlariga safar uyushtirishdi.

Uchinchiidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Konfessiyalar ishlari bo‘yicha kengashi a‘zolari soni 9 dan 17 nafarga kengaytirilib, mamlakatimizda ro‘yhatdan o‘tgan barcha konfessiya vakillarini qamrab oldi. Xususan, Konfessiyalar ishlari bo‘yicha kengashining yangi a‘zolari sifatida, kam sonli bo‘lishiga qaramay, “O‘zbekiston Injil jamiyati”, “Yettinchi kun nasroniy adventistlar”, “Krishnani anglash”, “Iyegova guvohlari” kabi tashkilot vakillari qayd etildi. Mazkur Kengashning asosiy vazifasi diniy-ijtimoiy masalalar borasida fikr almashish va zarur tavsiyalarni Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaga taqdim etishdan iborat. Bu esa mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha din vakillari mulohazalari hukumatning e‘tibor markazidaligidan dalolat beradi.

⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

⁶⁶ Аҳмедов Т. Динлар бир-бирига қарши эмас ва терроризмни фақат динга боғлаш нотўғри / <http://uza.uz/09.04.2019>.

To‘rtinchidan, jamiyatda ekstremistik g‘oyalarning ta‘sirini kamaytirish maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida turli profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Birgina 2018 yilning o‘zida 40 mingga yaqin tadbir tashkil etilib, unda 2,5 milliondan ortiq aholi qamrab olindi.

Beshinchidan, keyingi ikki-uch yil oralig‘ida diniy ekstremistik guruhlarga aloqasi bor, deb nazoratga olingan 20 mingdan ziyod fuqaro “maxsus hisoblar”dan chiqarildi. Mazkur shaxslarning jinoyat yo‘liga qayta kirmasligi, sog‘lom hayot kechirishi masalalariga va ularning ijtimoiy moslashuviga katta e‘tibor qaratilmoqda⁶⁷.

Oltinchidan, mamlakatda 2017 yilning o‘zida Imom Termiziy va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom sivilizasiyasi markazi va O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Yettinchidan, davlat rahbarining 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda⁶⁸ bildirgan takliflariga ko‘ra viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida va tasavvuf ilmlarini o‘rganishga ixtisoslashtirilgan 5 ta ilmiy maktab ochildi. Ushbu ma‘rifat markazlari endilikda boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu yo‘l orqali aholining diniy radikallashtirishining oldi olinib, o‘zaro hamjihatlik muhitini qaror toptirish ko‘zda tutilgan.

Xususan, 2017 yil 8 noyabrda Samarqand viloyatida Kalom ilmi maktabi, 10 noyabr kuni Qashqadaryo viloyatida Aqida ilmi maktabi va Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband Tasavvuf ilmi maktabi hamda 13 noyabr kuni Farg‘ona viloyatida Islom huquqi maktabi, 2018 yil 16 aprelda Samarqand viloyatida Hadis ilmi maktabi⁶⁹ ish boshladi. Bu ilmiy maktablarning faoliyatidan ko‘zlangan

⁶⁷ Ахмедов Т. Динлар бир-бирига қарши эмас ва терроризмни фақат динга боғлаш нотўғри / <http://uza.uz/09.04.2019>.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи / <http://uza.uz/15.06.2017>

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳадис илми мактаби фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси – lex.uz/docs/4033921.

asosiy maqsad islom dinini chuqur o'rganish va uning ma'rifatparvar g'oyalarini keng jamoatchilikka, shu jumladan, oddiy fuqarolarga sodda tilda yetkazishdir. Sakkizinchidan, 2018 yil 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni⁷⁰ qabul qilindi.

To'qqizinchidan, O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi.

O'ninchidan, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish, qayta ro'yhatdan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi⁷¹. Nizomda diniy tashkilotlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish uchun olinadigan davlat bojining miqdori 5 baravarga qisqartirilgan, diniy tashkilotlarning ro'yhatga oluvchi organlarga faqatgina bir yilda bir marotaba hisobot berishi tartibi belgilangan. Bundan tashqari, Hukumatning yuqoridagi qarori bilan ro'yhatga oluvchi organning diniy tashkilotni tugatish bo'yicha vakolati bekor qilindi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi tayyorlangan.

O'n birinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 yanvarda qabul qilingan "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qaroriga 2019 yil 19 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi⁷². Xususan, O'zbekiston hududida muomalada bo'lishi taqiqlangan diniy mazmundagi materiallarning ro'yhati bundan buyon Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan har yili, kamida ikki marta tuziladi. Shu bilan birga, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish yoki tarqatish uchun

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси – lex.uz/docs/3686277

⁷¹ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.06.2018 й., 09/18/409/1296-сон.

⁷² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2019 й., 09/19/335/2971-сон.

Din ishlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladigan hujjatlarning ro'yhati qayta ko'rib chiqildi. Endi bunday materiallarni tayyorlash uchun ham, ularni olib kirish yoki tarqatish uchun ham ro'yhatdan o'tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi talab etilmaydi.

O'n ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi diniy ta'lim masalasida Norvegiya, Daniya, Niderlandiya, Italiya, Finlyandiya, Gresiya, Belgiya va AQSH tajribasini o'rganib chiqqan. Vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash sohasida olib borilayotgan davlat siyosati masalalarini tushuntirib beruvchi bosma va videomahsulotlarni tayyorlash borasida ishlar olib borilgan. Xususan, 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Dunyo dinlari tarixi" darsligi tayyorlandi.

Diniy-ma'rifiy sohada erishilayotgan bu kabi yutuqlar, bir tomondan, xalqni mamnun qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Dunyo aholisining 83 foizi e'tiqod erkinligi cheklanayotgan yoki xavf ostida qolgan mamlakatlarda istiqomat qilayotgan hozirgi qaltis zamonda O'zbekiston Prezidentining ma'rifatli islom g'oyalarini targ'ib qilish borasidagi tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan qizg'in kutib olinmoqda. Xususan, 2018 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyusiya qabul qilindi⁷³. Natijada AQSH Davlat departamenti diniy erkinlik sohasida "alohida tashvishlantiruvchi" mamlakatlar ro'yhatidan O'zbekistonni chiqardi. Ushbu rezolyusiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 12 syentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasi minbaridan ilgari surgan xalqaro tashabbuslardan biridir. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat.

Rezolyusiyada ma'rifatparvarlik g'oyasini ilgari surish qayd etilib, sayyoramizda xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi integrasiya, o'zaro hurmat, inson huquqlari himoyasi, murosa va o'zaro anglashuvning nechog'li muhimligi e'tirof etiladi. Hujjatda dinlar,

⁷³ Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг А/RES/73/128-рақамли "Маърифат ва диний бағрикенглик" резолюцияси // БМТ Бош Ассамблеясининг 73-сессиясида қабул қилинган. 2018 йил 10 декабрь.

madaniyatlar va konfessiyalararo munosabatlardagi uygʻunlikni ragʻbatlantirish hamda ayrim shaxslarga nisbatan din va eʼtiqod zamiridagi kamsitishlarga yoʻl qoʻyilishiga qarshi kurashishga qaratilgan barcha xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar qoʻllab-quvvatlanishi, shuningdek, barcha aʼzo davlatlarning fikr, vijdon, din yoki eʼtiqod erkinligini himoya qilish va ragʻbatlantirishga doir saʼy-harakatlarini faollashtirish koʻrsatib oʻtilgan

Bu borada 2018 yil 24-26 iyul kunlari AQSH poytaxti – Vashington shahrida boʻlib oʻtgan Diniy erkinlik larni taʼminlash boʻyicha vazirlar konferensiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur tadbir Amerika keng jamoatchiligi va ommaviy axborot vositalarining alohida eʼtiborida boʻldi. Chunki, birinchidan, bu mavzudagi nufuzli anjuman AQSH tarixida ilk bor tashkil etilgan boʻlsa, ikkinchidan, unda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan qariyb 600 nafar vakil – tashqi ishlar vazirlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, diniy rahnamolar va fuqarolik jamiyati faollari qatnashdi. AQSHning sobiq Davlat kotibi Maykl Pompeoning taklifiga binoan tashkil etilgan konferensiyada Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Oʻzbekiston Respublikasi delegatsiyasi rahbari anjuman ishtirokchilariga Prezident Sh.M.Mirziyoyevning: “Aynan taʼlim va maʼrifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka daʼvat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli boʻlishga undaydi”⁷⁴, degan daʼvatining tub mohiyati va bu boradagi tashabbuslarining ahamiyati haqida atroflicha soʻzlab berdi. Vashington konferensiyasi ishtirokchilari Oʻzbekiston Prezidentining bu borada qabul qilgan muhim qarorlari AQSH sobiq prezidenti Donald Trampning Ar-Riyodda Ekstremistik ideologiyaga qarshi kurash boʻyicha Global markaz taʼsis etish toʻgʻrisidagi gʻoyasi bilan hamohang ekanini eʼtirof etdilar. Eng muhimi, Oʻzbekiston rahbariyatining jamiyatni modernizasiyalash va erkinlashtirish jarayonini izchil davom ettirish masalasiga qatʼiy yondashayotgani va bu borada taʼsirchan hamda samarador chora-tadbirlarni amalga oshirayotgani tufayli

⁷⁴ Саидов А. Ўзбекистон – дин ва эътиқод эркинлигининг янги даврида // <http://uza.uz/> 06.08.2018.

mamlakatimiz Washington anjumanida yuksak baho olgan yagona davlat bo'ldi. AQSH sobiq Davlat kotibi M.Pompeo konferensiyani ochar ekan, qachonki diniy erkinlik ravnaq topsa – mamlakat ravnaq topishini qayd etib, bunga O'zbekistonni yorqin misol sifatida keltirdi. “Biz O'zbekistonning yanada erkin jamiyat barpo etish yo'lidagi odimlarini qutlaymiz. Ishonchimiz komilki, diniy erkinlik to'g'risidagi farmon mamlakatga, uning jamoatchiligiga, umuman, mintaqaga ilgari kuzatilmagan darajada izchil ijobiy samaralar keltiradi”, dedi AQSH Davlat kotibi. O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari 2018 yil 25 iyul kuni Vashingtondagi Milliy matbuot klubida “O'zbekistonda diniy erkinliklarning yangi davri” mavzusida maxsus brifing o'tkazdi. Ular brifing qatnashchilariga mamlakatda diniy erkinliklarni ta'minlash va ma'rifiy islom g'oyalarini targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni taqdim etdilar. Brifingda Amerika tomonidan – Global jalb etish instituti prezidenti J.Chen qatnashdi. U Vashingtondagi Vazirlar konferensiyasi doirasidagi muloqotlarda turli mamlakatlar vakillari asosan dunyo miqyosida diniy murosasizlik negizidagi ta'qiblar ko'payib, aksincha, bu boradagi erkinliklar tobora qisqarib borayotganiga e'tibor qaratganini ta'kidlar ekan, shu asnoda “O'zbekiston bu sohadagi yagona umid shu'lasini va ezgu yangiliklar manbaiga aylangani”ni e'tirof etdi.

Shu o'rinda 2017 yil kuzida O'zbekistonga tashrif buyurgan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid O'zbekistonda diniy sohada olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashini bildirganini ham alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. BMT Maxsus ma'ruzachisi A.Shahidning O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida 2018 yil 4 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining qo'shma qarori bilan din yoki e'tiqod erkinligini ta'minlash yuzasidan “Yo'l xaritasi” tasdiqlangan. Shuningdek, “Yo'l xaritasi” ijrosining borishi yuzasidan monitoring o'tkazuvchi ishchi guruhi faol ishlamoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish masalalariga davlat siyosatining va xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayotganining yaqqol dalolatidir. Xulosa qilib aytganda, dunyo ahli bugun insoniyat taraqqiyotining keskin burilishlar ro'y berayotgan tarixiy bosqichida yashamoqda. Globallashuv asrida jahonda tinchlik o'rnatishning eng muhim tamoyillaridan biri diniy bag'rikenglik hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, har bir insondan e'tiqodida mustahkam bo'lgan holda boshqa dinlar, boshqa e'tiqod va an'analarni ham o'rganishni taqozo etadi. Bugungi kunda insoniyat jiddiy ahamiyat berishi talab etiladigan muhim narsalardan biri qadriyatlardir. U oilada, maktabda, ko'chada, ish joyida, yoyinki ijtimoiy hayotning har bir jabhasida bag'rikenglikning zarurligi bugun tobora yorqinroq namoyon bo'lib bormoqda. Bag'rikenglik, bu biz bilan yonma-yon yashayotgan odamlar orasida sog'lom muloqot qilish uchun zarurdir. Bu esa, ishonch asosidagi hurmat hukmronlik qiladigan optimistik hayotni barqarorligini ta'minlovchi asosiy elementdir.

Hozirda Yer yuzining har bir mintaqasida keng ko'lamli globallashuv jarayonlari kechayotgan bir vaqtda o'zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning umuminsoniy qadriyatlarga nechog'lik mosligini ko'zatish imkonini beradi. Qolaversa, xalqimizning qadimiy an'analar, amaliy urf-odat va marosimlarga ega bo'lishi o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligini ko'rsatib turadi⁷⁵.

Dunyoviy jamiyatda hamma sohalar, xususan din ham qonunlar bilan reglamintlashgan bo'ladi. O'zbekiston kabi ko'p konfessiyali mintaqada esa bu alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shunga ko'ra dunyoviy davlatda yashayotgan dindorlar bir tomondan diniy e'tiqod egalari sifatida o'zlari uchun muqaddas bo'lgan ibodat marosimlarini ado etib diniy vojibotlarini amalga oshirsalar, ikkinchi tomonda mazkur diniy amallarni bajarilishi qonun doirasida bo'lishi tinchlik va hamjihatlik ta'minlanishi asosi bo'ladi.

⁷⁵ Ashurov A. Atajanov Sh. Etnologiya. – Toshkent.: “Iqtisod-molya”, 2008. – B. 140.

Diniy madaniyatning muhim belgilaridan biri bu bag‘rikenglik fazilati hisoblanadi. Inson o‘z dini arkonlarini bajarishga harakat qilib yashashi uni ezgulikkka intilishini anglatadi. Agar u bu bilan birgalikda jamiyatdagi turli konfessiya vakillariga bag‘ri keng munosabatda bo‘lsa insoniylikning yuqori cho‘qqisida ekanligini belgilaydi.

Diniy mavzuni yoritishda bag‘rikenglik (tolerantlik), sabr-toqatlilik, inson, jamiyat, dunyo haqidagi qarashlarning o‘zaro muhohasasi usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Diniy va nodiniy dunyoqarash shakllarining o‘zaro o‘xshash tomonlariga urg‘u berish darkor⁷⁶. “Din odamlardan ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan. Umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam berib kelgan. Ba’zi vaqtlarda esa buning birdan bir chorasi bo‘lgan”⁷⁷.

O‘zbek xalqi ongida uzoq yillar davomida rivojlangan bag‘rikenglik an‘analari hozirgi vaqtda konfussiyalararo sog‘lom muloqotni barqarorlashtirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda din sohasiga qaratilgan siyosat O‘zbekistonning 2017 yilga qadar olib brogan siyosatidan boshqa ko‘rinishga ko‘chganligini ko‘rish mumkin. Mustaqillikning ilk yillarida dinga, xususan islom diniga milliy qadriyat sifatida qaralgan edi. Keyingi davrda esa ma’naviy va axloqiy norma sifatida munosabatda bo‘lindi. Bugunga kelib esa dinga ijtimoiy-siyosiy tomondan yondashilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi jahonga yuz tutayotgan bugungi kunda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishishi muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekistonda din mamlakatdagi madaniy-ma’naviy an‘analarning ajralmas qismi va aholi ma’naviy kamolotining asosi sifatida qaraladi.

Din o‘z oldiga hech qanday siyosiy maqsad qo‘yishi mumkin emas. Bu me‘yor davlatning dunyoviy bo‘lishi va mamlakatdagi barcha dinlarga nisbatan teng huquqlilik va o‘zaro totuvlikni ta‘minlab

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi Toshkent islom universiteti diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi T.: – 2005. – B. 5.

⁷⁷ Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 53.

berishning garovi bo'ldi"⁷⁸. O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini qayta tiklash va bugungi zamonaviy dunyoga mos ravishda yanada rivojlantirish, bu mintaqadagi qadim davrdan hozirgi kungacha o'tgan mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o'rganish, vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o'zaro munosabatlarini bilishi respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston aholisi, ayniqsa yoshlar dinga berilgan bunday erkdan to'g'ri foydalanishlari, ayni vaqtda barcha xatti-harakatlar vijdon erkinligi doirasida bo'lishi lozim. Ya'ni, diniy mutaassiblikka berilmasliklari va o'zga din kishilariga nisbatan toqasizlik qilmasliklari zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, bu yurt bizniki, bu yurtning egasi bizmiz va bu tuproqlarda tinchlik-osoyushtalik barqaror bo'lishiga biz mas'ulmiz ruhida bo'lishlari kerak bo'ladi. Ana shunday bo'lgandagina diniy e'tiqod, uning qadriyatlarining shaxs kamolotini shakllantirishdagi o'рни orta boradi. Jamiyat esa, barqarorlik, bahamjihatlik, tinchlik saqlagan holda shaxs va jamiyat munosabatlarida o'zaro hamkorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar shakllanishi bilan taraqqiyotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu tariqa din ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyat istiqbolida siyosiy barqarorlikni ta'minlashga munosib hissasini qo'shadi⁷⁹.

Jamiyatning har bir a'zosi boshqalarning fikri va xatti-harakatlariga toqat qilishi, atrofdagilardan chiqadigan turli g'oyalarni qadrlashi va bag'rikenglik bilan muomalada bo'lishi jamiyat a'zolarining bir-biriga yaqinlashishiga imkon beradi. Bularning aksi esa xudbinlik, mutaassiblik va qat'iyasizlik o'zga din, millat yoki o'zidan pastdagi ijtimoiy qatlamdagilarni kamsitishga olib keladi va bu jamiyatda ijtimoiy notinchlikni keltirib chiqaradi⁸⁰.

⁷⁸ Sirojiddinov Sh. Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – B. 109.

⁷⁹ Xo'jamurodov. I. Yoqubov. Y. Islom: jamiyat va shaxs. – T.: Falsafa va huquq institute nashriyoti, 2007. – B. 92-93.

⁸⁰ Ashikog'lu, "Bag'rikenglik va bag'rikenglik tushunchalari to'g'risida", – B. 43.

Bag‘rikenglik bugungi zamonaviy dunyoda hamma uchun umumiy bo‘lgan ko‘pgina dolzarb sosial-gumanitar muammolaridan biri hisoblanadi. Aytish kerakki, ilmiy kontekstda bag‘rikenglik xalqlar va millatlar orasidagi do‘stona munosabatga bo‘lgan zaruriyat bilan izohlanadi. Bugungi, globallashuv jaroyoni shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda dolrabligi juda yuqori ekanligiga qaramasdan to‘liq e‘tibor berilmagan insoniyatning oldida turgan muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Bag‘rikenglik tamoyiliga asos qilib qo‘llanadigan tahliliy yondashuvlardan yuzaga chiqadiki, bag‘rikenglik o‘z ichiga olgan mazmuniga ko‘ra ilmiy tadqiqodchilar unga nisbatan hali hanuz bir fikrga jamlana olganlari yo‘q. shunga asoslangan holda bugungi kunda bag‘rikenglik fenomenining mohiyatini ochib berishga qaratilgan rosional, an’anaviy va yakka tartibdagi qarashlar rivojlangan.

Bag‘rikenglik tamoyillarini asoslariga bo‘lgan ilk qarashlarga ega bo‘lgan Dj. St. Millning bir-biridan tubdan farq qiladigan hayot tarzlarini bir maskanda, hamkorlikda yonma-yon yashashi hayot taqozosi ekanligi haqidagi konsepsiya’n misol sifatida ko‘rsatsak bo‘ladi⁸¹. Boshqa, ba’zi g‘arb olimlari bag‘rikenglikni hamma uchun umumiy majburiy qadriyatligiga shubha bilan qaraydiganlari ham bor. Ularga misol tariqasida A.Makintayerni ko‘rsatish mumkin. U aytadiki, bugungi global zamon madaniyatida mutlaq ma’naviy va axloqiy birlikka erishishning hech bir kafolati mavjud emas⁸².

Bag‘rikenglik muammosining subyektiv talqinlari borasida so‘z yuritilganida, fransuz personalist olimi E.Munenning fikrlari e‘tiborlidir. Tadqiqodchi o‘zgalarga nisbatan munosabatda bag‘rikenglik ko‘rsatishga bo‘lgan insondagi ichki ma’naviy asoslarga urg‘u berishni taklif qilganligini keltirgan⁸³.

Bu borada U. Kushayev ham o‘z tadqiqotida: Bag‘rikenglik tushunchasining mazmuni uning mantiqiy ziddi bo‘lgan “nobag‘rikenglik”, ya’ni intolerantlik bilan qiyoslash orqali uning

⁸¹ Nikol’son.P. Tolerantnost kak moral’niy idial. // Tolerantnost. Vestnik Uroloksogo mejregionalnovo instituta obshestvennix otnasheniy. – 2002. – B. 101.

⁸² Makintayer A. Posle dobrodeteli. – M.: Ideya – Press. Dom intellektualnoy knigi, 2000. – 160 S.

⁸³ Kushayev U. Jahon dinlarida bag‘rikenglik g‘oyalarining uyg‘unligi. – B. 21.

mohiyatini ochib berishni va namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan.

Ma'lumki, insoniyat tarixi bag'rikenglik (tolerantlik) va nobag'rikenglikning jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga xos bo'lib kelayotgan hodisalardan ekanligidan dalolat beradi. Chunki jamiyat hayoti doimo mazmun va shakl jihatidan bir-biridan farq qiluvchi manfaatlardan iborat bo'lgan. Lekin o'z qarash va pozitsiyasini mutlaqlashtirish, o'zgacha, boshqacha, muqobil fikr va yondashuvlarga nisbatan toqasiz munosabatda bo'lish mohiyatiga ko'ra bag'rikenglikka teskari bo'lgan toqasizlikni keltirib chiqaradi.⁸⁴ Jamiyatda shakllanadigan bag'rikenglik tushunchasi har doim va har bir jamiyatda mavjud bo'lgan. Faqat o'zini namoyon qilaolishi bir xil bo'lmagan.

Bag'rikenglikni ziddi bo'lgan "toqasizlik" oddiy qo'pollikdan boshlab, boshqalar manfaatlarini hisobga olmaslik, qasddan nizo chiqarish, hatto jamiyatdan siqib chiqarishga urinish bilan izohlash mumkin. Ko'pgina jamiyatlarda shaxslar o'rtasidagi fikrlarning farqliligi darhol prinsipni ajratishga aylanadi, unda ikkala tomon ham boshqa tomonning noto'g'ri ekanligini iddao qiladi. Aksar hollarda bu mojarolar zo'ravonlikka va kuch ishlatilishiga olib keladi⁸⁵. Bu holat har bir millat, irq va dinlarda kuzatilishi mumkin. Buni oldini olishda qo'llaniladigan eng samarali choralar esa mazkur birlashtiruvchi unsurlar o'z a'zolarini boshqalarga nisbatan bag'rikeng bo'lishga undashi yaxshi vosita bo'lib xizmat qilishidir⁸⁶.

O'zbekistonda millatlararo munosabatni faqatgina ma'naviy-axloqiy emas, balki qat'iy qonuniy asoslarga ham egadir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqining millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkel etadi"⁸⁷, deb belgilangan. Shu bilan birgalikda 1995 yilda Birlashgan millatlar Tashkilotining "Irtiy diskriminasiyaning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya" ni ratifikassiya qilingan. Aytib

⁸⁴Shu manba. – B. 28.

⁸⁵Bertran Rassel, Savol beruvchi insholar, tarjima: Nermin Arik, 7-nashr, TUBITAK Pub. – Anqara 1997. – B. 117.

⁸⁶Muhammad B. Abdulkarim al-Shahristoni, al-Milal va'n-Nihol, Bayrut 1975, – B. 38-39.

⁸⁷O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston". 2015. – B. 5.

o'tish joizki, bugungi kunda O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat, elat vakillari ta'lim, va diniy erkinliklari qonunan kafolatlangan. Hozirda O'zbekistonda bir necha tillarda, masalan, o'zbek, qoraqalpoq, tojik, turkman, qirg'iz, rus kabi hammasi bo'lib 7 tilda darslar olib borilmoqda⁸⁸.

Bunga qo'shimcha tarzda keltirib o'tish kerakki, bugungi kunda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar va elatlarga ommaviy axborot vositalari orqali o'z shaxsiy fikr mulohazalarini erkin bayon qilish imkoniyatlari ham kundan-kunga kengaytirib borilmoqdaki, bu ishlar O'zbekistonning inson huquqlari ta'minlangan va bag'rikenglik miyorlariga to'la mos siyosat yuritilayotganidan darak beradi.

Turli dinlar va konfessiyalar orasidagi o'zaro munosabatni ijobiy shakllantirish hamda bunda barqarorlikka erishish borasida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati yuqoridir. Bugungi kunda dinlar orasida sog'lom munosabatni rivojlantirish va uni rag'batlantirib borish sivilizasiyalararo ijobiy muhit shakllanishida ahamiyat kasb etadi.

Barcha diniy jamoalar jamiyat va insoniyat oldidagi burch va ma'suliyatlarini to'la his qilgan holda, hamma uchun manfaatli g'oya ustida birlashib, adolatni ta'minlash, turmush farovonligini ko'tarish, insonlar va millatlar orasida totuvlikni barqarorlashtirish kabi ezgu vazifasiga yo'naltirishlari bugungi kunda har doimgidan ham zaruriydir.

Mustaqillikning ilk davridan boshlangan diniy hayotni qonuniy asosda tashkillashtirish, O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy tomondan bo'linmas bir bo'lagi bo'lgan boshqa diniy konfessiyalar faoliyati uchun mamlakatni asosiy ko'pchiligini tashkil qiladigan aholi bilan teng imkoniyat yaratish borasida namunaviy ishlar qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konsituziyasida mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar teng huquqliligi va ularning vijdon erkinligi kafolatlanganligi ko'rsatilgan. Ilk bor 1994 yil, keyinroq esa, yangidan 1998 yilda tahrirlangan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

⁸⁸ Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

to'g'risida"⁸⁹ qonun bu boradagi davomli ishlarning qonun bilan mustahkamlanligini asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston siyosatida dinga munosabat mustaqillikning birinchi davridanoq dunyoviylik asosida olib borishini e'lon qildi. Shu bilan birga bu siyosiy pazisiya "Dunyoviylik – dahriylik emas" tamoyiliga tayangan shior asosida belgilandi. O'zbekistonda hech bir din o'z oldiga siyosiy maqsadni qo'yishi mumkin emasligi, O'zbekistonda barcha dinlarga berilgan huquq va erkinlik teng ekanligi, bir dinga boshqasiga nisbatan kengroq huquq berilmasligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida teng huquqlilik va o'zaro do'stona muhit ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.⁹⁰ Shu asosga ko'ra, O'zbekistonda diniy mag'rikenglikka qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston aholisini asosiy ko'pchiligini tashkil qiluvchi musulmonlar bilan birga yana 15 konfessiya ham o'z faoliyatlarini emin-erkin yuritishlariga imkon beradi.

YuNESKO tomonidan 1995-yilda Fransiyada "Bag'rikenglik tamoyillari deklarasiyasi" qabul qilindi. Bu deklaratsiyaning 1-moddasida bag'rikenglik tushunchasiga dunyodagi turli, bir-biridan farq qiladigan boy madaniyatlarni o'zida ifoda qilishi va kishilarning individualligini namoyon qilishning xilma-xil ko'rinishlarini hurmat qilish, do'stona munosabatda bo'lishni anglatadi.

O'zbekistonda diniy konfessiyalar va tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, noqonuniy cheklovlarsiz, emin-erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning sonini xalqni ehtiyojiga ko'ra ko'paytirishga mustaqillikni ilk davridan boshlab katta e'tibor qaratilgan bo'lsa bu boradagi tizimli ishlar keyingi davrlarda ham yanada o'sib borayotganini alohida qayd etish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki bag'rikenglik haqidagi fikr va tavsiyalar diniy e'tiqodga bog'liq bo'lmas ekan u quruq gapdan boshqa narsa bo'lmay qoladi. O'zbekistonda ijtimoiy munosabatlardagi

⁸⁹ Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi, 1998 y.

⁹⁰ Sirojiddinov Sh. Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi. – T.: "Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi", 2010. – B 109.

bag'rikenglikning namoyon bo'lish xususiyatlari esa islom dini nuqtai nazaridan muhim element hisoblanadi.

O'zbekiston aholisining foizini 95⁹¹ foizini musulmonlar tashkil qilishini hisobga olib, islom dinining muqaddas manbalarida bag'rikenglikka qanchalar katta e'tibor qaratilganini ko'rish zarurati paydo bo'ladi. Bu haqda Muhammad payg'ambar (sallallohu alayhi vasallam) dan rivoyat qilingan hadisda: "Kim ahli zimmaga biror zahmat yetkazsa, Qiyomat kuni meni o'zining dushmani sifatida ko'radi" deganlari islomda bag'rikenglik darajasini belgilaydi.

Islom dini ham boshqa ko'pgina dinlar singari, mohiyati ezgulik va insonparvarlik dinidir. Islom dinining ikki asosiy muqaddas manbalari, Qur'oni karim va hadisi sharflarda insonlarni birinchi navbatta axloqiy, ma'naviy komillikka chaqiradi. Unda qon-qardoshlik rishtalarini mustahkam bog'lash, zaif va nochorlarga doimo yordam berish, jamiyat a'zolari bilan do'stona aloqa o'rnatish kabi yuksak darajadagi insoniylikka targ'ib qilinadi. Bugungi globallashuv sharoitida esa jamiyatni birligini ta'minlash, islomning manashunday insonparvarlikka targ'ib qilishidan keng manfaat olinishi kerak bo'ladi. Islom dini ta'limotiga ko'ra kishi o'zi yaxshi ko'rgan narsasini boshqalarda ham bo'lishini xohlamasligi uni komil musulmonlik darajasiga yitolmasligiga sabab bo'ladi. Shundayki, bu kabi insonparvar, ezgu amallar borasida musulmon ommasi uchun Muhammad payg'ambar (sallallohu alayhi vasallam) o'rnakdirlar. Islom ta'limotlariga ko'ra Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)ni qilib o'tgan amallariga ergashish, musulmonlar uchun diniy ibodat hisoblanadi.

Qur'oni karim kishilarni halollik, sabr-toqatlilik, qatiyatlik, rostgo'ylik, sadoqat, saxiylik, kamtarlik, kishilarga nisbatan marhamatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirishga chaqiradi. Masalan, "Qalam" surasida "Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!"⁹² Maorij surasining 5-oyatida "Bas (Ey Muhammad!

⁹¹ Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. ;TIU nashriyot matbaa birlashmasi, T.: 2014. – B. 28.

⁹² Qur'oni Karim: ma'nolari tarjimasining tarjima va tafsiri / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti". – B. 564.

Kofirlarning aziyatlariga) chiroyli sabr bilan sabr qiling!”⁹³ deyilgan. Moida surasining 32 oyatida esa shunday deyiladi: “Kim bir jonni nohaqdan o‘ldirsa xuddi barcha odamlarni o‘ldirgan kabidir. Unga hayot baxsh etgan odam esa barcha odamlarni tiriltirgan kabidir”⁹⁴ deyilgan.

Musulmonlarga Qur’oni karimda buyurilgani singari, hadisi shariflarda ham jamiyat orasida inson qanday xulqda bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi. Insonlar o‘zaro bir-birlariga adolatli bo‘lishlari, jamiyatni barcha a‘zolariga nisbatan bag‘rikeng munosabatda bo‘lishlari kerakligini o‘qtiradi. Hadis shariflardan birida jumladan shunday deyiladi: “Kimki ezgu ish qilish uchun da’vat qilsa, xuddi o‘sha yaxshi ishni bajargani kabi savobga ega bo‘ladi deyilgan. Boshqa bir hadisda esa “Alloh sizlarning mol-mulklaringiz yoki kiyim-boshingizga qarab emas, balki xulq-atvoringizga qarab ajru mukofot beradi”⁹⁵ deyilgan. Buyuk insoniy xuqlga targ‘ib qiluvchi bunday hadislardan ko‘plab keltirish mumkin.

Islom dini insonparvar, bag‘rikenglikning yorqin dalilidir. Qur’oni karimning Kofirun surasining 6 oyatida shunday deyiladi: “Sizlarning ditingiz sizlar uchun, mening dinim men uchundir”⁹⁶. Bu oyati karima nafaqat islom dinidagilar uchun, balki butun insoniyat uchun davr va zamon tanlamasdan birdik amal qilinishi kerak bo‘lgan insoniyatga tavsiyadir. Birgina sharti esa kishining diniy e‘tiqodi o‘ziga, yoki atrofdagilarga zarar yitkazmasligidir.

Shu narsa ma’lumki, islom sivilizasiyasi kelajakning sivilizasiyasidir. Voqelik shunga dalolat qiladiki, islom dunyosi hozirgi ko‘rinishida turib qolmaydi va mazkur holat doimiy davom etmaydi. Bugungi kun islom olami, ya’n musulmonlarni jiddiy suratdagi ma’suliyati esa o‘zaro birlik, hamjihatlikdir. Shundagina islom sivilizasiyasi butun olamga namuna bo‘larli darajaga ko‘tarila oladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xalqaro hamjihatlik yo‘lida har bir inson jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlaridan

⁹³ Shu manba – B. 568.

⁹⁴ Shu manba 5- sura, 32 oyat.

⁹⁵ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy: 2 – kitob. B 59.

⁹⁶ Qur’oni Karim: ma’nolari tarjimasining tarjima va tafsiri / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muaalifi: Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti”. 109-sura, 6-oyat.

iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag‘rikengliksiz demokratiya asoslari jamiyat tartib-intizomini va inson huquqlarini mustahkamlab bo‘lmaydi. Tinchliksiz ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bulmagani kabi, (tolerantlik) bag‘rikengliksiz ham tinchlikka erishib bo‘lmaydi.

Diniy tashkilot - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko‘maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko‘radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o‘z-o‘zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi. Diniy tashkilotlarning ta’limoti, tarixiy an’analari, diniy uyushmalar tuzilishida tutgan o‘rni va roli turli-tuman bo‘lishi mumkin. Fuqaroning Diniy tashkilotga a’zoliigi uning huquqiy maqomini, jumladan boshqa shaxslar bilan tengligini cheklab ko‘ya olmaydi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi - ularning o‘z-o‘zini boshqarishidir, ya’ni, ular ma’muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. Diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, davlat ularning ichki aqidaviy ishlariga aralashmaydi. Ular o‘z ustav (nizom)lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadirlar. Diniy tashkilotlarning ustavlari ularning tuzilishi, diniy ta’lim va faoliyatning boshqa masalalarini belgilab beradi. Ba’zi Diniy tashkilotlar iyerarxiya tizimida tashkil topgan. Masalan, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O‘rta Osiyo Yeparxiyasi masjidlar, cherkovlar, o‘quv yurtlari, mahalliy tashkilotlar va o‘z boshqaruv organlariga ega.

O‘zbekistan Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (1998) qonunida ta’kidlanganidek, O‘zbekistan Respublikasi fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va b.) Diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi respublika diniy uyushmalari O‘zbekistan Respublikasining Adliya vazirligi

tomonidan ro'yhatga olinadi. Viloyat, tuman va shahar, shaharcha va qishloq hududida bo'lgan Diniy tashkilotlar tegishli viloyatlar, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi adliya boshqarmalari tomonidan ro'yhatga olinadi. Diniy tashkilot ro'yhatga olingandan so'ng u yuridik shaxsga aylanadi. Diniy tashkilot yuridik shaxs sifatida qonunlarga va o'z nizomiga muvofiq holda huquqlardan foydalanadi hamda majburiyatlarni o'taydi. Diniy tashkilot rahbarining tashkilot ustavini ro'yhatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi. Ro'yxatdan o'tmagan Diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Diniy tashkilotlar faoliyati ikki holda: ular o'z nizomlariga muvofiq tugatilganda va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qoidalari yoki boshqa qonun hujjatlariga rioya qilinmaganda to'xtatiladi. Diniy tashkilot faoliyatini to'xtatish haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligining adliya boshqarmalari tomonidan qabul qilinadi. Diniy tashkilotlar qabul qilingan qaror ustidan xalq sudiga shikoyat qilish huquqiga ega, shikoyat fuqarolik ishlarini yurituvchi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqi qonun tomonidan himoya qilinadi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Diniy tashkilotlar haqida ma'lumot bering?
2. Vijdon erkinligi haqida ma'lumot bering?
3. Bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
4. Bag'rikenglik tamoyillari deklarasiyasi qachon qabul qilingan?
5. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi nima?
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan?

15-MAVZU: YANGI O‘ZBEKISTONNING “JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” G‘OYASI ASOSIDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH STRATEGIYASI

1. Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizning turmush farovonligini oshirish, ularning hayot darajasini yanada yuksaltirish, qonun ustuvorligi va fuqarolar xavfsizligini, huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan.

O‘tgan o‘zgarishlar davrida hukumat olib borgan insonparvarlik siyosati tufayli din niqobidagi ekstremistik oqimlar ta’siriga adashib tushib qolgan ko‘pgina fuqarolar hayotlarini yangi sahifadan boshladilar. Prezident Shavkat Miromonovich tashabbuslari bilan har yili e’lon qilinayotgan umumavf jarayonida adashgan fuqarolar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilib, oilalari bag‘riga qaytib, barcha singari o‘z kasbi-kori bilan jamiyatimiz rivojiga hissa qo‘shishga qilmogdalar.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirish rejalashtirilgan davlat Dasturi qabul qilindi. Dasturda muhim vazifalar sifatida xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm va axborot tahdidlariga qarshi kurashish hamda ekstremizm to‘g‘risida qonun qabul qilish, ekstremistik g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitasiya qilish, ularni sog‘lom muhitga qaytarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish masalalari aks etgan.⁹⁷

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida ekstremistik tashkilotlar faoliyatiga aloqadorlikda ayblanib, jazo muddatani o‘tab chiqqan, yashash manziliga qaytib kelgan shaxslarning ijtimoiy

⁹⁷ Ёт ғоялар таъсирига тушиб қолган шахсларни жамиятга мослаштириш, ижтимоий реабилитация қилиш бўйича тавсиялар. / Mas’ul muharrir Z.Isломov, B.Soirov . “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёти, 2020. — 67 б.

moslashuvini ta'minlash bo'yicha 2019 yil 10 yanvarda o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining navbatdan tashqari kengaytirilgan yig'ilishida bergan topshiriqlari ijrosi yuzasidan tegishli ma'naviy marifiy tadbirlar tashkillashtirilgan.

Ijtimoiy himoyaga birinchi navbatda muhtoj bo'lgan fuqarolar (yot g'oyalar ta'siriga adashib tushib qolgan fuqarolar)ga ko'maklashish maqsadida 2019 yil 17 yanvardan boshlab respublika bo'yicha har bir shahar-tuman kesimida huquq-tartibot organi xodimlari, tuman-shahar hokimlari, diniy soha xodimlari – imom-xatib, otinoyi, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi va boshqa mutasaddi idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhlari tuzildi. Mazkur ishchi guruh vakillari bilan hamkorlikda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida ushbu shaxslar bilan suhbatlashildi

Suhbat jarayonida ularning yashash tarzi, muammolari, ehtiyojlari o'rganilib, mahalliy hokimliklar va homiyalar hisobidan insonparvarlik yordamlari ko'rsatildi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, asbob-uskunalar, kitoblar va boshqa tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlandi.

"Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" shiorlari ostida qiynalgan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan va boshqa davlat dasturlarida nazarda tutilgan imtiyozlar taqdim etilishi tashkillashtirildi.

Muhtaram Prezidentimiz muqaddam ekstremistik oqimlar safiga adashib kirib qolgan va maxsus ro'yhatda turgan fuqarolar bilan jamoatchilik asosida har tomonlama tushuntirish ishlarini olib borish orqali ularni mazkur hisobdan chiqarish tashabbusi bilan chiqdilar. Bu insonparvarlik tamoyillariga asoslangan xayrli ishlar qisqa fursatlarda o'z samarasini berdi.

Bunday fuqarolarning oilaviy ahvolini chuqur o'rganish, sog'lom turmush tarziga qaytarish, mahalla hamda jamoatchilik ishlariga jalb qilib, bu borada fuqaroviy faolligini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda tarkibida turli soha vakillari: hokimiyat xodimlari, psixolog, shifokor,

mahalla faollari, profilaktika inspektori, bank xodimlari, bandlik markazi vakillaridan iborat ishchi guruhlarini tuzildi.

Ushbu guruh a'zolarida qisqa muddatda amaliy ko'nikmalar hosil qilish maqsadida 2019 yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va O'zbekiston xalqaro islom akademiyalarida tegishli soha vakillaridan iborat bo'lgan mutaxassislar ishtirokida maxsus malaka oshirish kurslari – o'quv mashg'ulotlari, seminar-treninglar tashkillashtirildi.

Shundan so'ng, ushbu soha vakillaridan iborat guruhlar tomonidan profilaktik hisobda bo'lgan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va muqaddam ekstremistik oqimlar ta'siriga adashib tushib qolgan barcha shaxslarning yashash manzillariga borilib, ularning o'zi, ota-onalari, yaqinlari bilan suhbatlashildi. Oilaviy ahvoli va ularni qiynayotgan mammolar o'rganildi. Ularni hal etish yuzasidan amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Mazkur ishlarning amaliy misoli sifatida respublika bo'yicha jazoni ijro etish muassasalaridan chiqarilgan, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan va profilaktik hisobdagi shaxslarning muammolari o'rganilib, ularni ijobiy hal etish choralari ko'rildi.

Hozirgi kunga qadar aholining eng zaruriy ehtiyojlari bo'lmish uy-joy bilan ta'minlash, uy-joyini ta'mirlash, kredit, ish bilan ta'minlash, tibbiy yordam, maktab, zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish, kommunal to'lovlar (gaz, suv, elektr) qarzdorligi va boshqa shu kabi bir qator muammolari hal etib berildi.

Shuningdek, ushbu shaxslarning farzandlarini jamiyatning faol a'zolariga aylantirishga qaratilgan manzilli umumprofilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida muqaddas qadamjolarimiz joylashgan hududlarga ziyoratga yuborildi hamda turli xil kasbga yo'naltiruvchi markazlar, sport to'garaklariga jalb qilishga erishildi.

Bundan tashqari, yosh avlodni Vatanimiz tinchligi va uning kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalash maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda uyushmagan yoshlar, o'quvchi va talabalarni keng jalb qilgan holda ma'naviy tahdidlardan ogohlik ruhida

tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida targ'ibot-tashviqot tadbirlari tashkillashtirib kelinmoqda.

Bugungi kunda jahondagi tinchlik va barqarorlikka millatlararo va dinlararo ziddiyatlar hamda terrorizm jiddiy havf tug'dirmoqda. Garchi O'zbekistonda mustaqillik yillari millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini saqlash borasida izchil siyosat olib borilgan va bu boradagi ishlar yangi davr talablaridan kelib chiqib davom ettirilib kelinayotgan bo'lsa-da, globallashuv sharoitida xotirjamlikka berilish aslo mumkin emas.

2. “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilining hayotga tatbiq etilishi. 2017 yilning 19 syentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyatiga respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar hamda xavfsizlikka raxna solayotgan muammolarga to'xtalib, diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi so'nggi yillarda kuchayib borayotganligi va unga qarshi kurashishning kuch ishlatish tizimi o'zini oqlamaganligini, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish davr talabi ekanligini alohida ta'kidladi.⁹⁸ Yurtimiz fuqarolariga o'z e'tiqod erkinliklarini emin-erkin amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yot g'oyalar ta'siriga adashib tushib qolib, uzoq yillardan buyon hududiy IIBlar ro'yhatida turgan 18 mingdan ziyod fuqarolar “maxsus hisob”dan chiqarilib, hayotlarini yangitdan boshlashlari uchun keng imkoniyatlar berilmoqda mazkur xayrli ishlar qisqa fursatlarda o'z samarasini bermoqda. Ana shunday fuqarolarning oilaviy ahvolini chuqur o'rganish, sog'lom turmush tarziga qaytarish, mahalla hamda jamoatchilik ishlariga jalb qilib, bu borada fuqaroviy faolligini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda o'tgan qisqa fursatda tarkibida turli soha vakillari: hokimiyat xodimlari, psixolog, shifokor, mahalla faollari, profilaktika inspektori, bank xodimlari, bandlik markazi vakillaridan iborat ishchi guruhlari tuzildi.

⁹⁸ <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutq-sozladi.html>

Ushbu guruh a'zolarida qisqa muddatda amaliy ko'nikmalar hosil qilish maqsadida Toshkent shahridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va O'zbekiston xalqaro islom akademiyalarida tegishli soha vakillaridan iborat mutaxassislar ishtirokida maxsus o'quv-amaliy seminarlar tashkillashtirildi.⁹⁹

Diniy soha xodimlari, manaviyatchi-targ'ibotchilar hamda mutasaddi xodimlardan iborat ishchi guruh respublika bo'yicha mahallalarda turli ekstremistik oqimlar ta'siriga adashib tushib qolgan kishilar, ularning ota-onalari, yaqinlari bilan suhbatlashdi. Oilaviy ahvoli va ularni qiynayotgan muammolari o'rganildi. O'rganilgan muammolarni hal etish yuzasidan amaliy ishlar olib borildi.

Mazkur ishlarning amaliy misoli sifatida respublika bo'yicha jazoni ijro etish muassasalaridan chiqarilgan, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan va profilaktik hisobdagi shaxslarning 15 mingdan ortiq muammolari o'rganilib, ularni ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda.

Shular orasida eng zaruriy ehtiyojlari bo'lmish uy-joy, uy-joyini ta'mirlash, kredit, ishsizlik, tibbiy yordam, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, kommunal (gaz, suv, elektr) to'lovlar qarzdorligi va boshqa shu kabi muammolar hal etish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek, ushbu shaxslarning farzandlarini jamoat ishlariga va dunyoviy turmush tarziga jalb etishga qaratilgan manzilli umumprofilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida jazoni ijro etish muassasalaridan chiqarilgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar farzandlarini muqaddas qadamjolarimiz joylashgan hududlarga sayohatga yuborildi hamda turli hil kasbga yo'naltiruvchi markazlar va sport to'garaklariga jalb qilinishiga erishildi.

Bundan tashqari, yosh avlodni Vatanimiz tinchligi va uning kelajagiga dahldorlik ruhida tarbiyalash maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda uyushmagan yoshlar, o'quvchi va

⁹⁹ Ёт ғоялар таъсирига тушиб қолган шахсларни жамиятга мослаштириш, ижтимоий реабилитация қилиш бўйича тавсиялар. / Mas'ul muharrir Z.Isломov, B.Soirpov . “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёти, 2020. — 70 б.

talabalarni keng jalb qilgan holda ma'naviy tahdidlardan ogohlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida targ'ibot-tashviqot tadbirlari muntazam tashkillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi PF-5542-sonli "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ushbu tashkilotlar safida bo'lgan shaxs va oila a'zolari afv etilib, yashash manziliga qaytarildi.¹⁰⁰

Dunyoning qurolli to'qnashuvlar bo'layotgan hududlari, xususan Suriya va Iroq davlatlaridan o'zbekistonlik fuqarolarni Vatanga olib kelish bo'yicha o'tkazilgan "Mehr-1" va "Mehr-2" operatsiyasi doirasida jami 220 nafar terroristik tashkilotlar saflarida faoliyat olib borgan shaxslar O'zbekistonga qaytarilib, yashash manzillariga yetkazildi.¹⁰¹ Bu kabi operatsiyalar hali hamon davom etmoqda. Yurtimizda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish, ma'rifiy islom ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

2019-yil 4-sentyabrdagi PQ-4436-sonli "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinib, mazkur qaror bilan diniy soha vakillari faoliyati qaytadan ko'rib chiqildi. Ushbu maqsadda Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islom huquqi (fihi) ilmiy maktablarini ochish bo'yicha tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda.¹⁰²

Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

¹⁰⁰ <https://lex.uz/ru/docs/-3911773>

¹⁰¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/30/mehr>

¹⁰² <https://lex.uz/ru/docs/-4500897>

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnasevarligi, bag'rikengligi va ma'rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo'lmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son farmoni qabul qilingan.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizasiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish hamda 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

1. Quyidagilar diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

“jaholatga qarshi ma'rifat” ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

islom va jahon sivilizasiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqasizlik muhitini shakllantirish;

jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

globallasuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish.

2. Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida 15 ta shtat birligidan iborat Diniy-

ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil markazi (keyingi o'rinlarda Markaz deb yuritiladi) tashkil etilsin.

Markaz Din ishlari bo'yicha qo'mitaning diniy mavzularga oid adabiyotlar, Internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradigan axborot-tahliliy tuzilmasi hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga ixtisoslashgan yetakchi davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi;

Respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

huquq va majburiyatlar bo'yicha qayta tashkil etilayotgan O'zbekiston islom akademiyasining hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universitetining huquqiy vorisi hisoblanadi.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 14-bandida belgilangan imtiyozlar O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasiga ham tatbiq etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilsin.

5. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo‘lgan Malaka oshirish markazi tashkil etilishi inobatga olinsin.

Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida imom-xatiblar, imom noiblari, diniy soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, oliy va o‘rta ta’lim muassasalarining sohaga tegishli pedagog kadrlari qayta tayyorgarlikdan o‘tadi va malaka oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallari faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilsin.

6. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi “Ziyo” media markazi mamlakatimizda dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ajdodlarimizning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan boy diniy-ilmiy merosini keng targ‘ib qiluvchi, diniy-ma’rifiy hayotdagi yangiliklarni jamoatchilikka yetkazuvchi asosiy media tuzilma sifatida shakllantirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda “Ziyo” media markazi ishini samarali tashkil etish maqsadida uni aloqa vositalari, keng qamrovli Internet tarmog‘i, zamonaviy telestudiya, televizion uskunalar jamlanmasi, kompyuter texnikalari, dasturiy

ta'minot va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

“Ziyo” media markazi 2021-yilning 1-mayiga qadar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yhatlar bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan, zamonaviy telestudiya tashkil etish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, kompyuter va server texnikasi, texnika vositalari, shuningdek, boshqa moddiy-texnika resurslarini olib kirish uchun bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'img'lar bundan mustasno) to'lashdan ozod etilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekistondagi Islom sivilizasiyasi markazining oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Qur'oni karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o'zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish Hadis ilmi maktabining asosiy vazifalari etib belgilangani inobatga olinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni qabul qilsin.

8. O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Muqaddas qadamjolarini saqlash va obod etish xayriya jamoat fondi Vasiylik kengashi mazkur fondni tugatish to'g'risida qaror qabul qilganligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida “Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil etilganligi, 2-ilovaga muvofiq ushbu jamoat fondining Vasiylik kengashi tarkibi ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

“Vaqf” xayriya jamoat fondining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi qayd etilsin:

fuqarolarning diniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash;

masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining binolarini qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

tarixiy-me'moriy ahamiyatga ega ziyoratgohlarni saqlash, ta'mirlash, obodonlashtirish, ularning infratuzilmasini yanada rivojlantirish;

diniy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o'quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

masjidlar va ziyoratgohlar xodimlarini, xususan imom-xatiblar, imom noiblari, mutavallilar, muazzinlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

islom ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, zamonamizning yetuk olim va ulamolari qalamiga mansub diniy-ma'rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko'maklashish;

yurtimizdagi muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarining musulmon dunyosidagi nufuzini yanada oshirish, bu maskanlarga mahalliy va xorijiy fuqarolarning ziyoratlarini uyushtirish, ziyoratchilar uchun zarur sharoitlar yaratish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan birgalikda O'zbekiston musulmonlari idorasiga bir oy muddatda "Vaqf" xayriya jamoat fondining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish, fuqarolardan zakot, fitr va boshqa xayriya mablag'lari sifatida tushadigan mablag'lar Fondning alohida hisob raqamida to'planishi,

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan (shu jumladan, Internet tarmog‘i orqali onlayn kuzatish imkoniyatini yaratgan) holda mablag‘larning tushishi va sarflanishida to‘liq shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy ko‘mak bersin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Madaniyat vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi bilan birgalikda uch oy muddatda respublikadagi barcha muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarini o‘rganib chiqsin hamda ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 1-iyulga qadar o‘rganish natijalari asosida muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni “Vaqf” xayriya jamoat fondiga foydalanish uchun ijaraga berish huquqi bilan biriktirib berishni nazarda tutuvchi qarorni qabul qilsin.

Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar moddiy madaniy meros obektlari hisoblanadi hamda ularning talab darajasida muhofaza qilinishi ustidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan davlat nazorati o‘rnatiladi.

10. O‘zbekiston musulmonlari idorasining “Vaqf” xayriya jamoat fondi mablag‘lari hisobidan ushbu idora tizimidagi diniy-ma‘rifiy tashkilotlarda:

faoliyat yuritayotgan xodimlarga, shu jumladan imom-xatiblarga oylik ish haqi to‘lash;

faoliyat yuritayotgan uy-joyga muhtoj xodimlarni xizmat uy-joylari bilan ta‘minlash;

ko‘p yillar davomida namunali faoliyat yuritayotgan, uy-joyga muhtoj imom-xatiblarga yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha qurilayotgan uy-joylarni sotib olib, tekinga berish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O‘zbekiston musulmonlari idorasining buyurtmasiga asosan idora tizimidagi diniy-ma‘rifiy tashkilotlar xodimlariga xizmat

uy-joylari va ularga sotib olib berish uchun yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan uy-joylarning ajratilishini ta'minlasin.

11. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizasiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rahbariyati, o'qituvchi, ilmiy xodim va mutaxassislariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlariga ko'ra tarif koyeffisiyentlari va bazaviy lavozim maoshlari 3 baravar (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisiga, Markaz rahbariyati va xodimlariga - 4 baravar) miqdorda qo'llaniladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Fanlar akademiyasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston musulmonlari idorasi va keng jamoatchilikning islom ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, mamlakatimiz dovrug'ini jahon miqyosida keng yoyish ishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan shaxslarni rag'batlantirish maqsadida "Imom Buxoriy" davlat mukofotini ta'sis etish haqidagi taklifi qo'llab-quvvatlansin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risidagi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini kirisin.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita Adliya vazirligi bilan birgalikda diniy-ma'rifiy sohada namunali faoliyat yuritayotgan, ijtimoiy-ma'naviy ishlarda alohida o'rnak ko'rsatayotgan soha vakillarini rag'batlantirish, shu jumladan davlat mukofotlariga taqdim etish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasiga kiritib borsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita:

bir hafta muddatda qo'mita faoliyatini takomillashtirish va uning yangilangan tuzilmasini tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini;

Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirisin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchilari R.T. Kamilov va R.S. Qosimov zimmasiga yuklansin.

Mavzu bo'yicha savollar

1. O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar haqida ma'lumot bering?
2. "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili haqida ma'lumot bering?
3. Ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat va bunyodkorlik deganda nimani tushunasiz?
4. Insonparvarlik tamoyi deganda nimani tushunasiz?
5. Islom madaniyatining qanday asl qadriyatlarini bilasiz?
6. Qanday qilib yoshlarni Vatanimiz tinchligi va uning kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalash mumkin?

GLOSSARIY

JAMOAT TASHKILOTLARINING VAZIFALARI – fuqarolarning ijtimoiy ruhiyati (ijtimoiy psixologiyasini) muayyan tizimga solib, ijtimoiy – iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yuvchi, xalqning irodasini izchil va tizimli bayon etuvchi, dasturlarni ishlab chiqish va qonun chiqaruvchi organda (Oliy Majlisda) demokratik jamiyat uchun kurash olib borish va h.k.dan iboratdir.

IJTIMOIIY RIVOJLANISHDA FIKRLAR XILMA-XILLIGI – xato va kamchiliklarni aniqroq ko'rishga, uni o'z vaqtida bartaraf qilishga yordam beradi, adolatni yo'zaga chiqaradi, fikrlarning aqidalashuvidan xalos qiladi. "Fikrlar muvozanati jamiyat muvozanatini saqlaydi". O'zbekistonda fikrlar xilma-xilligi mavjud. U 5 partiya va ijtimoiy harakatlar ishtirokida amalga oshiriladi.

IYMON - arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi - ishonch demakdir. SHariatda esa janob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Olloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo'lib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi. Ya'ni Qur'oni Karim va Hadisi SHariflar orqali Olloh, to'g'risida, jannat, do'zax, qiyomat qabilar haqida berilgan xabarlarga ishonch - iymondir. Ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odam-zotgagina xos ruhiy hodisa jumlasiga kiradi.

ILOHIY KITOBLAR - muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko'ra, Alloh o'tgan payg'ambarlarning ba'zilariga sahifalar, bazilariga esa, kitoblar nozil etgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani SHis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as) ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muxammad (as)ga Qur'onni nozil qilgan. Qur'ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo'la bir daf'ada nozil qilingan, deb hisoblanadi.

Qur'on hazrati Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan.

INSONPARVARLIK - ("inson" – arabcha "parvar" - fors-tojikcha "lik" – o'zbekcha – kishiga g'amxo'rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng xuquqliligi, adolatli hayotni ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yo'zaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi. Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

ISLOM TARAQQIYOT BANKI (ITB) – xalqaro bank. 1974 yil musulmon davlatlari tashqi ishlar vazirlarining kengashida ITB ni to'zish haqida qaror qabo'l qilingan, bank o'z faoliyatini 1975 yilda boshlagan. Qarorgohi Jiddada. ITBni Boshqaruvchilar kengashi va Direktorlar kengashi boshqaradi. Bank prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. Maqsadi – Musulmon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish. Islomda pulga foyda olish taqiqlangani sababli bankka qo'yilgan mablag'lar uchun foiz olinmaydi va berilmaydi.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI – Qur'on va hadislarga so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar "fundamentalistlar" deb atalmoqda.

ISLOM – (arabcha-bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xiristianlik bilan bir qatorda) dan biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("islomni qabo'l qilgan", "itoatli ", "sadoqatli"; ko'pligi "muslimum") deb ataladi. "Muslim", "muslimum" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffo'z etish (masalan, forslarda – musulmon, o'zbeklarda - musulmon, qirg'iz va qozoqlarda – musulmon, Uqraina va

Rossiyada – basurmon) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bo'larning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan. Jahonda qarib 1,2 mlrd kishi Islomga e'tiqod qilishadi.

MAFKURA – (arabcha – fikrlar majmui) ijtimoiy jarayonlar ma'no - mazmunini anglashni va uning boshqarish usulini bilishni da'vo qiladigan, ong va hatti-harakatni yo'naltiradigan ideallar, qadriyatlar maqsadlar, qarashlar yig'indisidir. U ma'lum maqsadni va unga erishish usullarining haqiqiylikiga, amalga oshirish mumkinligiga ishonch tug'diradi. Unda manfaatlari ifodalanadigan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqbollari haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topadi.

MAFKURAVIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI – mafku-raviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy hayotning barcha sohalarini globallashuv jarayoni qamrab oldi. Natijada jamiyat bir butun yaxlit bo'lib, insoniy munosabatlar makon va zamon chegaralarini pisand qilmasdan butun er yo'zidan yagona jarayonga aylandi.

MAFKURAVIY IMMUNITET – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, bo'zg'unchi harakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi. Davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

MAFKURAVIY PLYURALIZM – (lotincha xilma-xillik, rang-baranglik) - bir mamlakat doirasida bir vaqtning o'zida bir-biridan farq qiladigan hatto o'zaro kurashadigan g'oyalar, qarashlar. mafkuralarning majmuini ifodalaovchi tushuncha. Demokratik jamiyatda bunday holat tabiiy, zaruriy bo'lib jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlardan, guruhlardan, sinflardan, siyosiy kuchlardan iboratligi in'ikosidir.

MAFKURAVIY POLIGON - odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g'oyalarning sinov maydoni.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA - mafkuraviy parokandalikning oldini olish, mafkuraviy bo'shliqni tugatish, biror-bir hudud, qatlam, ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui.

MAFKURAVIY SIYOSAT – Muayyan mafkuraviy qarashlarni odamlar ongiga singdirish, ularni ma'lum maqsad atrofida uyushtirish, boshqarish uchun uslub va vositalar, ularni ishlab chiqish, tartibga solish bilan bog'liq faoliyatlar majmui.

MILLATLARARO TOTUVLIK – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

G'OYAVIY BO'SHLIQ - deb, eski xo'qmrn mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qachon Rim Papasining Istanbul Patrigini la'natlashi bilan cherkovlar o'rtasida qat'iy bo'linish yuzaga keldi?
 - A) 1054-yilda
 - B) 325-yilda
 - C) 381-yilda
 - D) 330-yilda
2. Noel, Epifanie, Pesax-pasxa, Xoch xotirasi, Maryamona kuni qanday ibodat turiga mansub hisoblanadi?
 - A) Kunlik ibodat
 - B) Haftalik ibodat
 - C) Oylik ibodat
 - D) Yillik ibodat
3. Iso (a.s) ning tug'ilish xotirasiga bag'ishlab o'tkaziluvchi bayram turi?
 - A) Noel
 - B) Xoch xotirasi
 - C) Maryamona kuni
 - D) Epifanie
4. Ilk marotaba Noel bayrami qaysi davlatda nishonlangan?
 - A) Germaniya
 - B) Rim
 - C) Fransiya
 - D) Turkiya
5. "Ibtidoiy madaniyat" asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) M.Myuller
 - B) E.Taylor
 - C) M.Rikki
 - D) J.Lafito
6. Aqshdagi ilk islom tashkiloti qachon tashkil qilingan?
 - A) 1911
 - B) 1912

C) 1913

D) 1914

7. Aqshdagi eng katta islomiy tashkilot qaysi?

A) Shimoliy Amerika Islom Jamiyati

B) Amerika musulmonlar jamiyati

C) Islom Aloqalari Kengashi

D) Amerika islom kongressi

8. Amerika musulmonlar jamiyati tashkilotining bosh ofisi qayerda joylashgan?

A) Vashington

B) Boston

C) Los-Andjeles

D) Kanada

9. Amerikada talaba-yoshlarni birlashtirib turuvchi Musulmon talabalari uyushmasi qachon tuzilgan?

A) 1963-yilda

B) 1964-yilda

C) 1965-yilda

D) 1966-yilda

10. Qachon Vashingtonda Islom partiyasi tuzildi?

A) 1988-yilda

B) 1978-yilda

C) 1972-yilda

D) 1976-yilda

11. “Islom zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashdagi muammoning bir qismi emas, balki u tinchlikni targ‘ib qilishning muhim qismidir” quyidagi fikrlar kimga tegishli?

A) Barak Obama

B) Islom Karimov

C) Daniyel Pites

D) Maks Myuller

12. Sakralizatsiya atamasi qaysi tildan olingan?

A) yunoncha

B) lotincha

- C) inglizcha
 - D) fransuzcha
13. Sekulyarizatsiya soʻzining maʼnosi nima?
- A) lotincha-dunyoviy
 - B) lotincha-diniy
 - C) lotincha-cherkovga oid
 - D) yunoncha-muqaddaslashtirish
14. Klerikalizatsiya soʻzining maʼnosi nima?
- A) lotincha-dunyoviy
 - B) lotincha-diniy
 - C) lotincha-cherkovga oid
 - D) yunoncha-muqaddaslashtirish
15. Dinshunoslik oʻzining anʼanaviy shakldagi tushunchalaridan farq qiluvchi qarashlarni qamrab olgan “zamonaviy dinshunoslik” iborasi bilan qaysi asrdan yuritila boshlandi?
- A) XX asrning boshidan
 - B) XX asrning ikkinchi yarmidan
 - C) XIX asr oxiridan
 - D) XVIII asr oʻrtalaridan
16. Ilk xalqaro dinshunoslik kongressi qayerda chaqirilgan?
- A) Parij
 - B) Italiya
 - C) Fransiya
 - D) Germaniya
17. “Dinlar tarixi xalqaro assotsiatsiyasi” qachon tashkil topgan?
- A) 1949-yil
 - B) 1950-yil
 - C) 1980-yil
 - D) 1990-yil
18. “Dinlar tarixi xalqaro assotsiatsiyasi” qayerda tashkil qilingan?
- A) Fransiya
 - B) Amsterdam
 - C) Italiya
 - D) Germaniya

19. “Dinlar tarixi xalqaro assotsiatsiyasi” jurnali qanday nomlanadi?
- A) Dinlar tarxini yoritish
 - B) Dinlar tarixi bo‘yicha izlanishlar
 - C) Numen
 - D) Ibtidoiy madaniyat
20. “Dinlarni o‘rganishda an’anaviy qarashlar” kitobining muallifi?
- A) J.Vaordenburg
 - B) F.E.Ueling
 - C) M.Myuller
 - D) E.Taylor
21. “Dinlarni o‘rganishda zamonaviy qarashlar” kitobining muallifi?
- A) J.Vaordenburg
 - B) F.E.Ueling
 - C) M.Myuller
 - D) E.Taylor
22. Ibn Rushdning g‘oyalarini rivojlantirgani uchun kim jazoga hukm etilgan?
- A) Siger Brabantskiy
 - B) Nikolay Kopernik
 - C) Jordano Bruno
 - D) Nikolay Kuzanskiy
23. Bunday tasnifda dinlar ularga e‘tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra yuqoridan pastga tomon tadrijiy suratda tartiblanadi.
- A) Dinlarning statistik tasnifi
 - B) Dinlarning mintaqaviy tasnifi
 - C) Dinlarning davriy jihatdan tasnifi
 - D) Dinlarning metafizik jihatdan tasnifi
24. “Sehrgarlik va din” asarining muallifi?
- A) J.Frazer
 - B) M.Myuller
 - C) E.Jeyms
 - D) E.Taylor
25. Bu tasnif diniy omil yoki diniy mavzuga asoslanadi.
- A) Dinlarning mavzusiga ko‘ra tasnifi

- B) Dinlarning mintaqaviy tasnifi
C) Dinlarning davriy jihatdan tasnifi
D) Dinlarning metafizik jihatdan tasnifi
26. Dinshunoslar Uzoq Sharq dinlarini nima deb ataydilar?
A) Uzoq Sharq dinlari
B) falsafiy dinlar
C) diniy-falsafiy dinlar
D) nirvana dinlari
27. BMT tomonidan Xalqaro bag'rikenglik yili deb qachon e'lon qilindi?
A) 1992-yil
B) 1993-yil
C) 1995-yil
D) 1996-yil
28. O'zbekiston YUNESKOga qachon a'zo bo'lgan?
A) 1993-yil 26-oktyabr
B) 1995-yil 16-noyabr
C) 1993-yil 14-sentyabr
D) 1996-yil 16-oktyabr
29. YUNESKO Ijroiya kengashining 155-sessiyasi qayerda o'tkazilgan?
A) Bishkek
B) Parij
C) Ostona
D) Toshkent
30. YUNESKO "Tinchlik madaniyati" konsepsiyasini qachon ishlab chiqdi?
A) 2000-yil
B) 2001-yil
C) 2002-yil
D) 2003-yil
31. Konrad Adenaur jamg'armasi deb nechanchi yildan rasman aytilgan?
A) 1964-yil
B) 1965-yil

C) 1966-yil

D) 1967-yil

32. Konrad Adenaur jamg'armasining Germaniyada nechta ta'lim markazi mavjud?

A) 20 ta

B) 21 ta

C) 22 ta

D) 23 ta

33. Konrad Adenaur jamg'armasining O'zbekistondagi asosiy hamkorlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro markazi

B) "Zakovat" tadbirlarni axborot bilan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi

C) "Ayol va jamiyat" instituti

D) Barcha javoblar to'g'ri

34. Mualliflik huquqi to'g'risidagi butunjahon konvensiyasi qachon qabul qilingan?

A) 1950-yil

B) 1951-yil

C) 1952-yil

D) 1953-yil

35. Ilohiy bo'lmagan dinlar guruhiga qaysi dinlar kiradi?

A) Misr dinlari

B) Ossuriya va Bobil dinlari

C) Yunon va Rim dinlari

D) Barcha javoblar to'g'ri

36. "Qiyosiy dinshunoslikni o'rganish" asarining muallifi?

A) V.Lessa

B) M.Myuller

C) E.Jeyms

D) E.Taylor

37. Avstriya, Vengriya, Gaiti, Monako, Marokash davlatlari qaysi cherkov bilan kelishuvga ega?

- A) Katolik
- B) Protestant
- C) Baptistlar
- D) Provaslav

38. Diniy-jamoaviy tizimli davlat qaysi?

- A) Isroil
- B) Falastin
- C) Vatikan
- D) Italiya

39. Dinga davlat dini maqomi bergan davlatlar qaysi qatorda berilgan?

- A) Qatar
- B) Pokiston
- C) Kosta-Rika
- D) Barcha javoblar to'g'ri

40. YUNESKO tomonidan "Bag'rikenglik tarmog'i"ning ikkinchi yig'ilishi qayerda o'tkazilgan?

- A) Bishkek
- B) Parij
- C) Ostona
- D) Toshkent

41. BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot?

- A) YUNESKO
- B) YUNISEF
- C) Xalqaro olimlar uyushmasi
- D) Barcha javoblar to'g'ri

42. XX asrning ikkinchi yarmida dinshunoslikning qanday yangi sohasi paydo bo'ldi?

- A) din psixologiyasi
- B) din ekologiyasi
- C) din falsafasi
- D) din mifologiyasi

43. Qiyosiy dinshunoslik lug'ati qachon yaratilgan?

- A) 1968-yil

- B) 1970-yil
 - C) 1913-yil
 - D) 1914-yil
44. Shimoliy Amerika islomiy jamiyatining jurnallari soni?
- A) 60 ming
 - B) 10 ming
 - C) 20 ming
 - D) 30 ming
45. “Butun dunyo islomiy yordam tashkiloti” qaysi davlatda joylashgan?
- A) Fransiya
 - B) Amerika
 - C) Germaniya
 - D) Italiya
46. Aqshga ko‘chib kelgan qaysi davlat imigrantlari xalqaro musulmon jamiyati tashkilotini tuzishdi?
- A) Suriya
 - B) Liviya
 - C) Germaniya
 - D) A va B javoblar to‘g‘ri
47. Amerika islom aloqalari kengashi qachon tashkil topgan?
- A) 1994-yil
 - B) 1995-yil
 - C) 1996-yil
 - D) 1997-yil
48. Leningrad dinshunoslik maktabi asoschisi?
- A) V.Lessa
 - B) M.Myuller
 - C) E.Jeyms
 - D) M.I.Shaxnovich
49. Misr hierogliflari shifri kim tomonidan topilgan?
- A) Dyuperron
 - B) Shampolyon
 - C) E.Jeyms
 - D) M.I.Shaxnovich

50. Sansikritshunoslik kafedrası qayerda ochilgan?

- A) Parij
- B) Italiya
- C) Aqsh
- D) Germaniya

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017.

2. Shermuhamedov K., Karimov J., Najmiddinov J., Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017

3. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.

4. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

3. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining qonuni. – T.: Adolat, 1998.

4. K. Shermuhamedov, J. Karimov, J. Najmiddinov, Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017.

5. Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik: (yuz savolga-yuz javob) / Mas’ul muharrir O. Yusupov. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017.

6. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / A. Hasanov va boshq. – Toshkent, “Toshkent islom universiteti Nashriyot-matbaa birlashmasi” 2017.

7. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami) / Mas'ul muharrir O.Yusupov; Toshkent, "Toshkent islom universiteti Nashriyot-matbaa birlashmasi" 2017.

8. S.Saidjalolov. Dinlardagi oqimlar va sektalar. – Toshkent, "Complex print" 2019.

9. Aliyev J. Zulmat girdobi. –Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.

10. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti", 2007. – 122 b.

11. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta'limot va uslublar, tahlil va xulosalar / Mas'ul muharrir: I. Usmonov; Toshkent islom universiteti, Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – 368 b.

12. Yovqochev Sh., Bobojonov B., Rahimjonov D., Abdusattorov A., Soliyev A. Islom va hozirgi zamon. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 208 b.

13. Jo'rayev Sh. Buzg'unchi da'vatchilar. –Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 40 b.

14. Jo'rayev Sh. "Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari" // O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 80 b.

Axborot manbalari

1. <http://www.religions.uz> – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita veb-sayti;

2. <http://www.muslim.uz> – O'zbekiston musulmonlar idorasi veb-sayti;

3. <http://www.buxoriy.uz> – Toshkent islom instituti veb-sayti;

4. <http://www.bukhari.uz> – Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi veb- sayti;

5. <http://www.hidoyat.uz> – "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyot-matbaa ijodiy uyi veb-sayti;

6. <http://www.ziyonet.uz> – Axborot ta'lim tarmog'i

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU: “DIN NIQOBIDAGI TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI” O‘QUV KURSIGA KIRISH	4
2-MAVZU: ISLOM - TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA MA’RIFAT DINI. ISLOM NIQOBIDAGI EKSTREMIZMNING G‘OYAVIY ILDIZLARI.....	12
3-MAVZU: ISLOM ASOSLARINI G‘ARAZLI MAQSADLARDA BUZIB TALQIN QILISH: MOHIYAT VA MAQSADLAR	21
4-MAVZU: GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK GURUHLAR.....	34
5-MAVZU: GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK GURUHLAR (“IROQ VA SHOM ISLOM DAVLATI”).....	40
6-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“HIZBUT-TAHRIR”)	45
7-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“AKROMIYLAR”, “NURCHILAR”)	53
8-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DIN NIQOBIDAGI EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR (“TURKISTON ISLOM HARAKATI”).....	58
9-MAVZU: YANGI DINIY HARAKATLARNING FAOLIYAT USLUBLARI TAHLILI.....	61
10-MAVZU: NORASMIY DINIY JAMOALAR FAOLIYATINING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA’SIRI	65
11-MAVZU: DESTRUKTIV SEKTALARINING JAMIYAT BARKARORLIGIGA TAHDIDI (“AUM SINRIKYO”, “DAVIDCHILAR BO‘LINMASI”, “MORMONLAR JAMOASI”).....	70
12-MAVZU: DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI.....	76
13-MAVZU: EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH BO‘YICHA XALQARO HUQUQIY ME‘YORLAR VA XALQARO TASHKILOTLAR FAOLIYATI.....	88
14-MAVZU: VIJDON, E‘TIQOD ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR	105
15-MAVZU: YANGI O‘ZBEKISTONNING “JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” G‘OYASI ASOSIDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH STRATEGIYASI	125
GLOSSARIY	140
TEST TOPSHIRIQLARI.....	144
ASOSIY ADABIYOTLAR	153

RAUPOVA RA'NO SOYIBOVNA

**DIN NIQOBIDAGI TAHDIDLARGA QARSHI
IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: M.Talipova
Musahhah: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 15.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84¹/₁₆. TIMES garniturasida
Shartli bosma tabog'i 9,8. Nashr tabog'i 8,2
Adadi 100. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.